


ROBERT FISH
SAMOLYOTDAGI
O'G'IRLIK



• H I K O Y A L A R •

HAHON ADABIYATI TURKUMIDAN

11777
№ 11

JAHON ADABIYOTI TURKUMIDAN

ROBERT FISH

SAMOLYOTDAGI O'G'IRLIK

Hikoyalar to'plami



ZIYO NASHR

Toshkent
2020

UO'K: 821.111(73)-32

KBK 84(7AQSH)

F 74

Tahrir hay'ati:

**Naim Karimov, Umarali Normatov, Erkin A'zam,
Xurshid Do'stmuhammad, Suvon Meliyev,
Shuhrat Sirojiddinov, Nurbey Jabborov, Dilmurod Quronov,
Uzoq Jo'raqulov, Ulug'bek Hamdamov,
Abdurahmon Jo'rayev**

Hikoyalar hajman kichkina bo'lsa-da, ularda katta voqealar, haqiqatlar aks etadi. Ularning mag'zini chaqa olgan kitobxon esa oldin tushunib yetmagan narsalarni anglay boshlaydi.

Ushbu hikoyalar to'plami ham jahon adiblarining ana shunday sara ijod namunalaridan tashkil topgan.



ISBN 978-9943-6341-5-2

© Qandilal Yusupova va b. (tarj.).

© „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020.

NASHRIYOTDAN

Biz o'tgan mingyilliklar davomida jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan, uni o'zgartira olgan xalqimiz. Madaniyat, san'at, axloq, falsafa, fan va adabiyot sohasida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan meros hali-hamon dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlari tomonidan e'tirof etilib, o'rganib kelinadi. Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Burhoniddin Marg'iloniy, Ahmad Farg'oniy, Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Bahouddin Naqshband, Abullays Samarqandiy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugna'kiy, Mahmud Koshg'ariy, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab singari yuzlab ajdodlarimiz borki, biz ularni hech ikkilanmasdan jahon miqyosidagi mutafakkirlar deyishga haqlimiz. Ammo bugungi avlod ularning buyuk shaxsiyati, tarixi, jahonshumul shon-shuhrati bilangina cheklanib qolmasligi lozim. Ajdodlarning madaniy, ma'rifiy, ilmiy, ijtimoiy, adabiy faoliyati, hayot tarziga doimo hushyor nigoh va ibrat ko'zi bilan qarashimiz maqsadga muvofiq. Tarixiy manbalarni sinchiklab o'rganadigan bo'lsak, mutafakkir ajdodlarimiz jahon madaniyati, ilmiy va badiiy tafakkuri bilan doimiy tarzda hamqadam, hamnafas bo'lib kelganlar. Jahonda ro'y berayotgan birorta madaniy-intellektual o'zgarish, biror badiiy tafakkur namunasi bobolarimiz nazaridan chetda qolmagan. Ajdodlarimiz ularni o'qib, uqishar ekan, o'z milliy madaniyatlarini rivojlantirish, jahon xalqlaridan ortda qolmaslikni maqsad qilganlar. Ko'plab xorijiy tillarni bilganlari, xorij mutafakkirlari yozgan asarlarni tarjima qilganlari bu o'rinda qo'l kelgan. Eng muhimi, xorij madaniyati, badiiy-ilmiy tafakkuri namunalariga nisbatan shaxsiy to'xtamlari, xulosalari va tanqidiy nuqtayi nazarlari bo'lgan.

Bugun biz, mamlakatimiz Prezidenti kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishni davlat siyosati darajasiga ko'targan bir paytda, o'tmishda yashab o'tgan buyuk ajdodlarimiz an'anasini izchil davom ettirishimiz, jahon madaniyati, san'ati, adabiyoti namunalari bilan izchil va tizimli tarzda tanishib borishimiz zarur.

Xalqimiz ijtimoiy-madaniy hayotidagi mana shunday ulkan ehtiyojni nazarda tutib „Ziyo nashr“ nashriyoti bir xayrli ishga qo'l urishga bel bog'ladi. Ya'ni joriy yildan e'tiboran jahon nasri namunalarining yuz jildligini chop etishga kirishdi.

Mazkur nashrda siz turk, rus, ingliz, italyan, fransuz, nemis, hind, xitoy, arab, eron, yapon, amerika adabiyoti namunalari bilan tanishasiz. Yuz jildlikda Ch. Dikens, L.N.Tolstoy, A. Dyuma, N.V.Gogol, O.de Balzak, A.P.Chexov, Gi de Mopassan, J. London, G. Flober, M. Sholoxov, G.G.Markes, A. Kuprin, V. Shukshin kabi siz muhtaram o'quvchiga nisbatan tanish yozuvchilar asarlari bilan birga, S. King, U. Folkner, V. Vulf, Mo Yang, Chan May Txyun, V. Losa Mario, T. Bug'ra, Alp Dundar, Dino Buttsati, R. Akutagava, J. Bunin, K. Chandar, Abdul Muis, Y. Zamyatin singari jahon xalqlari tomonidan e'tirof etilgan-u, ammo o'zbek kitobxonlarining aksariyati ilk bor uchrashayotgan yozuvchilar asarlarini o'qishga muyassar bo'lasiz.

Mazkur yuz jildlik jahon nasrining deyarli barcha janrlarini qamrab oladi. Unda siz jahon o'quvchilarini hayratga solib kelayotgan romanlar, qissalar, novella va hikoyalardan bahramandlik hissini tuyasiz.

Tarjimalar ichida Abdulla Qahhor, Zumrad, Odil Rahimiy, Qodir Mirmuhamedov, Vahob Ro'zmatov, Ozod Sharafiddinov, Ibrohim G'afurovdek mashhur tarjimonlar o'giran asarlar qatorida umidli yosh tarjimonlar ijodi namunalari ham o'rin olgan. Albatta, tarjima asarlar tarkibida rus tili vositasida amalga oshirilganlari ko'proq. Bunda biz tajribali, mahoratli tarjimonlar o'girmalariga bo'lgan ishonch va hurmatni bosh mezon qilib oldik. Shu bilan birga, ingliz, fransuz, nemis, turk, arab, fors tillaridan qilingan original tarjimalarning mutaxassislar tomonidan tan olingan namunalari ham qamrab olishga urindik. Eng muhimi, bu o'rinda badiiy tarjimalar sifati, milliy tilimiz jozibasini qanchalik aks ettirganiga asosiy e'tiborni qaratdik. Yuz jildlikni tayyorlash jarayonida imkon darajasida xalqimiz ma'naviyati va axloqiy o'lchamlariga muvofiq keladigan asarlarni tanlashga harakat qildik.

Ammo shuni alohida ta'kidlashni istardikki, „Jahon nasri namunalari yuz jildligi“ni chop etish nashriyotimiz uchun ilk tajriba. Shunday bo'lgach, mazkur yirik loyihaning kamchiliklari, maromiga yetmagan jihatlari bo'lishi tabiiy. Bu jarayon muttasil davom etib, tajriba va mahorat, texnik imkoniyatlar oshgan sari kamchiliklar ham bartaraf bo'la borishiga ishonamiz. Va, umid qilamizki, xayrli niyat bilan boshlayotgan ishimizdagi juz'iy kamchiliklarni aziz kitobxonlarimiz ma'zur tutadilar. Muhtaram adabiyotshunoslarimiz, adiblarimiz va adabiyot muallimlarimiz keyingi nashrlarni amalga oshirish jarayonida o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamaydilar.

Yaratgan Alloh ishimizni xayrli, ajr-mukofotlarga loyiq, jonajon xalqimiz uchun manfaatli qilsin!

SAMOLYOTDAGI O'G'IRLIK

Oxirlab qolgan yoz faslining iliq kuni. Pastqam Tennessi tog'lari ortida bir parcha bulut suzib yuribdi. Bulutning iziga tushganday samolyot uchib borayotir. Bu – Nyu-York – Yangi Orlean yo'nalishi bo'ylab parvoz qilayotgan „727“ yo'lovchi samolyoti.

Uchuvchilar xonasiga kiriladigan torgina eshikdan do'lvor aloqachi pishillab kirib keldi. Birinchi uchuvchiga imo qilib, o'z joyiga o'tirdi va naushnikni taqdi. Uchuvchi unga diqqat bilan tikildi. Aloqachining xotirjam qiyofasiga nazar tashlab, hammasi joyida ekaniga ishonch hosil qildi va yana bir parcha bulutga tikildi. Pastda ko'zguday silliq dengiz yuzida quyosh nurlari mavjlanardi. Birinchi uchuvchi mikrofonni qo'lga oldi, ovozinı pasaytirib musıqa qo'ydi, keyin esa radioset orqali salondagi yo'lovchilarga murojaat qildi:

– Xonimlar va janoblar, samolyot kapitani gapirayotir. O'ng tomonda, biroz oldında Uots-Bi ko'li yastangan. Ko'lning janubidagi to'g'onni sizlar ham tomosha qilsangiz bo'ladi.

U gapini tugatishga ulgurmadi – ro'parasidagi ogohlantiruvchi lampochka o'chib-yona boshladi. Kapitan tumbler tugmasini bosdi:

– Eshitaman.

– Kapitan, Klarissa gapirayotir. Bu yerda... Bu yerda ko'ngilsiz voqea, kapitan.

– Nima bo'ldi?

– Qandaydir yo'lovchi Milli bilan hojatxonaga bekinib oldi. Yo'q, yo'q, bu shunchaki bezorilik emas, – shoshapisha gapirdi styuardessa, go'yo noto'g'ri tushinishlaridan cho'chiganday. – Bu – o'g'irlik!

Uning ovozi qo'rquvdan titrardi.

Aloqachi uchuvchilarga savolomuz tikildi. Ikkinchi uchuvchi o'midan qo'zg'almoqchi bo'ldi, biroq kapitan, joyingga o'tir, deganday imo qildi va mikrofonga yuzlandi:

– Klarissa, politsiya agenti hozir qayerda?

– Yonimda o'tiribdi.

– Yo'lovchilar xotirjammi?

– Xotirjam, hozircha hech kimning hech vaqodan xabari yo'q.

– Juda soz. Yo'lovchilarga hech narsa aytmanglar. Telefon go'shagini politsiya agentiga ber.

– Salom, kapitan! – darhol politsiyachining xirillagan ovozi yangradi. – Hammasi kutilmaganda ro'y berdi. Bu kimsa hojatxona tomon yo'l oldi, hech kimning e'tiborini tortgani yo'q. Tamburga kirganda styuardessa ham o'sha yerda ekan, o'zi bilan birga hojatxonaga majburan olib kiribdi. Men yopiq eshik orqasida turib gaplashdim. Mil-ning ahvoli yomon emas. Aytishicha, anavi kimsaning to'pponchasi, pichog'i, qolaversa qo'lida nitroglitserin to'la shisha ham bor emish. Milli, shishada quyuyq sariq suyuqlik bor, deb aytdi... – Agent yo'taldi va ikkilanib so'radi: – Nima qilamiz, kapitan?

– Hech nima! – kapitan darhol keskin javob berdi. – Bu tasqara sho'rlik Millini eshikka tirab turgan ko'rinadi. Binobarin, qurol ishlatishning iloji yo'q. Klaressa bilan birga borib, u bilan gaplashishga, niyati nima ekani-ni bilishga urinib ko'ring. Men esa Yangi Orlean bilan bog'lanaman.

Aloqachi Yangi Orleandagi aeroportning dispetcheri bilan bog'lana boshladi.

– Klaressa!

– Labbay, kapitan.

– Hojatxona eshigiga „Hojatxona ishlamayapti“ degan lavhani ilib, pardani ham tortib qo'y. Millining ahvoli yaxshimi?

– Bir daqiqa... To'xtab turing, u nimadir demoqchi. Salom, kapitan! Millining aytishicha, bu janob Jeksonvill tomon parvoz qilishimizni, o'sha yerda qo'shimcha yonilg'i olishimizni talab qilayotir.

– Jeksonvillda nima bor? Yonilg'imiz busiz ham Meksikagacha yetadi!

– Gapingizni unga yetkazaman.

– Menga qara, yo'lovchilar ro'yxatini ko'zdan kechirmadingmi? Bu qaroqchi kim bo'ldi? Ismi-sharifi?

– Xartfordlik Charlz Vagner. Iltyuminator yonidagi 16-o'rindiqda o'tirgandi.

– Ko'rinishi qanday?

– Ko'rinishimi?.. – Klarissa biroz tutilib qoldi. – Hamma qatori... O'ttiz yoshlar atrofida, sochlari uzun, turqi sovuq...

– Biron ichimlik ichdimi?

– Faqat pivo. Nazarimda, mast emas. Endi nima qilamiz?

– Yo'lovchilardan hech kimni hojatxona tomonga o'tkazma. Tushundingmi?

– Yangi Orlean! – ayni shu palla xitob qildi aloqachi. Dinamik tilga kirdi:

– Nima bato bo'ldi?

– Samolyotda o'g'ri bor. Styuardessa bilan hojatxonaga bekinib oldi. Qurollangan. Qo'lida nitroglitserin to'la shisha ham bor.

– Qaysi shaharga uchishni talab qilyapti?

– Qo‘shimcha yonilg‘i olish uchun Jeksonvillga.

– Kapitan, aloqada qoling. Bu xabarni ma‘muriyatga va xavfsizlik xizmatiga yetkazaman.

Kapitan sukut saqlagancha ro‘paradan ko‘z uzmas, uning qoramag‘iz yapaloq yuzi qotib qolganday edi. Uchuvchilar xonasiga xavotirli sukunat cho‘kdi, faqat samolyot dvigatellarining guvullashi va radioapparaturalarning shig‘irlashi eshitilardi. Dinamik yana tilga kirdi:

– Kapitan Littljon? Mikrofon oldida xavfsizlik xizmatining xodimi. Sizlarga yo‘nalishni o‘zgartirib, Jeksonvill tomon uchishga ruxsat beraman.

Ikkinchi uchuvchi shu zahoti xatjilddan yangi xaritani chiqardi. Littljon unga imo qilib, shturvalni qo‘lga oldi. Biroz o‘ylagandan keyin mikrofonni yoqdi:

– Xonimlar va janoblar! Sizlar tog‘lar va Tennesi ko‘lini yana bir bor tomosha qilishinglar uchun ortga qaytamiz.

Samolyot janubiy-sharqqa burila boshladi.

– Yaxshi qildingiz, – dinamikdan ma‘qullovchi ovoz eshitildi. – Yo‘lovchilar bilmagani ma‘qul, ortiqcha muammoning nima keragi bor... Endi Jeksonvilldagi xavfsizlik xizmati bilan bog‘laning. Ularni ogohlantirib qo‘ydik.

– Tushunarti, – lo‘nda javob berdi kapitan va yelkasi osha xaritaga tikildi.

– Kapitan! – murojaat qildi Klarissa.

– Ha, eshityapman.

– U yo‘lovchilarning hayoti va samolyot evaziga pul talab qilayotir. Pulni Jeksonvillda olishim kerak deyapti. Uning talabini qondirmasak, oldin Millini otib tashlarkan, keyin esa samolyotni portlatmoqchi.

– Qancha talab qilayotir?

– Chorak million...

Littljon mikrofonni qo'liga oldi:

– Yangi Orlean! Xavfsizlik xizmati. Meni yaxshi eshit-yapsizmi?

Notanish ovoz javob berdi:

– Bu Jeksonvill. Sizni eshityapman.

– O'g'ri chorak million dollar talab qilayotir.

– O'g'rining ismi sharifi bormi?

– Xartfordlik Charlz Vagner. Asli kim ekani noma'lum.

– Boshqa talablari ham bormikan?

– Biroz kutib tursangiz, bilib beraman.

Littljon ichki aloqa bilan bog'landi:

– Klarissa, bu yo'lt'o'sarning boshqa talabi yo'qmi?

– Hammomni orzu qilgan tuyaning naqd o'zi! Pul-lar har biri ellik dollarlik, yigirma besh ming dollardan dastalangan, yana jomadonda bo'lishini talab qilmoq-da. Qolaversa, aeroport binosidan imkon boricha uzoq-roqda, „727“ samolyoti uchun yo'lakning eng oxirida to'xtashimizni talab qilayotir.

– Klarissa, biroz sabr qilgin. Jeksonvill, siz hammasini eshitdingizmi?

– Hammasi tushunarli. Davom eting.

– Klarissa, gapiraver.

– O'g'ri „Samolyotga hechkim yaqin yo'lamasin“, dedi. Barcha shartlariga rozi bo'lsak, yo'lovchilarning hammasini samolyotdan tushirib yuborarkan. Pul samo-lyotga olib chiqilgach va samolyot yana havoga ko'taril-gach, hojatxonadan chiqarmish. Pul solingan jomadonni samolyotga kirish yo'lagida qoldirishni so'rayapti. Bun-dan tashqari, ikkita parashut ham kerak, demoqda.

– Ikkita?

– Ha, ikkita. Bittasi sport parashuti, ikkinchisi harbiy parashut.

– Bir daqiqa...

Xavfsizlik xizmati xodimi kimgadir topshiriq berayotgani dinamikdan eshitilib turardi: „Darhol surishtiring – Charlz Vagner Xartfordda biron-bir sport klubiga a'zo emasmikan? Balki, unga yaqinroq joydagi klubga a'zodir...“

– Yana nima?

Klarissa:

– Hozircha faqat shu...

– Yaxshi,

Birinchi uchuvchi mikrofoniga yuzlandi:

– Shamol yo'nalishidan qat'i nazar „727“ yo'lagiga qo'nishga ruxsat berishingizni so'rayman.

– Ruxsat.

– Pullar-chi?

– Pullar bo'ladi. Parashutlar ham.

Kapitan, nihoyat, diqqat bilan samolyotni boshqara boshladi. Sharqqa qarab parvoz qilishardi. Aloqachi parvoz yo'nalishi tizimini Jeksonvill radar stansiyasiga o'tkazdi. Dvigatellar bir maromda guvullar, pultlar va asboblarning chiroqlari shom qorong'isida yorqinroq porlar, ekipaj a'zolarining tashvishli chehralarida rang-barang jilvalar hosil qilardi. Nihoyat, Jeksonvill chiroqlari hamda sohil sharpasi ko'rindi. Samolyot pastlay boshladi. Littljon boshqaruvni ikkinchi uchuvchiga topshirdi, o'zi esa mikrofonni qo'lga oldi:

– Xonimlar va janoblar, ob-havo noqulay bo'lgani uchun Florida shtatidagi Jeksonvill shahriga uchishga majbur bo'ldik. Qo'nganimizdan keyin mahalliy aeroportning ma'muri sayohatingizni davom ettirish uchun zarur barcha axborotlarni ma'lum qiladi. Sizlarni yangi Orleanga yetkaza olmaganimizdan juda afsusdamiz... Hozir esa chekishni bas qilib, kamarlarni taqib olishlaringizni so'rayman.

Keyin samolyot qo'ndi. Trap tomonidan yo'lovchilarning norozi ohangdagi gap-so'zlari anchagacha eshitilib turdi, nihoyat, salon tinchib qoldi. Samolyot baklariga yonilg'i quyilgach, qo'nish yo'lagining chetiga mikroavtobus kelib to'xtadi. Undan ikkita erkak tushdi. Ulardan biri ixcham jomadon va parashut ko'tarib olgandi. Ikkinchisining qo'lida ham parashut bo'lib, ancha katta edi. Ikkalasi ham trap zinalari bo'ylab ketma-ket ko'tarilib, qo'llaridagi narsalarni chiqish lyuki oldiga qo'ydi. Ularning birinchisi ichkariga mo'ralab, yo'lakning oxirida turgan baland bo'yli, oqishdan kelgan formadagi styuardessaga xayri-xohlik bilan qo'l silkidi. Klarissa alam bilan jilmaygan-cha bosh irg'adi. Ikkinchi erkak ham boshini suqib qaradi, so'ng o'zaro shivirlangancha pastga tusha boshladilar. Mikroavtobus jo'nab ketgach, birinchi uchuvchi ichki aloqa tizimi bo'yicha styuardessaga murojaat qildi:

– Salom, Klarissa!

– Labbay, kapitan.

Anavi kallakesardan qayoqqa uchishimizni so'ra.

– Bir daqiqa... – Klarissa bir necha soniya damini chiqarmadi. – Kapitan, Mayamiga uchishimizni talab qilyapti. Aytishicha, tezlik soatiga to'rt yuz kilometrdan oshmasin, balandlik esa, taxminan, olti ming kilometr atrofida bo'lsin ekan. Orqa eshik ochiq bo'lishini ham talab qilyapti...

Xavfsizlik xizmati xodimi shu zahoti radio orqali so'radi:

– Kapitan, sizning samolyotingizdan parashutda sak-rasa bo'ladimi?

– Bo'ladi, shekilli, – javob berdi Littljon, dinamikka ko'z qirini tashlab, biroz o'ylab, qo'shib qo'ydi:

– Chamasi, shu maqsadda „727“ni tanlagan. Axir „Boing 707“ yoki „Boing 747“ rusumli samolyotlaridan

sakrab bo'lmaydi. Aviatsiyadan xabardor ko'rinadi... Nima bo'lganda ham, hammasini oldindan puxta rejalashtirgan.

– Ikki yuz ellik ming dollarni qo'lga kiritish uchun, albatta, rosmana jon koyitgan-da, – kinoya bilan javob berdi dinamik. – Bunday sarmoya uchun odam o'zini tomdan tashlashi ham hech gap emas. Darvoqe, kapitan, parashutchilar klublarini tekshirganimiz hech qanday naf bermadi.

– Ehtimollar ko'p axir, – yelka qisdi Littljon. – Masalan, parashutchilar harbiy qismida xizmat qilishi ham mumkin. Bu birinchidan. Ikkinchidan, balki, bunday hunar bilan uyidan olisda shug'ullanar? Nihoyat, ismi sharifini o'zgartirgan bo'lishi ham mumkin...

– Gapingiz to'g'ri, kapitan, hammasi ehtimoldan xoli emas. Ayting-chi, ochiq eshik bilan qanday parvoz qilmoqchisiz? Xatarli emasmi?

– Xatarli, albatta. Imkon boricha maqsadga muvofiq balandlikda va tezlikda uchishga harakat qilamiz. Baxtimizga, bu qaroqchi tepamizda turib olgani yo'q-ku! – Littljonning ovozidan hayajonlanayotgani bilinib qoldi, chamasi, uning ham sabr-u toqati tugayotgandi.

– Bizdan yana nima talab qilinadi? – dedi u sabrsizlik bilan dinamikka yuzlanib.

Dinamikdan qandaydir shovqin eshitildi va notanish ovoz eshitildi:

– Salom, kapitan! Siz bilan xavfsizlik xizmati mayori Uillobi gaplashayotir. Biron aniq taklifingiz bormi?

– Hm... – Littljon maslahat so'ramoqchi bo'lganday ikkinchi uchuvchiga ko'z qirini tashladi. U esa nigohini olib qochdi. – Biz ko'l ustida uchishimiz mumkin... O'g'ri ko'lga sakramaydi. Sizlar vaqtdan foydalanib yengil samolyotlarni uchirasizlar va izimizga tushasizlar.

Harbiy aviatsiyada xizmat qilgan ikkinchi uchuvchi ming'irladi:

– Lekin unutmanglar, agar u yo'lini qilib bir yuz ellik kilometr tezlikda sakrasa, tun qorong'isida ilg'ay olmaysizlar!

– Qo'ldan chiqarmaslikka harakat qilamiz, havza bo'ylab parvoz qilsangiz bas. Bu yo'nalishdan boshqa samolyotlar parvoz qilmaydi. Suv havzasi uzra imkon boricha ko'proq uchinglar. Yengil samolyotlar sizlarga yetib oladi!..

– Hammasi tushunarli.

– Kapitan, – suhbatga aralashdi Klarissa. – O'g'ri asabiylashyapti!

– Unga ayt, hoziroq havoga ko'tarilamiz.

Dvigatellar zo'riqib guvullar ekan, ulkan qush kabi samolyot uchish yo'lagi bo'ylab pildiray ketdi. Yerdan ko'tarilib, tun osmoni bag'rida qora ko'lankaga aylandi. Samolyot sohilga yetay deb qolganda xavfsizlik xizmati xodimining ovozi yangradi:

– Tasqara Vagner joyidami?

– Qayoqqa ham borardi, kasofat, – zarda bilan dedi birinchi uchuvchi. – Nihoyat, hademay hojatxonadan chiqsa kerak. Lekin chiqishi bilan suv ustida uchayotganimizni ko'radi... – Uchuvchi boshi bilan imo qildi va boshqa gap aytmadi.

– Aloqani uzmang, hamisha bog'lanishda bo'ling!

– Kapitan!

– Nima gap, Klarissa?

– U chiqmoqchi bo'layotir.

– Gapimga quloq sol, qizaloq! – Littljon ataylab ovozi ni balandlatdi. – Sening mikrofoning shnuri yetarli darajada uzun, binobarin, birinchi qatordagi o'rindiqqa ham joylashib olishing mumkin. Joylashib olgach, himoya kamarini taqib ol. Qaroqchining qo'lidan omon qutulgach,

Milli ham shunday qilsin. Tushundingmi? Anavi surbet xohlagan joyida sakrab, jahannamning qa'riga tushmaydimi! Lekin sizlarni Xudoning o'zi panohida asrasin! Gapimni eshitdingmi?

– Ha, kapitan, ha... Kamarni taqib oldim. Bir daqiqqa!.. U chiqayotir!

– Milli-chi?

– U ham. Voy Xudoyim, adoyi tamom bo'libdi, bechora Milli! Bu yoqqa kel... Mening yonimga. O'tir. Kel, himoya kamarini taqib qo'yaman. Mana shunday, bo'ldi...

Sukunat cho'kdi, faqat qizlarning piqillab yig'lagani eshitalardi.

– Kapitan, suv uzra uchayotganimizni payqab qoldi! Voy!.. To'pponchasini chiqarayotir... Voy Xudoyim!.. Sohil tomon uchishni talab qilayotir, kapitan... U...

O'q ovozi yangradi, Klarissaning keyingi so'zlarini eshitib bo'lmadi.

– Diqqat, kapitan! Mayor Uillobi gapiryapti. Buyuraman: samolyotni sohil tomon buring!

– Klarissa, nima bo'ldi?! – samolyotni sohil tomon asta burarkan. Littljon qichqirdi.

– Xudo asradi... – ovozi titragancha dedi styuardessa. – U ochiq eshik tomon o'q uzdi. U aytyaptiki...

– To'xta! Uni yoningga chaqir, nima dardi bo'lsa, mikrofonga o'zi gapirsin.

– Hozir... – Klarissaning ovozi zo'rg'a eshitildi. – Kapitan, u siz bilan gaplashmoqchi emas. Avval Okala, keyin Tampa tomon uchishingizni talab qilayotir. Tampada bermalol yerga qo'nasizlar, men yo'l-yo'lakay sakrayman, deb va'da beryapti.

Yana mayor Uilloboining ovozi yangradi:

– Kapitan, qaroqchining hamma talablarini bajaring. Soqchi samolyotlar havoga ko'tarilgan, sizlarga yetib ola-

di. Butun Florida politsiyasi oyoqqa turgan, barchasi „Vagner“ degan kimsaning iziga tushadi, qochib ketolmaydi.

– Floridada pana-pastqam joylar ko'p-ku... – ikkilanib javob berdi Littljon. – Mayli, men nima ham derdim. – Biroz sukut saqlagach, qo'shib qo'ydi: – Mayor, iltimos, Tampaga oyog'imiz tortmayapti. Mayamiga qo'nishga ruxsat bersangiz. Agar iloji bo'lsa, biron mehmonxonaga dam olish uchun xonalar buyurtma bersangiz. Bu qaroqchining dastidan hammamiz, ayniqsa, qizlar juda holdan toydi.

– Yaxshi, Mayamiga uchaveringlar. Mehmonxonaga buyurtma berishga ham harakat qilaman...

Oraga yana Klarissa suqildi:

– Kapitan, u bizning ham uchuvchilar kabinasiga kirishimizni talab qilayotir sakraganini hech kim ko'rmasligi kerak emish...

– Na iloj, kira qolinglar...

Oradan hech qancha o'tmay ikkala styuardessa ham kabinada turardi. Klarissa hech vaqo bo'lmaganday xotirjam ko'rinar, jimjiloqday Milli esa hushidan ketar ahvolda edi. Uning dokaday oqarib ketgan yuziga tikilarkan, Littljon Klarissaga dedi:

– Unga tinchlantiradigan biron narsa bersang-chi!

– Hammasi o'tib ketdi, kapitan, ortda qolgani rost bo'lsin... – asta shivirladi Milli.

Littljon pastga qaradi, janub tun bag'rida mudrar, zamin va samo zulmat bilan qoplangandi. „Soqchi samolyotlar bunday zulmat ichida nimani ham ilg'ardi“, – degan fikr uning ko'nglidan kechdi.

Nihoyat, pastda g'arbiy Florida sohilining chiroqlari miltiray boshladi.

– Naplesdan o'tdik, – dedi xaritaga qarab chamalagan gancha aloqachi.

Littljon ikkinchi uchuvchiga o'girildi:

– Maykl, salondan xabar olgin. Lekin ehtiyot bo'!

– Xotirjam bo'l, – dedi u o'rmidan turarkan. Kerishib oldi-da, ikki qizning o'rtasidan sirg'alib o'tib, yo'lakka chiqdi.

– Hech kimsa yo'q, – dedi u bir necha soniyadan keyin qaytib kirgach.

– Rostdanmi?

– Qo'ldan chiqardik! – dinamikdan mayor Uillobining alamli ovozi eshitildi. – Holbuki, soqchi samolyotlar siz bilan izma-iz uchayotgandi... Hechqisi yo'q! Yerdagi uni quchoq ochib kutib olishadi. Mayli, kapitan, Mayamiga sog'-salomat yetib olib, yaxshi dam olinglar.

– Rahmat, mayor! – Littljon bo'g'imlarini qirsillatib kerishdi, keyin esa ekipaj a'zolariga yuzlandi: – Juda og'ir kun bo'ldi, do'stlar. Endi yengil tin olsak ham bo'ladi, Mayamida esa bema'lol hordiq chiqaramiz. – U birinchi marta yayrab kuldi va mayor Uillobi bilan xayolan xayrlashdi.

Littljon xaritaning chetga uloqtirib, o'rindiqning tagidan ixcham jomadonni oldi.

– Xullas, hamkasblar, bu yerda har birimizga ellik ming dollardan sarmoya bor. Bir necha soatlik „zahmat“ uchun chakki moyana emas-a? Hech qanday soliq ham to'lamaymiz!

U mamnun jilmayarkan, hammani birma-bir ko'zdan kechirdi.

– Biroz kallani ishlatishning sharofati bu! Nima deysizlar, qizlar?

– Umuman, – dedi sal chaynatganicha Milli, – shaxsan menga biroz qo'shib berilsa chakki bo'lmasdi. Axir, munda bilan naqd besh soat hojatxonada tik turishning o'zi bo'lmaydi!

– Sengami? – pisanda qildi qulog'igacha qizarib Klari-ssa. Iskovchi politsiyachini chuv tushirgan kaminaga shuning o'zi ham bo'laveradimi? Holbuki, la'nati politsiyachi butun salon bo'ylab...

– Shoshmanglar, qizlar, shoshmanglar, – uning gapini bo'ldi aloqachi. – Butun ishning tamal toshi shundaki, hammasini tashkil qilish, hatto jasadni ham topib kelish kerak edi. Yoki yo'qmi? Binobarin, qo'shimcha mukofot faqat menga berilishi kerak!..

Ikkinchi uchuvchi tortishuvga aralashmay, dasta-dasta pullarni charm kurtkasining cho'ntaklariga joylashtirar ekan, bamaylixtir o'ylardi: „Manavilarning bir-birini cho'qiganini qarang. Murda bilan bir yo'la ikki parashutni ham suvga uloqtirish menga ham oson bo'lgani yo'q...“

Bu suhbatni boshdan oxirigacha eshitgan mayor Uillobining toshday qotib qolganini ularning hech biri hatto xayoliga ham keltirmasdi. Axir, Littljon bexosdan qaltis xato qilgani, tashqi radioaloqa o'rniga ichki aloqa tizimini o'chirganidan ular tamomila bexabar edi.



SARTAROSH

I

Bu qiz, Syuzen Rid, yetim qoldi. Va Berchettlar xonadonidan boshpana topdi. Berchettlarning o'z farzandlari ham bo'lib, ikkita, ehtimol, uchta edi. Ayrimlar goh Syuzen ularning tug'ishgan jiyani, goh amakivachhasining qizi, goho allaqanday qarindosh der; boshqalar esa odatdagidek, janob Berchettni yomonotliq qilishar, Berchett xonimga ham malomat toshini otishardi. Ayniqsa, ayollar mish-mishlarga zo'r berardi.

Syuzen Riz besh yoshga to'lganda shaharda Pinkerton paydo bo'ldi. Maksining sartaroshxonasida dastlabki yozni o'tkazayotganda Berchett xonim Syuzenni birinchi marta sochini oldirgani olib keldi. Berchett xonim barchaning ko'zi oldida Syuzenni (o'shanda u ko'zlari jovdiragan, na oqish, na qoramtir qalin sochlari tipratikanday hurpaygan ozg'in qizaloq bo'lgan) sartaroshxonaga olib kiraman, deb uch kun ovora bo'lganini menga Maksi aytib bergan. U yana shuni ham gapirib berdiki, sabr-toqati tugagan Pinkerton ko'chaga chiqib, qizaloqni o'n besh daqiqalarcha avrab, nihoyat, sartaroshxonaga olib kirgan va stulga o'tqazgan, holbuki shahardagi erkaklar ham, ayollar ham uning shu paytgacha „ha“ va „yo'q“dan ortiq biron gap aytganini eshitmagandi.

– Ko'nglidagi barcha dardlarni to'kib solish uchun ayni shu qizchani kutganday, – deb ta'kidladi Maksi.

U birinchi marta shu asno soch oldirgan. Pinkerton shoshilmay sochini tarashlagan, u esa choyshabga burkangancha o'takasi yorilgan quyonchaday g'ujanak bo'lib o'tirgan. Yarim yildan keyin u sartaroshxonaga yolg'iz o'zi kelib, Pinkertonga sochini oldira boshlagan, lekin o'shanda ham quyonchadan farq qilmasdi – qo'rquvdan rangi quv oqargan, ko'zlari chaqchaygan, yelkasiga tashlab qo'yilgan oppoq choyshabga qiyoslaganda, sochlari-ning rangini aniq aytib ham bo'lmasdi.

Agar Pinkerton band bo'lsa, derdi Maksi, sartaroshxonaga kiradi-da, uning kreslosiga yaqin o'rindiqqa joylashib, oyoqlarini uzatgancha Pinkertonning bo'shashini kutib o'tiradi. Maksining aytishicha, ular Syuzenni Pinkertonning har shanba yanoqlarini qirtishlatish uchun kiradigan boshqa mijozlari safiga tirkab qo'yishgan. Bu yerdagi ikkinchi sartarosh Mett Foks bir safar qizaloqqa sochini olib qo'yishni taklif qilgan – Pinkerton bu paytda band bo'lgan – shunda Pinkerton unga rosmana tashlanib qolgan. „Hozir bo'shayman, – degan u dag'dag'a bilan. – Uning sochini o'zim olaman“. Maksining aytishicha, Pinkerton uning qo'lida ishlay boshlaganiga salkam bir yil bo'lganiga qaramasdan, shu paytgacha hech kim uning kimgadir baland ovozda gapirganini eshitmagan ekan.

O'sha kuzdan qiz o'qiy boshlagan. Kuniga ikki marta, ertalab va asrga yaqin sartaroshxona yonidan o'tgan. Barcha tengdosh churvaqalarday u ham yotsirar va hamisha chopqillab yurardiki, sap-sariq kallapo'shi derazadan birrov ko'rinardi-yu, arvohdan darrov g'oyib bo'lardi. Dastlab maktabga yolg'iz qatnagan bo'lsa, keyinchalik uning kallapo'shi boshqa qizlar davrasida ko'zga tashlanadigan bo'ldi, qizaloqlar bir-biriga gal bermay bidirlashar, sartaroshxona tomonga qayrilib ham qaramas, Pinkerton esa derazaga manglayini tirab olgancha undan ko'zini uzmas-

di. Maksining aytishicha, ular Mett bilan birga, Pinkertonning o'zini tutishiga qarab, beshta kam sakkiz va beshta kam uch bo'lganini soatga qaramasdan ham aniq aytib bera olishgan. O'quvchilar sataroshxona yonidan o'tadigan paytda, Pinkerton, chamasi, o'zi ham bilmagan holda beixtiyor deraza tomon talpingan. Syuzen sataroshxonaga kelganda esa Pinkerton qo'liochiqlik bilan unga ikkita, ba'zida esa uchta yalpozli obaki tutqazgan, darvoqe, boshqa bolalarga faqat bitta obaki berib qo'ya qolgan. Buni ham Maksidan eshitganman.

Yo'q, buni uning hamkasabasi, Mett Foks aytgandi. Iso Masih mavludi bayramiga qo'g'irchoq sovg'a qilganini Foks gapirib bergan. Qayoqdan xabar topganini bilmayman, chunki Syuzenga sovg'a berganini Pinkerton unga aytmagani aniq. Lekin gapi to'g'ri ekani shubhasiz, chunki u Pinkerton haqida Maksidan ham ko'proq narsalarni bilardi. Mett oilali edi. Kepchikday et qo'ygan, xomsemiz, turqi salqigan, ko'zlariga qarab esa toliqqanmi, g'amginmi — bilib bo'lmasdi. G'alati odam, lekin yaxshi satarosh, albatta, chaqqonlikda Pinkerton bilan tenglasha olmasdi. U ham ichimdagini top deydigan kamgap edi, binobarin, eng so'zamol odamlar ham gapga sololmagan Pinkertonning buncha sir-asrorini qayoqdan bilib olgan, sira aqlimga sig'masdi.

Nima bo'lganda ham, har Mavlud bayramida Pinkerton unga hatto voyaga yetgandan keyin ham biron narsa sovg'a qilishni kanda qilmaganini faqat Mett gapirib bergan. Syuzen ilgarigidek sochini oldirgani Pinkertonning oldiga kelar, u esa maktabga ketayotganda ham, qaytayotganda ham undan ko'z uzmasdi. Qizning bo'yi cho'zilgach, yotsiramaydigan bo'ldi.

Oldingi Syuzenga o'xshamasdi. Tez ulg'aydi. Hatto juda ham tez. Hamma balo shunda edi. Kimdir yetim-

cha bo'lgani uchun tez voyaga yetdi, degandi chuqur tin olib. Lekin bu yolg'iz sabab emas. Qizlarni o'g'il bolalar bilan qiyoslab bo'lmaydi. Qizlar mushtdayligidan o'zini tutib oladi, o'g'il bolalar haqida bunday deb bo'lmaydi. Ayrim oltmishni urib qo'ygan kishilarni ham yosh boladan farqlab bo'lmaydi, oyoq-qo'lini bog'lab beshikka solsang ham miq etmay yotaveradigan darajada o'zini eplay olmaydi.

Uni behayo deb bo'lmasdi. Hech bir ayolni tabiatan behayo deb aybsitish yaramaydi. Xotin zoti, aslida, shunday yaratiladi – behayolik ularning qonida bor. Bu illat bo'y cho'zmasidan oldin uni turmushga berib ulgurish kerak. Biz esa ularni o'zimizning qonun-qoidalarimizga bo'ysundirishga urinib, erga tegishlarini ham kechiktirib yuboramiz. Tabiatning esa o'ziga xos qonun-qoidalari bor, qolaversa xotin zoti qonun-qoidalar bilan ham, allaqanday tamoyillar bilan ham hech qachon hisoblashib o'tirmaydi. Xullas, Syuzen shunchaki tez halog'atga yetdi. Bu gaplarni bilib aytyapman, chunki o'zimning qizimni ham bo'yi tobora cho'zilib boryapti.

Peshanasiga shu yozilgan-da. Mettning aytishicha, hammasi ular kutganday bo'lib chiqqan: Syuzen o'n uchga kirganda, lab-lunjini haddan tashqari bo'yab-bejayverгани uchun Berchett xonim boplab ta'zirini bergan; o'sha yili, uning aytishicha, Syuzen ayni dars paytida ikki-uch dugonasi bilan og'zi qulog'ida, hiringlaganacha sandiraqlab yurganini tez-tez guvohi bo'lishgan, sochlari o'sha-o'sha – na oqish-u na qoramtir, aftiga rosmana kuladigan bo'lsa qurigan loyday pors-pors yoriladigan darajada ko'p bo'yoq chaplab olgan, egnidagi ko'ylaklari esa shunchalik kaltaki, aslida, fohishalar begona erkaklarni yo'ldan urish uchun ataylab ichki kiyimi ham ko'rinadigan darajada kalta shoyi va yupqa matodan ko'ylak

kiyadilar. Mett gapirib bergandi, bir gal yonidan o'tib ketayotganda oyog'iga paypoq kiymagani e'tiborini tortibdi. Yozda hech paypoqda yurganini ko'rganmanmi, deya o'ylay boshlagan va biron marta ham paypoqda ko'rmagani ko'nglidan kechgan, holbuki Syuzenning oyoqlari katta yoshdagi xotinlarning oyog'idan sira qolishmasdi. O'n uch yoshida-ya?!

Yuqorida aytganimday, tabiatga qarshi chiqib bo'lmaydi. Bu borada Syuzen aybdor emas. Janob Berchettdan gumonsirash ham noo'rin. Yoshi yetmay balog'atga qadam qo'ygan bunday baxtiqaro, boyaqish behayolarga, eng avvalo, erkaklar afsus bilan nazar tashlaydi. Ular Pinkertonga ham rahm qilishgan. Syuzen haqida har xil mish-mishlar ko'payganda ham Pinkertonning guvohligida birontasi ham ortiqcha gapirmagan. Mish-mishlardan uning ham xabari bor deb o'ylashgan, shunga qaramay, faqat Pinkerton biron joyga chiqib ketgan paytdagina Syuzen haqidagi gaplarga zo'r berishgan. Aftidan, Syuzenga boshqalarning ham ichi achirdi; chunki hammasi butun shahar ahlining ko'z oldida sodir bo'lardi – Pinkerton sartaroshxona derazasidan unga ko'z uzmay tikilardi, kinozalidan chiqish eshigini zimdan kuzatardi, Syuzen esa ichkaridan yoshgina yigitcha bilan qo'ltiqlashib chiqib kelardi – o'n to'rtga ham to'lmasdan qo'lma-qo'l bo'lib ketgandi.

Pinkertonning oldida Syuzen ismini ham tilga olishmasdi. Tushlikka chiqishini yoki aprel oyida ikki haftalik ta'tilga ketishini poylashardi; ta'tilda qayerga, nima maqsadda borishini hech kim bilmasdi. Pinkerton ketishi bilan qizaloq hunarini boshlab yuborar, o't bilan o'ynashar, qilmishlaridan janob Berchettni o'z paytida ogoh qilishmasa, ertami-kechmi bir baloga giriftor bo'lishi shubhasiz edi. Maktabga bir yildan buyon qatnamasdi. Janob

Berchett bilan Berchett xonim Syuzen har kuni maktabga borib kelayotir, deb o'ylar, u esa maktabda qorasini ham ko'rsatmasdi. Kim bo'lsa ham o'quvchilardan biri, axir, u o'quvchilarni ham, oilalilarni ham, xullas, duch kelgan erkakni qarmog'iga osongina ilintirardi – har oyda davomat daftarini unga keltirib berar, u daftarni o'zi to'ldirib, uyga olib borar va hech gap yo'qday Berchett xonimga imzo qo'ydirardi. Eng hayratlanarlisi shuki, erkak kishi biron juvonnini yoqtirib qolsa, o'zini aldashi uchun katta yo'l berib qo'yadi.

Nihoyat, maktabni tashlab andozaviy narxlar do'koniga ishga joylashdi. Sochini turmaklagani sartaroshxonaga kelishni kanda qilmasdi – har doimgiday juda bezangan, yana ham jozibador ko'rsatadigan arzonarov olaquroq ko'ylikda, qiyofasi bir yo'la ham shubhali, ham surbetona, ham kamtarona alfozda, sochlari nima bilandir yopishtirilgan, chekkalariga gajak ham qilingan bo'lardi. Biroq sochlariga qanday bo'yoq surtmasin, ularning sap-sariq rangi sira ham o'zgarmasdi. Uning sochlari hamisha bir xil tusda bo'lardi. Syuzen har doim ham Pinkertonning kursorisiga o'tirmasdi. Hatto uning kreslosi bo'sh bo'lsa ham, u ba'zida boshqasiga o'tirar va sartaroshlar bilan suhbatlashardi, uning jarangdor kulgisi yangrar, atir-upalarining hidi hamma yoqni tutib ketar, choyshabning ostidan uzun oyoqlarini osiltirgancha o'tiraverardi. Pinkerton u tomonga qaramasdi ham. Kreslosida mijoz bo'lmasa ham o'zini bandday ko'rsatardi: ko'rinishi tashvishmand bo'lib, yerdan ko'z uzmas – o'zini ataylab bandday tutayotgani shunday ko'rinib turardi.

Aprel oyida, ikki hafta oldin Pinkerton yana o'sha joyga jo'nab ketgandi: bu joyni u hammadan sir tutar, shahardagilar o'n yil oldin bunga oid turli taxminlarga barham berishgandi. U jo'nab ketganidan keyin ikki

kun o'tgach Jeffersonga yetib keldim va sartaroshxonaga kirdim. Bu yerdagilar Pinkerton bilan Syuzen haqida gapirishardi.

– Mavlud bayrami munosabati bilan haliyam unga sovg'a beryaptimi? – so'radim men.

– U ikki yil muqaddam soat olib bergandi, – dedi Mett Foks. – Oltmish dollarning bahridan kechgan.

Maksi mijozning soqolini olayotgandi. U birdan to'xtadi – sovun ko'pigi bilan qoplangan ustara qo'lida qotib qoldi.

– Nahotki shunday bo'lsa, – dedi ishongisi kelmay. – Bundan chiqdi u... Birinchi bo'lib, Syuzen bilan birinchi bo'lib...

Mett o'girildi: u ham bitta mijozning yanoqlarini qirtishlayotgandi.

– Xulosa chiqarishga shoshilma, chunki hali soatni unga berganicha yo'q, binobarin, uning yoshidagilarga qimmatli sovg'alarni faqat yaqin qarindoshi tortiq qilishi mumkin.

– Nima, seningcha, u hech narsani bilmaydimi? Janob Berchett bilan uning xotinidan bo'lak butun shahar uch yildan buyon xabardor ishlardan bexabarmi?

Mett yana ishga kirishdi, qo'lini chaqqonlik bilan ishlata, qisqa-qisqa ustara tortardi.

– Qayerdan ham bilsin! Bunday gapni faqat xotin kishi ayta oladi. U, afsuski, Kouen xonimdan bo'lak hech bir ayol zotini tanimaydi. Kouen xonim esa unga allaqachon yetkazishgan bo'lsa kerak, degan fikrda.

– Bu gapda ham jon bor, – ma'qulladi Maksi.

U ikki hafta oldin jo'nab ketganda vaziyat shunday edi. Men Jeffersondagi ishlarimni ikki kunda biryuqlik qilib, yana yo'lga tushdim. Keyingi haftaning o'rtalarida Divi-

jenga yetib bordim. Shoshilganim yo'q. Unga daf'atan yo'liqib, cho'chitgim kelmadi. Bu shaharga chorshanba kuni ertalab kirib bordim.

II

O'z muhabbatini uchratganidan qat'i nazar, Pinkerton, chamasi, bu haqda o'ylamasdi ham. Ishqi tushgan qizni nazarda tutyapman. Men o'n uch yil muqaddam Porterfilddagi sartaroshxonada ko'rganimda, o'shanda endi xizmat safarimni boshlagandim, menga Missisipi shimoli va Alabamani biriktirishganda (ishchi kiyimlari bilan korjomalar sotardim), ko'nglimdan shunday fikrlar kechgandi: „Bu odamning peshanasiga butun umr bo'ydoq o'tish yozilgan. Sho'rlik, bir yo'la qirq yashar bo'ydoq bo'lib dunyoga kelgan“.

Bo'yi bir qarich – pakana, rangi ham zahil, esda qolmaydigan odamlar xilidan, o'n daqiqadan keyin unutib ham yuborasan, moviy bo'rtma qiya yo'lli qilib tikilgan kamzulda, kapalaknusxa qora bo'yinbog' taqib olgan, – bunday bo'yinbog'lar taqish uchun tayyor holda sotiladi. Maksi gapirib berdi, bir yildan keyin, janubga ketayotgan poyezddan Jeffersonda tushganda, Pinkertonning egnida o'sha kamzul-u bo'yinbog', qo'lida esa sun'iy chamm jomadon bo'lgan. Bir yildan keyin uni yana Maksining sartaroshxonasida uchratdim, agar kresloning yonida ishga shay bo'lib turmaganida sira ham tanimagan bo'lardim. O'sha zahil qiyofa, o'sha kapalaknusxa bo'yinbog' – go'yo uni kreslo, mijoz-u boshqa ashqol-dashqollar bilan shamolday uchirib, oltmish mil nariga olib kelib joylashtirishgan-u, u esa hech vaqoni payqamaganday. Men hatto derazadan tashqariga nazar tashladim: mabodo bir yil muqaddam bo'lganiday Porterfildda emasmi, degan xayolga ham bor-

dim. Bir yarim oy muqaddam Portelfiddan o'tganimda uni o'sha yerda ko'rmaganim daf'atan esimga tushdi.

Uning barcha sirlaridan ogoh bo'lgunimcha yana uch yil o'tdi. Men yiliga besh marta Divijenda bo'lardim – bu Missisipi bilan Alabama cheragasidagi qo'rg'oncha; atigi bir necha xonadon, do'koncha va yog'och tilish zavodi bor. O'sha yerda bir uy e'tiborimni tortdi. Qo'rg'onchadagi eng yaxshi uylardan biri, lekin hamisha eshigi qulf.

Bahorning oxirlari yoki yozning boshlarida Divijenga yo'lim tushadigan bo'lsa, uy ham, tomorqa ham tartibga keltirilgan bo'lardi. Hovli begona o'tlardan tozalangan, gullar ekilgan, devor va tom tuzatilgan. Agar kuzda yoki qishda yo'lim tushadigan bo'lsa, hovlini begona o'tlar bosib ketganini ko'rardim, devordan ham bir necha taxtalar yulib olingan bo'lardi – balki, qo'shnilar o'z devorlarini yamash yoki o'tin uchun olishgandir. Uy eshigi hamisha berk, mo'ridan sira ham tutun chiqmasdi. Men qiziqib qoldim va do'koncha egasidan so'ragandim, hammasini aytib berdi.

Bu Starns familiyali odamning uyi bo'lib, endilikda hammasi vafot etib ketgan. Ular bu yerda obro'li odamlardan bo'lgan – garchi garovga qo'yilgan bo'lsa ham – o'z yerlariga ega edilar. Starns shunday tanbal kimsalar toifasidan bo'lganki, yegulik bilan tamakiga yetarli puli bo'lsa bas, ortiq narsa uchun qo'lini sira sovuq suvga urmagan. Ularning yolg'iz qizi bo'lib, kelib-kelib ijara-rachi fermerning o'g'li bilan topishgan. Qizi tanlagan yigit onasiga yoqmagani, Starns esa deyarli qarshitik qilmagan. Balki, yigit (uning familiyasi Stribling edi) mehnatkash bo'lgani uchun, ehtimol, hafsala qilmagani uchun shunday yo'l tutgandir. Xullas, ularni unashirib qo'yishdi. Stribling pul jamg'arib, sartaroshlikka o'qish uchun Birmingemga o'tlandi. Uni yo'lda uchragan so-

yabon aravaga chiqishga undashsa ham piyoda yurishni qo'ymas, qaylig'ini ko'rish uchun har yozda Divijenga qaytib ketardi.

Kunlarning birida Starns ayvondagi oromkursida o'tir-gancha jon taslim qilgan, qo'ni-qo'shnilarning aytishla-riha, u hatto nafas olish malol kelganidan o'lib qo'ya qolgan. O'shanda Striblingni chaqirishgan. Eshitishimcha, Birmingembadagi sartaroshxonada uning ishlari ancha yurishib qolgan, u pul jamg'ara boshlagan, odamlarning gaplariga qaraganda, yashash uchun xonadon ham qidi-rishga kirishgan, mebel uchun, ro'zg'or uchun, zarur boshqa narsalar uchun ham bo'nak to'lab qo'ygan, ular o'sha yili yozda nikohdan o'tishni niyat qilishgandi. U qaytib kelgan. Starns esa yeri uchun garov tariqasida ola-digan puldan bo'lak sarmoyani ko'rmagan, shu bois mo-tam marosimlari xarajatlarini Stribling to'lagan. Bu Strib-ling uchun qimmatga tushgan, holbuki Starnsning tirigi ham, o'ligi ham sariq chaqaga arzimadi, biroq Starns xonimning hurmatini joyiga qo'yish talab qilinardi. An-chagina jamg'arnasini boy bergan Stribling esa yana pul jamg'arishga majbur bo'lgan.

U endigina bir xonadonni ijaraga olib, mebellar va nikoh uzugi pulini to'lab, nikohdan o'tish uchun rux-satnoma olishi bilan yana uni chaqirishgan, darhol yetib kelishni talab qilishgan. Qaylig'i betob bo'lib qolgan – bezgakka chalingandi. Biznikiday ovloq joylarda kim-dir betob bo'lib qolsa, qanday hol ro'y berishini bilasiz. Do'xtir bo'lsa ham uni chaqirish xayollariga kelmaydi. Peshanasidan otib tashlasangiz ham bilganidan qolmaydi. Tumov bo'lib qolsa, ikki-uch kundan keyin tuzalsa – tu-zaldi, aksincha bo'lsa, arzimagan dard bilan o'lib keta-veradi. Stribling yetib kelganda u alahlay boshlagandi. Qaylig'ining sochini olishga majbur bo'ldi. Striblingning

o'zi olib qo'ya qoldi – o'zi satarosh bo'lgandan keyin boshqa kim ham olardi. Aytishlaricha, u ozg'in, niholday qiz bo'lgan, bunday ojizalar bir kasalga chalinsa, o'nglanishi qiyin, sochlari esa oqish ham, qoramtir ham emas, qalindan qalin bo'lgan.

Sho'rlik kuyovini tanimagan ham, sochini kim olganini ham bilmagan. Hatto jon taslim qilayotganini ham bilmay vafot etgan. Jon berishi arafasida tinmay takrorlagan: „Onamni yolg'izlatib qo'ymang. Garov pulini to'lashni ham unutmang. Agar garov puli to'lanmasa, otamning arvohi chirqillaydi. Gentrini chaqiringlar. (Qaylig'i – shu Genri Stribling edi, Pinkerton. Bir yildan keyin men uni Jeffersonda uchratdim. „Siz o'sha Genri Striblingmisiz?“) Garov puli. Onamga g'amxo'rlik qiling. Gentrini chaqiringlar. Garov puli. Gentrini chaqiringlar“. Shu asnoda jon bergan. Uning faqat bitta surati qolgan – boshqa suratga tushmagan ekan. Pinkerton qaylig'ining bu suratini o'zi olgan sochlari bilan birga fermerlar jurnalida ko'zi tushgan manzilga jo'natgan – qaylig'ining surati uchun sochlari-dan ramka yasatmoqchi bo'lgan. Biroq surat ham, sochlar ham yo'qolgan, pochtda yo'qolgan. Nima bo'lganda ham ular Pinkertonga qaytmagan.

U qaylig'ini ham dafn qilgan. (Birmingemga qaytib ketgan, ijraga olgan xonadonni egasiga qaytarib bergan, mebeldan ham voz kechgan va yana pul jang'arishga kirishgan) bir yildan keyin esa qaylig'ining qabriga yodgorlik o'rnatgan. Keyin jo'nab ketgan, Birmingemdagi sataroshxonadan ketgani haqida gaplar tarqaldi. Ishni tashlab, suvga cho'kkanday g'oyib bo'lgan, birmingemliklar esa yana biroz ishlaganda sataroshxonani o'zini-ki qilib olardi, deb gapirib yurgan. U esa ishni tashlab ketgancha bahorda, aprel oyida, qaylig'ining vafotiga bir yil to'lishi arafasida qadrdon yurtida yana paydo bo'lgan.

Starns xonimning holidan xabar olgani kelgan ekan, ikki hafta mehmon bo'lgan-u, shu bo'yi badar ketgan.

Keyin bilishlaricha, u shahardagi okrug bankiga kirib, garov bo'yicha foizlarni to'lagan. Bu ishni Starns xonim vafotigacha har yili ado etgan. Starns xonim ham Xudo degan ekan – uning qo'lida jon bergan. Axir, u har yili ikki hafta o'sha yerda yashar – Starns xonim ortiqcha tashvishlanmasligi uchun hamma yoqni tartibga keltirardi, xonim esa uni hamon nazar-pisand qilmas, past tabaqadan chiqqan Pinkertonga bu ishlarni bajarish faqat obro' keltiradi, deb hisoblardi. Keyin xonim ham dunyoni tark etdi. „Sofining gaplarini unutm, – dedi Starns xonim. – Garov bo'yicha foizlar to'lash yodingdan chiqmasin. U dunyoda janob Starns bilan yuz ko'rishganimda eng avvalo shuni so'raydi...“

U Starns xonimni ham dafn etdi. Xotirasini e'zozlab yana bitta qabr toshi sotib oldi. So'ng asosiy sarmoya bo'yicha foizlarni to'lay boshladi. Starnslarning Alabamada qandaydir qarindoshlari bo'lardi. O'sha qarindoshlar bir kun emas bir kun kelib, hovlini tartib olishiga Divijendagilar shubha qilmasdi. Faqat ular hozircha shoshilmas, aftidan, Pinkerton garov bo'yicha hamma foizlarni to'lashini kutishardi. U esa har yili bankka borib foizlarni to'lar, qadrdon go'shasiga qaytib kelar va hovlini tartibga keltirardi. Aytishlaricha, u uyni ham, hovlini ham ayollarday qunt bilan tozalagan, hamma yoqni chinniday qilib qo'ygan. Har yili aprel oyida ikki hafta mobaynida boshqa ish qilmagan. Keyin jo'nab ketgan, qayoqqa ketganini esa hech kim bilmagan. Shu asno har aprelda qaytib kelgan – bankda foizlarni to'lagan, qolaversa hech qachon o'z mulki bo'lmagan huvullagan uyni tartibga keltirgan. Uning besh yillik umri shu tariqa kechgach, Porterfildda ko'rganimdan

so'ng, bir yil o'tgandan keyin Jeffersonda, Maksining sataroshxonasida, o'sha qiyalama tikilgan kamzul-u kapalaknuxa qora bo'yinbog' bilan ko'rdim. Janubga ketayotgan poyezddan sun'iy charm jomadonni ushlagancha tushib kelganini Maksni aytgandi. Uning yana qo'shimcha qilishicha, Pinkerton ikki kun shahar maydonida sandiroqlab yurgan; aftidan, bu shaharda bironta ham tanishi bo'lmagan, qiladigan tayinli ishi ham yo'q, hech qayerga shoshilishi shart emas. Shu bois maydon-da tentirab yurgan – shahardagi ob-havo-yu narx-navoni bilishga uringan.

Uzzukun klub hovlisidan chiqmay ko'ngilxushlik qiladigan takasaltang yosh-yalanglar kechki payt, chor-atrofga atir-upa hidlarini ufurgancha, bellarini qilpillatib hirlinglay-hirlinglay gazli suv va pochta yonida qizlarning to'planishlarini ko'zlari to'rt bo'lib kutishardi. O'sha yoshlar garchi o'xshamasa ham unga izquvar deb laqab qo'yishdi. Shu-shu uni Pinkerton deb atay boshladilar. Jeffersondagi Maksining sataroshxonasida o'n ikki yil ishlagan bo'lsa, bu davr mobaynida uni hamma Pinkerton sifatida bilardi. Pinkerton Maksiga men alabamalikman, degan.

– Qayerdanman deysan? – so'ragan Maksni. – Alabama – katta shtat, Birmingemdan emasman? – yana so'ragan Maksni, chunki Pinkertonga bir marta qaragan odam u Birmingemdan emasligini darhol payqardi. Alabamaning istalgan joyidan bo'lishi mumkin, faqat Birmingemdan emas.

– Ha, – degan Pinkerton. – Birmingemlikman.

Shu asno toki men uni Maksining sataroshxonasida bexosdan ko'rib qolib, Porterfildda uchratganim esimga tushmaguncha hech kim undan boshqa hech vaqoni bila olmagan.

– Porterfilddanmi? – degan Maksi. – U yerda bojamning sataroshxonasi bor. Demak, o'tgan yili Porterfildda ishlagan ekansan-da?

– Ha, – ma'qullagan Pinkerton. – Ishlaganman.

Maksi uning ahmoqona ta'til olishini ham aytib berdi. Pinkerton yozda ta'til berishlarini sira ham istamagan; buning o'rniga bahorda ikki hafta ta'til bersangiz kifoya, deb turib olgan. Nima uchun aytmagan? Maksi aprelda mijozlar ko'p bo'ladi, ta'til vaqti emas, deganda Pinkerton unda aprelgacha ishlab, keyin bo'shayman, deb taklif qilgan.

– Demak, bu yer senga yoqmayotir, shuning uchun ketmoqchisan? – so'ragan Maksi.

Bu suhbat Berchett xonim Syuzenning sochini oldirish uchun birinchi marta sataroshxonaga boshlab kelgandan keyin, yozda bo'lib o'tgan.

– Aksincha, – degan Pinkerton, – bu yerda ishlayotganimdan xursandman. Faqat bahorda ikki haftaga bir joyga borib kelishim kerak.

– Biron ishing bormi? – so'ragan Maksi.

– Ha, ishim bor, – degan Pinkerton.

Maksi o'z ta'tilini Porterfilddagi bojasinikida o'tkazgan; dengizchi ta'tili davrida ko'lda eshkakli qayiqda sayr qilganday bojasi mijozlarining soch-soqolini olgan bo'lsa ajab emas. Aynan bojasi unga aytganki, Pinkerton aprelgacha ta'til olmasdan uning qo'lida ishlagan, aprelda esa jo'nab ketgani bo'yicha qaytmagan.

– Sendan ham shu tariqa ketib qoladi, – degan bojasi. – U Tennesi shtatidagi Bolivar shahrida ham, Alabama shtatidagi Florensiya shahrida ham sataroshxonalarda bir yildan ishlagach, bo'shab ketgan. Ta'tilga ketgach sening sataroshxonangga ham qaytib kelmaydi. Mana ko'rasan.

Maksining aytishicha, uyga qaytgach. Pinkertonni qistovga olgan: Alabama, Tennesi, Missisipi shtatlarining oltitami, sakkizta shahrida nima uchun faqat bir yildan ishlaganining sababini soʻragan.

– Nima uchun hamma joydan ketvorgansan? – soʻragan Maksi. – Binoyidek satarosh boʻlsang, bolalar sochini taroshlashda-ku hech kim senga teng kelolmaydi. Nega bir joyda muqim ishlamagansan?

– Dunyoni koʻray deganman-da, – javob bergan Pinkerton.

Aprel kelgach, ikki haftalik taʼtil olgan. Soqolini olib, yoʻl anjomlarini jomadonga joylagan va shimoliy yoʻnalishdagi poyezdga oʻtirgan.

– Mehmonga ketyapsanmi? – degan Maksi.

– Shamollab kelish uchun, – qisqa javob bergan Pinkerton.

Oʻsha qiyalama kamzulni kiyib, kapalaknusxa qora boʻyinbogʻni taqib joʻnab ketgan. Ikki kundan keyin esa – Maksi aytib berdi – maʼlum boʻladiki, Pinkerton bir yil mobaynida toʻplangan pullarini bankdan olgan. Kroun xonimning uyida ovqatlangan, koʻp vaqti ibodatxonada oʻtgan, deyarli pul sarflamagan. Hatto chekmagan. Xullas. Maksi ham, Mett ham, qolaversa Jeffersondagi boshqalar ham u yil boʻyi misqollab yigʻganlarini Memfisidagi qahvaxonalarda sovuradi, deb oʻylashgan. Temiryoʻl ekspeditori Mitch Yuing ham Kouen xonimnikida ijarada turardi. Pinkerton asosiy stansiyagacha chipta olganini oʻsha aytdi. „U yerdan – xohla Memfisga, xohla – Birmingemga, xohlasang Yangi Oricanga joʻnab ketaverasan“, – dedi u.

– Nima boʻlganda ham ketvordi-da, – dedi Maksi. – Mening gaplarim esingizdan chiqmasin: ortiq bu yerda uning qorasini ham koʻrmaymiz.

Shu bilan hamma uy-uyiga otlandi. Ikki hafta o'tgach, o'n beshinchi kuni Pinkerton o'z vaqtida sartaroshxonaga kirib keldi, kamzulini ilib, ustarani charxlay boshladi. „Bir shamollab keldim-da“, – tamom.

Ba'zida bor gapni to'kib solgim kelardi. Jeffersonga kelganimda uni har doim sartaroshxonada, kreslosi yonida uchratardim. U o'zgarmagan, yosh ko'rinardi, go'yo Syuzen Ridning sochlari kabi, bu qiz qanday rangga bo'yashidan qat'i nazar sochlarining tusi sira o'zgarmasdi. Ta'tilda bearmon yayrab, Jeffersonga qaytib kelgach, yil bo'yi yana pul jamg'ara boshlaydi, yakshanba kunlari cherkovni ziyorat qiladi, o'zi sochini oladigan bolalarga obaki ulashishni ham kanda qilmaydi, aprel kelishi bilan esa jomadoniga narsalarni joylashtirib, yillik jamg'armani bankdan oladi va garov bo'yicha foizlarni to'lash hamda uyni tartibga keltirish uchun Divijenga yo'l oladi.

Men Jeffersonga yetib kelguncha u jo'nab ketgan bo'lardi. Maksi esa o'sha qizning, Syuzen Ridning sochlarini qanday mehr bilan erinmasdan turmaklagani-yu, ishini tugatgach, aktrisalarday e'zozlab, ortidan ko'zgu ham tutganigacha hammasini oqizmay-tomizmay gapirib berardi.

– Undan pul olmaydi, – derdi Mett Foks, – kassaga choraktani o'zining hamyonidan solib qo'yadi.

– Bu uning ishi, – derdi Maksi. – Menga har bir mijoz hisobidan chorakta tushsa bas. Bu pul kassaga kimning hisobidan tushishining menga qizig'i yo'q.

Besh yillardan keyin, balki: „Uning narxi bundan ortiq emasdi“, degan bo'larmidim. Chunki juda quyushqondan chiqib ketgandi. Uning qilmishlari shaharda tillarda doston edi. Bu gaplar rostmidi-yolg'onmidi, bilmayman: axir, qizlar va juvonlar haqidagi mish-mishlarni, odatda, bunday ishlarni qilishga jur'ati yetmaydiganlar alamidan yoki ko'rolmaganidan tarqatadi, qolaversa ko'ngilxushlik

qiladigan odamni topolmay armonda yurganlar tiliga zo'r beradi. Pinkerton aprelda jo'nab ketgani hamono shaharda mish-mish tarqaldi: nihoyat, o'yindan o't chiqib baloga yo'liqibdi, alamidan joniga qasd qilib, ortiqcha xabdori ichib yotib qolibdi.

Nima bo'lmasin, uch oygacha qorasini ham ko'rsatmadi; kimdir Memfisda kasalxonada yotganmish, dedi; sataroshxonada paydo bo'lganda esa Pinkerton bo'sh bo'lganiga qaramay, Mettning kreslosiga o'tirib oldi: u Pinkertonning asabiga tegish uchun ilgari ham shunday hunar ko'rsatardi. Maksi aytib berdi: alamzada, sumbati tarashaday, lab-lunji so'nggi yo'lga tayyor murdaday bo'yab-bejalgan, egnidagi guldor ko'ylakka qaramasdan shunchalar bezanib, atimi shunchalik burqsitib sepib olganki, turqiga qarab bo'lmaydi; Maksining kreslosida o'tirgancha tinmay valdiraydi, xaxolaydi, go'yo xonada yolg'iz o'ziday uzun oyoqlarini ko'z-ko'z qiladi, Pinkerton esa bo'sh kresloning yonida bir nima bilan banday kuymalanadi.

Ba'zida ichimdagi gaplarni aytolmay yorilib ketay derdim. Lekin Gevin Stivensdan bo'lak hech kimga aytmaganman. U shu yerda, Jeffersonda, okrug prokurori, allaqanday qonunparast mansabdor-u kalamushday sudyalalar orzu ham qila olmaydigan, o'z ishiga puxta mutaxassis. Garvardni tugatgan, tobim qochib qolganda (Gordlonvill bankida hisobchi bo'lib ishlardim, betob bo'lib shifoxonada davolangach, uyga qaytayotganda, Memfis poyezdida Stivens bilan tanishganman), u menga sayyor savdogar bo'lishni taklif qilgan hamda bir firmadan ish ham topib bergan, hozirgacha shu yerda ishlayapman. Men unga ikki yil oldin hammasini gapirib berganman.

— Mana, bu qiz uning boshiga qanday kunlarni soldi. Asosiy sarmoya bo'yicha foizni to'lab bo'lishi bilan ala-

bamalik Starnslar yetib keladi-yu, hovlini tortib olishadi, quruq qo'l bilan qolaveradi. Keyin holi nima kechadi?

– Bilmadim, – dedi Stivens.

– Boshi og'gan tomonga jo'naydi-yu, adoyi tamom bo'ladi, – dedim men.

– Ha, bechora, – deydi Stivens.

– Nima ham derdik, – deyman men, – u oliyanoblikning qurboni bo'lgan birinchi odam emas.

– Afsuski, hammamiz ham bir kun o'lamiz, – deydi Stivens.

III

O'tgan haftada yana Divijenda bo'ldim. Chorshanba kuni yetib bordim. Uy yaqinda bo'yalganini ko'rdim. Do'konchining aytishicha, Pinkerton so'nggi foizni to'lab, Starnsning asosiy sarmoyasini olgan.

– Endi Alabamadagi Starnslar tayyorga ayyor bo'lib bermalol kelaversa bo'ladi, – dedi do'koncha egasi.

– Buni qarang-a, – dedim men. – Pinkerton Starns xonimga bergan va'dasini ado etibdi.

– Pinkerton? – ajablendi u. – Sizlar uni shunday deb ataysizlarmi? Aql bovar qilmaydi! Bu zang'arning ism-sharifi Pinkerton ekan-da. Ajabo!

Jeffersonga faqat uch oydan keyin bordim. Sartaroshxonaga kirmadim, derazadan birrov nazar tashladim, xolos. Pinkertonning kreslosi yonida boshqa sartarosh, yosh yigitga ko'zim tushdi. „Qiziq, Pinkerton obakidandon qutisini unga qoldirganmikan?“ – degan fikr ko'nglimdan kechdi. Lekin sartaroshxonaga bosh suqmadim. Faqat: „Jo'nab ketibdi-da“, deb o'yladim va o'zimcha taxmin qila boshladim: qarib, tentirashga ham chog'i kelmay qolganda holi ne kecharkin, nahotki qiyalama shim-u qora kapalaknusxa

bo'yinbog'i bilan atigi uchta kreslo joy olgan allaqanday ovloq sartaroshxonada jon taslim qilib qo'ya qolsa?

O'z ishimni bitirish uchun otlandim, xaridorlar bilan ko'rishdim, tushlik qildim, kechki payt esa Stivensning idorasiga kirdim.

– Shaharda yangi sartaroshga ko'zim tushdi, – dedim.

– Shunday, – dedi Stivens. Menga diqqat bilan tikilgan cha so'radi: – Siz eshitmadingizmi?

– Nimani aytyapsiz? – ajablandim men. U ko'zini olib qochdi.

– Pinkerton garov bo'yicha barcha foizlarni to'lagani va uyni bo'yagani haqida yozgan xatingizni oldim, – dedi u. – Shu haqda batafsil gapirib bering.

Pinkerton Divijendan seshanbada jo'nab ketganini, men esa chorshanba kuni yetib borganimni aytdim. U yerdagi qo'ni-qo'shnilar do'konchani oldida to'planib olib, alabamalik Starnslar qachon kelib uyni egallar ekan, deya taxmin qilishardi. Pinkerton uyni bo'yagan, ikki qabrni ham tartibga keltirgan, Starnsning ruhini bezovta qilmaslik uchun uning qabriga qo'l tekkizmagan. Men ham erinmay qabristonga borib, qabrlarni ko'zdan kechirdim. Qabr toshlarini qunt bilan tozalab yaraqlatib qo'yibdi, qaylig'ining qabri uzra esa olma ko'chati o'tqazgan ekan. Olma qiyg'os gulga burkangandi, u yerdagilar shunday qiziq gaplarni aytyardiki, o'zimni tutib turolmadim – Starnslarning uyini borib ko'rdim. Kalit do'koncha egasida ekan, u, o'ylashimcha, bundan Pinkerton sira ham ranjmaydi, deb dalda bergan bo'ldi. Uy shifoxona singari top-toza edi. Plita yarqirab ko'zni olar, yonidagi idish esa o'tin bilan to'ldirib qo'yilgandi. Pinkerton har safar o'tinni mana shunday keragicha g'amlab ketishini aytib berdi.

– Alabamalik qarindoshlar uning haqqiga duo qilishsa ajab emas, – deya kesatdi u.

Keng mehmonxonaga kirdik. Burchakda melodion, stolning ustida kerosin lampa hamda Injil. Lampaning oynasi ham, o'zi ham yaltirab ko'zni qamashtiradi, lekin kerosin quyilmagandi, hatto kerosinning hidi ham sezilmasdi. Kaminning ustiga go'yo noyob tasviriy san'at asari singari nikohdan o'tish uchun ruxsatnoma ilib qo'yilgan. Unda 1905-yil 4-aprel sanasi qayd etilgan.

– Garov bo'yicha to'lovlarni mana bu joyda qayd etib borgan, – dedi do'konchi (uning familiyasi Bidvell edi).

U stolning oldiga borib, Injilni ochdi. Uning birinchi sahifasida, ikkita ustunga uy egalarining tavalludi va vafoti sanalari qayd etilgandi. Qaylig'ining ismi Sofi bo'lgan. Dastlab tavalludi deb yozilgan ustunchadan uning ismini topdim. Buni Starns xonim yozgandi, buning uchun o'n daqiqa atrofida vaqt sarflagan bo'lsa kerak. U shunday deb yozgandi:

„Safi Starns 1905-yilning 16-aprelida vafot etdi“.

So'nggi yozuvni Pinkertonning o'zi har qanday hisobchi ham havas qiladigan dastxat bilan bitgandi:

„Uill Starns xonim. 1916-yil 23-aprel“.

– Bo'nak to'lovlari oxirida qayd etilgan, – dedi Bidvell.

Kitobning oxirgi sahifasini ochdim. To'lovlar Pinkertonning qo'li bilan ravon ustunchalarda aniq ko'rsatilgandi. Dastlab to'langan foiz – 1917-yil 16-aprel, 200 dollar. Pastda esa ustuncha ostiga chiziq tortilib, shunday qayd etilgandi: *„Hammasi to'landi. 1930-yil 16-aprel“.*

Kollejlarda, ish yuritishni o'rgatishganda oldingi davrlarda aynan shu tarzda yozishardi, go'yo qalamning o'zi yo'rg'alab, barchasini juda ravon bitgan. Aftidan, so'nggi

chiziqni u maqtanchoqlik bilan tortmagan, aksincha, qalamning yo'rg'alashiga mos ravishda tortib qo'ya qolgan, xolos.

– Starns xonimga bergan va'dasining ustidan chiqib-di-da, – dedi Stivens.

– Men ham Bidvellga shuni aytdim. – dedim. Stivens esa gapimni eshitmaganday davom etdi:

– Starns xonim qabrida tinch yotadigan bo'libdi. Pinkertonning o'zi esa qirq beshdan oshib qoldi. Hazilakam emas. Lekin shunga qaramay, „Garov bo'yicha foizlar barchasi to'landi“, deya qayd etganda, mashaqqatli, og'ir yillar ortda qolganini o'ylab, nasl-nasabining tayini yo'q yosh yigitcha-yu bo'yqiz kabi o'zini erkin sezgani shubhasiz.

– Biroq Syuzen uni chuv tushirib ketdi-da, – dedim afsus bilan. – 45 yoshga kirgan odam unga o'xshagan ko'ngliga yoqqan qizni topishi dargumon. Axir, hash-pash deguncha ellikdan ham oshadi.

Shu palla Stivens menga qaradi.

– Nazarimda, hali eshitmadingizmi deyman? – ajablandi u.

– Yo'q, – dedim men. – Sartaroshxonaga birrov ko'z qirimni tashladim. Pinkerton u yerda yo'q ekanini bilardim. Garov bo'yicha barcha foizlarni to'lagandan keyin bu yerda bir daqiqa ham qolmasligi menga oldindan ayon edi. Balki, Syuzen haqidagi gaplardan ham xabari bo'lmagandir, bu ham ehtimoldan xoli emas. To'g'risi, bilgan bo'lsa kerak, lekin sira ham parvo qilmagan.

– Uning qilmishlarini bilmagan deb o'ylaysizmi?

– Nega shunday bo'lganini sira anglay olmayapman.

Aniq bir gap aytishim qiyin. O'zingiz nima deysiz?

– Bilmadim. Qolaversa, bilishni ham xohlamayman.

Lekin yaxshiroq xushxabarni bilaman.

– Nahotki? – ishonqiramay soʻradim. U yana menga qaradi.

– Soʻnggi yangliliklardan hamisha bexabar yurasiz, deb pisanda qilasiz. Nimadan bexabar qolibman?

– Syuzen bilan bogʻliq voqeadan, – dedi Stivens. Va mendan koʻz uzmay qoʻshimcha qildi: – Pinkerton taʼtil-dan soʻnggi bor qaytib kelgan oqshomda ular nikohdan oʻtdi. Va bu safar Pinkerton uni oʻzi bilan birga olib ketdi.

QAYSAR QIZNING QUYILISHI

Ba'zan biron voqeani hikoya qilishda gapni nimadan boshlashni bilmay qiynalasan. Hoibuki, o'quvchilik kezlaringimda, „Yozgi ta'tilni qanday o'tkazdim“ degan mavzuda insho yozishda sira qiynalmaganman. Maktabda so'nggi qo'ng'iroq chalingandan toki ta'tilning so'nggi kunigacha oqizmay-tomizmay barcha voqealarni yozardim. Ta'til qanday boshlagani-yu qanday poyoniga yetganini kun-bakun bayon qilardim.

Hozirgi hikoyani esa nimadan boshlashni bilolmay boshim qotdi. Balki, Maykka qizil beret sovg'a qilganimdan boshlasammikan? Ehtimol, Mayk menga: „Seni yaxshi ko'raman“, deya mehrini o'zgacha izhor qilganidan boshlaganim ma'quldir? Yoki Louson Velli maktabida unga katta lavozim taklif qilishganda, ikkalamiz qattiq janjallashib qolganimizdan boshlaymi?

Yaxshisi avval o'zimni tanishtiray. Ism-sharifim Lori Farber. Erimning ismi – Mayk. Lesli va Keyt ismli ikki qizalog'imiz bor. Mayk Makkinli maktabida ingliz tili va adabiyotidan dars beradi. Garchi maktab eski, yon-atrofdagi aholi nisbatan nochor, o'quvchilar ham ancha bebosh bo'lganiga qaramay, Mayk o'z ishini yaxshi ko'radi. Menga ham o'z ishim yoqadi. Haftada ikki oqshom va shanba kunlari mahalliy kutubxonaning bolalar bo'limida ishlayman. Qizlarimni tarbiyalash ham jon-u dilim. Men ularga yosh bolalar kabi emas, balki katta kishilarday

munosabatda bo'laman. Tarbiyaga oid ayrim kitoblarda: „Voyaga yetganidan keyin bola boshga bitgan balo bo'ladi“, qabilidagi fikrlarga sira ham qo'shilmayman.

Ko'pincha tokay haminqadar kun kechiramiz axir, deb yozg'irganimga qaramasdan, nazarimda, hayotimiz talay odamlarga nisbatan baxtliroq kechayotir. U darajada kambag'al emasligimizni o'ylaganimda esa noshukrlik qilganim uchun pushaymon ham bo'laman. Lekin topgan-tutganimizni rasamadi bilan sarflash jonimga tekkan. Qolaversa, do'konlardan o'zim xohlagan narsani emas, balki qo'ldan qo'lga o'tgan buyumlarni majburan sotib olish ham alam qiladi. Boz ustiga mehnat ta'tilida el qatori dam olish uchun hamisha mablag' yetishmasligi ham jonimdan to'ydirib yuborgan. Yana: Mayk koshki ishga hozirgidek velosipedda emas, yengil mashinada qatnasa edi, deb orzu qilaman. U Lesli bilan Keytni velosipedda olib yurish qiyin va noqulay, deb mashinani menga berib, o'zi ishga velosipedda qatnaydi. Yomg'ir va qor-ga ham, ko'chalar shilta bo'lishi-yu qalin tumanga ham parvo qilmaydi. Men esa uni o'ylaganim-o'ylagan. Axir, bizning uyimiz bilan maktab oralig'idagi ko'cha bo'ylab mashinalarning keti uzilmaydi. Mayk esa ko'pincha maktabda uzoq ushlanib qoladi, biron-bir drama repetitsiya qilinayotgan paytlarda esa uni kutaverib ko'zim to'rt bo'ladi. Velosipedi uchun old va orqa chiroqlar-u pedal-lari, hatto tizzalar uchun ham nurqaytargichlar olib bergan bo'lsam ham, hamisha undan xavotirlanaman.

Shu bois unga sariq yomg'irpo'sh olib berish bilan kifoyalanmay, qizil beret ham sovg'a qildim. Yelim kallapo'shlarni ham, to'qilgan qalpoqchalarni ham yoqtirmaydi. Ho'l movutning hididan ko'ngli ozadi. Bir safar moviy fransuz beretini sotib olgandi, uni har doim kiyib yurardi, aksiga olib beretni yo'qotib qo'ydi. Men fursatni boy

bermay, tugʻilgan kuniga ajoyib qizil beret sovgʻa qila qoldim, oʻshandan beri bu beret uning egnidan tushmaydi. Qizil beret Maykka juda yarashadi, deya tanish-bilishlarning ham tilidan bol tomadi. Axir, ikki mahalla naridan ham, hatto tumanda ham, yomgʻirli kunlarda ham ayni qizil beret tufayli Maykni darhol tanib olishadi.

Hayotimdan nolisam rostdan ham noshukrtik qilgan boʻlaman. Birovdan oldin, birovdan keyin deganday kunimiz oʻtib turibdi. Baxtiyor hayot kechirish uchun urinayotganimiz behuda ketmayotir. Bir-birimizni hamisha avaylaymiz, muhim muammolarni birgalikda hal qilamiz. „Men seni yaxshi koʻraman“, deyishni esa sira kanda qilmaymiz. Avvaliga bu gapni haddan ortiq koʻp aytmayapmizmi, deb xavfsiradim ham. Bu gapni rosmiyaning bilan aytyapmizmi yoki oʻrganib qolganimizdan oʻz-oʻzidan aytib yuboryapmizmi, degan shubha ham tugʻildi.

Lekin „Sen esini yegan ahmoqsan“, degan sovuqdan sovuq malomatdan koʻra mehr bilan „Men seni yaxshi koʻraman“, deganga nima yetsin.

Kunlarning birida Mayk menga koʻnglimni koʻtaradigan yangi gap aytdi. Bizlarni oʻqituvchilar ziyofatiga taklif qilishdi. Oʻsha yerda kaminning yonida yolgʻiz oʻtirgan Anni Garrisonni koʻrib qoldim va Maykning Anni haqida aytganlari esimga tushdi. Anni ziyofatlarni yoqtirmas, juda tortinchoq ekan. Eri Ralf Garrisonning aytishicha, bir yostiqa bosh qoʻyishganiga yigirma uch yil boʻlganiga qaramasdan, ular hozir avvalgidan ham baxtli hayot kechirayotgan ekan. Oʻsha oqshom buning sirini Annidan bilishga urindim. Lekin unga yaxshi koʻrinishni xayolimga ham keltirganim yoʻq. Agar men yaxshi biladigan Ralf Garrisonday bebaho odam yigirma uch yil birga turmush kechirganiga qaramasdan, Annini yana ham yaxshi koʻrar ekan, men Annining feʼl-atvori-

ni, albatta, yaxshi bilishim kerak, degan qarorga keldim. Qolaversa, ikki soat vaqtimni har xil oldi-qochdilar-u mish-mishlarga sarflagandan ko'ra Anniday benazir ayol bilan maroqli suhbat qilganim ma'qul, degan fikr ko'nglimdan kechdi.

Men unga yaqinlashib maqsadga o'ta qoldim:

– Aytishlaricha, Ralf bilan hozir oldingidan ham baxtliroq hayot kechirayotgan ekansizlar. Buning biron siri bo'lsa kerak, albatta.

Annining yuzi tabassumdan yorishib, shunday javob berdi:

– Daf'atan bir gap aytishim qiyin.

Shu asno gap-gapga ulanib, ikki soat qanday o'tganini ham bilmay qolibmiz.

Chanqovbosdi ichimlik to'latilgan ko'zaga yaqinlashganimda Mayk o'sha yerda ekan. U mening stakanimni to'latib uzatarkan, diqqat bilan tikilib dedi:

– Men seni tushunaman.

„Tushunaman“ degan kalimaga alohida urg'u berganidan, aslida: „Men seni yaxshi ko'raman“, demoqchi bo'lganini anglab, mehrim tovlanib ketdi. U go'yo: „Lori, men seni juda qadrlayman. Qalbingdagi barcha sir-asrorlar menga ayon, ularning barchasi munavvar chehrangda aks etib turibdi“, demoqchi bo'ldi. Lekin hammasini aytib o'tirmay: „Men seni tushunaman“, deb qo'ya qoldi.

O'sha oqshorndan keyin bir-birimizga tez-tez shunday deyishni odat qilib oldik. Bu ibora „Seni yaxshi ko'raman“, degan e'tirofdan ham muhim ahamiyatga ega edi. U teran ma'noga ega bo'lgani uchun emas, balki kerakli paytda aytilgani bois alohida qimmat kasb etardi. „Men seni yaxshi ko'raman“ iborasi saraton oftobiday qaynoq va doimiy bo'lsa, „Men seni tushunaman“, e'tirofi yarim tunni charog'on qilib yuborgan chaqmoqqa o'xshardi.

Bir kuni kechqurun Makkinli maktabining sinfxonalaridan biriga kirib, ostonada turib qolganimda men shunday kechinmani his qildim. Mayk kirganimni payqamadi, pyesani repetitsiya qilishda davom etardi. Pyesa „Afsungar“ deb nomlanar, pyesa qahramonlaridan biri Elen qo‘lini oqar suvga tutgancha, „Bu – suv“, der ekan, Mayk ayni so‘zning hayratlanarli ahamiyati va ayni lahzaning qanchalar muhim ekanini zo‘r berib tushuntirardi.

O‘sha lahzada yuragim daf‘atan to‘lqinlanib, beixtiyor qichqirgim keldi: „Men tushunyapman! Tushunaman! Juda yaxshi tushunyapman! Pyesa qahramoni Elen Keller nima demoqchi bo‘lganini emas, shuningdek, ona tilimizning buyuk qudratini ham emas, balki seni, Maykl Endryu Farberni juda yaxshi tushunyapman. Men seni o‘qituvchi sifatida tushunayotirman. Aftidan, to shu kungacha, sarguzasht asarlardan boshqa kitoblarni qo‘lga olmagan o‘quvchilar ham sendan saboq olganlaridan keyin maktabga mehr qo‘yganlarini ham qalban anglab turibman“.

Agar men hikoyani boblarga ajratganimda, navbatdgisini „Suv isitish pechkasi va Frisko jamg‘armasi“ deb nomlardim. Balki, mavzudan biroz chetga chiqarman, lekin bu shu paytgacha barchaga manzur inson rolini ijro eta turib, nima uchun birdaniga dardisarga aylanganimni oydinlashtiradi.

Jozibador surbet bo‘lish uchun odam qirollarday ahamiyatga yoki o‘ta nozik fahm-u farosatga ega bo‘lishi kerak. Menda unisi ham, bunisi ham yo‘q. Endi o‘ylab ko‘rsam, o‘shanda men sirkasi suv ko‘tarmaydigan injiq xotinday rosa hunar ko‘rsatgan ekanman.

Xullas, bahorgi mehnat ta‘tilida bir hafta San-Fransiskoda dam olish maqsadida Mayk bilan o‘ziga xos „Frisko jamg‘armasi“ tashkil qildik. Biz bemaol hordiq chiqarishimiz uchun onam bolalarga qarab turadigan bo‘ldi.

Dabdabali bo'lmasa ham binoyidek mehmonxonada turishni, mashhur restoranlarda ovqatlanishni, hatto ta'tilga jo'nab ketishdan oldin so'nggi rusumdagi kiyim-kechaklar xarid qilishni ham mo'ljallab qo'ydik. Biz orttirgan mablag'larni jamg'ara boshladik. Biroq moyanamizdan pul orttirishning o'zi bo'larmidi? Shunga qaramay, tejalgan har bir dollarni jamg'armaga qo'shib qo'yardim.

Kutilmaganda uyimizni isitish tizimining pechkasi ishdan chiqdi. Binoyidek ishlab turgan pechka birdan buzilib qoldi. Buzilishidan oldin biron hunar ko'rsatganda ham alam qilmasdi. Axir, kir yuvish mashinamiz buzilmasdan avval g'alati tovushlar chiqarib bizni ogohlantirgandi.

Pechka buzilganiga sira ishongim kelmasdi.

– Nahotki hech narsa qila olmasang? – deya Maykning g'ashiga tegardim. – Qo'lingdan kelmaydigan ishning o'zi yo'q edi-ku. La'nati pechkani nahotki ta'mirlab bo'lmasa? Ustaxona mexanigi pechkani hech kim, hatto qo'ligul usta ham tuzata olmasligini aytgandan keyin ham qaysarlik bilan ishongim kelmas, „Nazarimda, uni ta'mirlay olarding“, – deya takrorlashni bas qilmasdim.

– Yo'q, Lori, – dedi Mayk. – Agar Lesli bilan Keyt qishda qor malikasiga aylanishlarini xohlamasak, yangi pechka sotib olishimiz kerak. Mexanikning aytishicha, yangi pechka to'rt yuz ellik dollar turarkan.

– To'rt yuz ellik dollarimiz yo'q axir, – deya e'tiroz bildirdim, biroq jamg'arma esimga tushib, baqirib yubordim: – Jamg'arilgan pulni sarflashni xayolingga ham keltirma!

– Boshqa ilojimiz yo'q, – dedi Mayk.

– Nahotki bu jamg'armani yo'q deb hisoblab, kimdandir qarz olishning iloji bo'lmasa, – dedim alam bilan. Men shunday qilgan bo'lardim. Lekin Mayk pulimiz bo'lgani holda ularni yo'q deb tasavvur qila olmas, binobarin

o'ta nochor ahvolga tushib qolmaguncha kimdandir qarz ko'tarishni xayoliga ham keltirmasdi.

– Gapimga quloq sol, Lori. Agar bu yil yozda xiyo-bonlar va dam olish hududlari boshqarmasiga ishga joy-lasha olsam, avgust oyida San-Fransiskoda dam olishga boramiz. Mayk bilan tortishganim yo'q, chunki bundan hech qanday naf chiqmasligini bilardim, qolaversa, pul masalasida bahslashishni maydakashlik va pastkashlik hisoblardim. Lekin nimadir ich-etimni kemirardi. „Kambag'allik jonimga tegdi“, derdim o'zimga o'zim.

„Sen kambag'al emassan“, derdi ichimdagi bosh-qa bir kimsa. – Shinam boshpanang bor, yangi pechka o'rnatilgach yana issiq bo'ladi. Qolaversa hamisha qor-ning to'q, shu darajada to'qsanki, vazning me'yordagidan besh kilogramm og'ir. Yaxshisi, omad yor bo'lgani uchun beaded shukrlar aytgin“. „Ha, – deb javob berardim men. – Omadim shunchalar yurishyaptiki, har kuni bir xil masalliqdan turli xil taomlar pishirishni kashf qilishimga to'g'ri kelayotir. Men esa har kuni sarxil mol go'shti yoki yog'li qo'y go'shtidan tayyorlangan taomlarni yeyishni xohlayman“.

„Obi diydani bas qil“. – „Sen esa aql o'rgatishni bas qil“. – „Aftidan, taqirbosh sug'urta xodimi, oti nimaydi, ha-ya, Luis Gudrichga turmushga chiqmaganing uchun pushaymon bo'lyapsan, shekilli?“ – „Darvoqe, Luisning muzlatkichida hamisha yo'q deganda ikkita tovuq go'shti, garajida esa bir juft yengil mashina bo'ladi“. – „Luis Gudrich tushlik paytida televizorda beysbolni tomosha qilganicha, tushlikka tovuq go'shtimi yoki mol go'shtidan qilingan kotlet yeyotganini o'ylab ham o'tirmaydi. Qolaversa, mashinasini yana qanday yangi markadagi mashinaga almashtirgani haqida safsata sotishdan nariga o'tmaydi. Shuningdek, u shunday odamlar toifasidanki,

mumtoz romanning nomini soat markasining nomi bilan hamisha chalkashtirib yuradi”.

Kamina qanday kayfiyatda ekanimni endi tushungan-dirsiz? Shu bois rappa-raso uch kundan keyin Maykka Louson Velli maktabiga ishga o'tishni taklif qilishganda ahvol yana ham chigallashdi.

Mayk bunga oid mulohazasini aytishdan oldin mazkur maktab kengashidan olgan maktubni o'qish uchun qo'lim-ga tutqazib xato qildi. Xullas, u maktubni menga tutqaz-di. O'qib ko'rsam, Mayk dars berayotgan maktabdan ko'ra ancha badavlat 325-maktab unga uch baravar ko'p maosh bilan direktor o'rinbosari lavozimini taklif qilibdi. Bu xushxabardan shunchalar quvonib ketdimki, raqsga tushib, „Kaliforniya, bizlarni kutib ol“, deya kuylay bosh-ladim. Quvonchim ichimga sig'may „Aprel oyida, Parijga sayohat qilamiz“, deya xirgoyi ham qildim.

– Buncha maosh olganingdan keyin, aprelda Parij bo'ylab sayohat qilishimiz tayin axir, – dedim men haya-jonimni bosa olmay. – Mayk, axir bu Xudoning marhamati-ku! Nahotki aksincha bo'lsa?!

Maykning haykalday qotib turganini ko'rib parvozgashaylangan qo'flarim qirqilgan qanotday shalvirab tushdi.

– Nima gap? – ajablandim men.

– Kechir meni, Lor, – javob berdi u. – Bunday qilolmayman. Ularning taklifini rad etdim.

Haykalday qotib qoldim. Lekin o'zimni yo'qotib qo'yganim, hech narsani tushuna olmayotganim, nihoyat, juda g'azablanayotganim yaqqol sezilib turardi. Rostdan ham chinakamiga g'azablanayotgandim, chunki Mayk menga bir og'iz ham aytmay hammasini o'zboshimchalik bilan hal qilgandi.

– Seni nima jin urdi, esingni yeb qo'ydingmi? – so'radim men. – Nahotki navbatdagi yigirma yil davomida ham

hozirgidek tishingning kirini so'rib yuraverishni mo'ljal-
layotgan bo'lsang?

– Men nafsimni o'ylaganim yo'q, – dedi Mayk. –
Men bundan keyin ham Makkinli maktabida bolalarni
o'qitmoqchiman.

– Kelib-kelib menga va'zxonlik qilmoqchimisani? –
dedim bor zahrinni sohib. – Barchani avrashni kasb
qilib olgansan-ku, boshlay qol! Lekin ko'zimga tik qa-
rab gapira olarmikansan? Agar so'zlaringni eshitishimni
istasang, nasihatbozlikni xayolingga ham keltirma!

– Lori, o'zingga yarashmaydigan gaplarni aytyapsan...

– Nega yarashmas ekan? Qachongacha tishimni
tishimga qo'yib yashayman?! Qachongacha tilanchidek
kun ko'rishim kerak axir?!

– Bir og'iz gapirgani qo'lasanmi-yo'qmi? – bor ovozi
bilan qichqirdi Mayk. – Men bolalarga ta'lim berishim
kerak! Boshqa ishni xayolingga ham keltira olmayman!

– Lousonda ham bolalarni o'qitaverasan. U yerda hat-
to direktor ham kunning teng yarmini sinfda o'tkazadi. Bu
maktab ma'muriyatidagi yangi yo'nalish axir.

– Gaping to'g'ri. Rostdan ham sinfda bamaylixotir
o'tirib olib, namunali xulq qoidalarining erkin muhoka-
masini kunlab, yillab tinglashim hech gap emas. Biroq
Choser ham, Tomas Mur ham, Makbet xonim ham tash-
landiq qaznoqda chang bosib qolib ketadi.

– Pashshadan fil yasab, meni og'dirib olishni xayoi-
lingga ham keltirma.

– Balki, Luis Gudrich kabi sug'urta xodimi bo'lishim-
ni istarsan?

– U, har holda, turmushidan noliyotgani yo'q.

– Lori, – dedi u, meni ham, o'zini ham murosaga
keltirishga uringandek yalingan ohangda. Nahotki butun
hayotimni o'quvchilarning darslarni o'zlashtirishlarini

nazorat qilish, maktab avtobuslarining qatnovini qayd etish, sportzalning orqasiga bekinib olib qaysi o'quvchi aynan nima chekayotganini poylash bilan o'tkazishimni xohlayotgan bo'lsang?

– Bunaqa vahima qiladigan odating yo'q edi-ku, – dedim men uning murosaga chorlovchi gap ohangiga e'tibor bermasdan. – Nazarimda, menga bu kuningdan battar bo'i, deganday faqat o'zingni o'ylayapsan. Oh, Mayk, men hamma xotinlar kabi yaltir-yultir liboslarni o'ylayotganim yo'q. Mening niyatimni o'zing ham yaxshi bilasan. Biz axir, o'g'il asrab olishimiz kerak. O'zing ham jon deb shuni xohlab turibsan-ku.

Mening ko'zlarim yosh bilan to'ldi. Lekin bu rostakam ko'zyoshlarimidi, yoki mug'ambir xotinlarga xos hiylamidi, anig'ini aytolmayman.

– Nima ham qilardik, – dedi u afsuslangandek. – Xolis niyat yo'lida qizaloqlardan ham, bolakaylardan ham voz kechamiz. – U javonga yaqinlashib, paltosini oldi.

– Aylanib kelaman, Lor, yaxshilab o'ylab olishim kerak. Uning ovozida hech qanday ginani sezmadim. Aksincha, meni ko'ndira olmaganidan afsuslangani, yolg'izlanib qolganidan iztirob chekayotgani sezilib turardi. Ayb o'zimda ekanini bilib tursam ham tan olgim kelmasdi. Nazarimda, o'zimni aybdor deb his qilishga aynan Mayk majburlayotgandek edi.

Bu ahvol ikki yoki uch kunga cho'zildi. Avvalgidek ishtiyoq bilan nonushta tayyorlaganim bilan uni lom-mim demay tanovul qilardik, dasturxon ustida Lesli bilan Keyt polaponlarday chug'urlashardi, xolos. Er-u xotin bir-birimizga yasama ehtirom bilan munosabatda bo'lardik. Kun bo'yi yig'lardim hisobi, biroq bular chinakam ko'zyoshlari edi. Axir, o'z erimga begonadek bo'lib qolgandim-da. O'zimni, kimdir ko'ksimga qasddan pichoq

sanchib qo'ygandek his etardim. Biz hech qachon Anni va Ralf Garrison kabi baxtiyor bo'la olmaymiz, degan fikrdan yana ham ezilardim.

Qizlarim bolalar bog'chasida bo'lgan kunlari o'zim yoqtiradigan oromkursiga joylashib olib, oynavand surma eshik orqali hovliga va kamindagi miltillagan olovga tikilgancha Maykni ko'z oldimga keltirishga urinardim. Har qancha uringanim bilan uni xofisona tasavvur qila olmasdim. Ashaddiy xudbin, o'taketgan zo'ravon, o'ziga bino qo'ygan takabbur sifatida tasavvur qilardim-u, asl holatida bus-butun ko'z oldimga keltirolmasdim. Hatto har kuni bir xil ovqat jonimga tegdi, deb shikoyat qilayotgan Villi Loman kabi keksaygan, bukritil va adabiyot o'qituvchisi sifatida ham ko'z oldimga keltirardim. Kamina, janjalkash Lori Farber, uni nohaq ma'lomatga ko'mib tashlagandim. Men uni Louson maktabining qorin qo'ygan, beso'naqay direktor o'rinbosari lavozimida ham tasavvur qilib ko'rdim: u gard tushsa yalagudek top-toza xonasida qog'ozlarga ko'milib o'tirar, biroq Gamlet va Siranoni eslab ezilardi!

Nihoyat, juma keldi. Men haftaning shu kunida ro'zg'orga kerakli narsalarni xarid qilish, qolaversa boshqa yumushlar bilan turli tomonlarga qatnayman. Lesli va Keyt bilan uchovlon kunning ikkinchi yarmini rosmana shodiyonaga aylantiramiz. Qahvaxonada gazli suvdan ho'plab, opa-singillarday dardlashamiz, kirxonadan kiyim-kechaklarni, etikdo'zdan esa poyabzallarni, kutubxonadan o'zimiz yoqtirgan kitoblarni olamiz, do'kondan esa turli noz-ne'matlar xarid qilamiz.

Shu kuni savdo markazi odatdagidan gavjum bo'lgani uchun ancha navbatda turib qoldim va biz g'ira-shirada uyga qaytdik.

Maydalab yomg'ir yog'ardi. Bundan qat'i nazar atrofni rutubat qoplamagan, aksincha, biz o'zimizni yomg'ir yuvgan deraza orqali balet tomosha qilayotgandek xursand sezardik. Men radioni qo'ydim va mashinaning oyna tozalagichlari yomg'ir hamda radiodan yangrayotgan Motsartning maroqli musiqasi bilan hamohang tebrana-yotganini payqadim. Lesli bilan Keyt orqa o'rindiqda o'zlarining bolalarcha sirlarini pichirlashib o'tirardi.

Biz Cherri-strit ko'chasi bo'ylab ketib borardik. Odatda, mazkur ko'cha serqatnov bo'lmaydi, ayni shu bois mazkur ko'chani tanlagandim. Yomg'ir paytida ham hatto ikki mahalla yiroqdagi manzarani yaqqol ko'ra olganingga nima yetsin. Kutilmaganda bizlardan ancha narida ko'chani yolg'iz velosipedda bir kishi kesib o'tdi. Men uni egnidagi qizil beretdan darhol tanidim: u – Mayk edi. Nazarimda, munavvar oltin oltob ufq bo'ylab sirg'alib o'tganday bo'ldi.

Maykni uzoq vaqt ko'rmaganday sog'inib, yuragim orqizib ketdi. Men u eshitadigan qilib, „Men seni tushunaman!“ deya bor ovozim bilan hayqirgim keldi. Motsart taronalarini eshita olishi, bu kuy qaysi tomondan kelayotganini ilg'ashi uchun radioni balandlatgim keldi, qolaversa, menga ham bag'rikenglik bilan javob qaytarishini istab, olisdan unga mehr bilan ishora qilishga chog'landim. Men go'yo ro'paramdagi quyosh sari talpinardim.

Bularning barchasi ko'z ochib yumguncha ro'y berdi. U o'girilmadi, meni ko'rmadi, qizil bereti g'oyib bo'ldi.

„Men seni tushunaman“ – xirgoyi qila boshladim. Men sassiz xirgoyi qilardim, Motsart esa men uchun ham oshkora kuylardi. Keyin yuzimga ilkis muzday suv sepib yuborishganday seskanib ketdim. Makkinli maktabidagi g'aribona sinf xonalari-yu o'ksik ko'ngillarni mana shunday munavvar quyoshdan sal bo'lmasa mahrum qilayozganimni tushunib yetdim.

Uyga yetib kelganimizda Mayk velosipedini endigina garajga qoʻygandi. Lesli bilan Keyt mashinadan sakrab tushib, unga osilib olishdi. Qizaloqlar uyga chopqillab kirib ketgach, Mayk mashinaning yukxonasidan xarid qilingan narsalarni olar ekan, menga qaradi. Meni hamon jahldan tushmagan hisoblab qoʻrqa-pisa nazar tashlaganini sezib, oʻzimni yomon koʻrib ketdim. Lekin men Motsart musiqasi ogʻushida oʻzimni uchib yurgandek his etardim, yuzimda esa oltin oftob nurlari oʻynardi. Buni sezgan Mayk ham mehri tovlanib, eski mashinamizdan meni chiqarib olib bagʻriga bosgancha soʻradi:

– Oftob qaysi tomondan chiqa qoldi?

– Seni tushunaman, Mayk, – dedim men uning koʻksiga bosh qoʻyib.

Mayk koʻzlariga ishonmayotgandek samimiy jilmaydi. Xaltalami yosh boladay oʻynoqlab uyga olib kirdi. Men kechki ovqatni pishirish bilan band boʻlar ekanman, „Qaysar qizning quyilishi“dan parchalar aytib, Petruccio rolini oʻynaydigan bolakay haqida ham maroq bilan gapirib berdi.

RAHMAT SIZGA, OYIJON!..

To'ladan kelgan bir ayol yo'lak bo'ylab ichiga hamma narsa sig'adigan katta sumkasi bilan ketib borardi. Chindan ham, sumkaning ichida yo'q narsaning o'zi yo'q edi, albatta, bo'lg'acha va mixdan boshqa. Sumkaning bog'ichi uzunligidan ayol uni yelkasi osha orqasiga tashlab olgan-cha ko'cha bo'ylab yolg'iz ketayotgandi. Soat tungi o'n birlar edi, bir payt uning yoniga shuv etib bir bola keldi va ayolning sumkasini yelkasidan sug'urib oldi. Ayol o'ziga kelmay turib, bog'ichi bitta tugmacha bilan qadalgan sumka shart uzilib, bolaning qo'lidan tushib ketdi. Sumkaning og'irligidan muvozanatini yo'qotgan bola qo'lidagi bilan birga qattiq yiqilib tushdi va oyog'i jarohatlandi. Ayol esa bamaylixotir bolaning yelkasidan tortdi va jahl bilan turg'azdi.

– Qani, mening hamyonimni joyiga qo'ygin-chi, – dedi uni qo'yib yubormay. – Xo'sh, qilgan ishingdan afsuslan-yapsanmi endi?

Ko'ylagidan mahkam qisilgan bola javob berdi:

– Ha...

– Bunday qilib nimaga erishmoqchi eding?

– Hech nimaga.

– Aldayapsan.

Bu paytda bir-ikki yo'lovchi ularga hayron bo'tib qaragancha o'tib ketdi. Ba'zilari esa shu yerda turib kuza-tishga kirishdi.

– Hozir seni qo‘yib yuborsam, qochasan, shundaymi?

– Ha, – dedi bola.

– Shuning uchun qo‘yib yubormayman ham.

Ayol uni mahkam ushlashda davom etdi.

– Men juda afsusdaman, xonim. Meni kechiring!.. – pichirladi bola.

– A-ha, yuzing ham juda kir bo‘lib ketibdi. Yaxshisi, yuzingni yuvib qo‘yishim kerak. Uyingda birortasi yuzingni yuv, deb aytmaydimi?

– Yo‘q...

– Unda bu kech yuvilar ekan-da, – dedi ayol va cho‘chigan bolani yelkasidan ushlagancha ko‘cha bo‘ylab olib keta boshladi.

Bola o‘n to‘rt yoki o‘n besh yashar, juda zaif va yovvoyi, tennis oyoq kiyimi va ko‘k jinsi kiygan edi.

– O‘g‘lim tengi ekansan. Senga nima yaxshi-yu nima yomonligini o‘rgatishim kerak. Avvalo, tarbiyani yuzingni yuvishdan boshlaymiz. Qorning ochdir?

– Yo‘q, to‘qman, meni qo‘yib yuborsangiz bo‘ldi.

– Seni anavi yerda ketayotib bezovta qilganmidim?

– Yo‘q.

– Sen o‘zing meni bezovta qilding, o‘zing boshlading, to‘g‘rimi? Endi meni eslab yurasan, ya‘ni missis Luella Betes Vashington Jonesni.

Ayol uyiga yetib kelgach, bolani ichkariga kiritdi. Kiraverish kichikkina yemakxona edi, ayol chiroqni yoqdi va eshikni ochiq qoldirdi. Bola qo‘shnilarning uyidan eshitilayotgan ovozlari, kulgilarni bemalol tinglay olardi. Ba‘zi qo‘shnilarning eshigi ularniki kabi ochiq edi, demak, ayol yolg‘iz emasligini ham bilishdi. Ayol haligacha bolaning yelkasidan ushlagan ko‘yi xona o‘rtasida turardi.

– Isming nima, bolakay?

– Rojer.

– Demak, Rojer, hozir yuvinish xonasiga borib, yuzingni yaxshilab yuvib kel.

Nihoyat, ayol bolani asta qo'llaridan bo'shatdi. Rojer bir ochiq eshik tomonga, bir yuvinish xonasi tomonga qaradi. Keyin beixtiyor yuvinish uchun yo'l oldi.

– Suv isiguncha biroz kutib tur, – tayinladi ayol, – u yerda sochiq ham bor.

– Meni qamoqxonaga topshirasizmi? – so'radi bola yuvinish xonasidan turib.

– Yuvinmasingdan turib seni hech qayerga olib chiqolmayman, – dedi ayol. – Men bu yerda yeyishga biror taom tayyorlash niyatida yuribman-u, sen esa hamyonimni olmoqchi bo'lding-a? Sen uyingga kechki ovqatga ulgurasanmi?

– Uyimda hech kimim yo'q.

– Unda birga ovqatlanar ekanmiz-da, bilaman, qorning och qolgan. Axir shuncha mehnat qilib ochqamay bo'ladimi?

– Men faqat zamsh tufli olmoqchi edim...

– Sen buni hamyonimdan o'g'irlab emas, o'zimdanda so'rab ham olishing mumkin edi, – dedi Luella xonim, – ha, o'zimdanda...

– Oyi! – yuzidagi suv tomchilari bilan unga tikilib turgan bola bu so'zni beixtiyor aytib yubordi. Ular jim qolishdi... Uzoq jim qolishdi. Nihoyat, bolaning yuzi quridi, u nima qilishni bilmay, sochiqni olib yuzini yana artdi. Eshik hamon ochiq. Bola hozir shunday borsa, tamom, qochaveradi, qochaveradi...

Ayol kursiga o'tirib, birinchi bo'lib gap boshladi:

– Yoshligimda qo'lim yetmaydigan narsalar meniki bo'lishini juda xohlardim.

Bola qoshlarini kerib ayolga qaradi.

– Ha, shunday bo'lgandi. Seni, hech kimning hamyonini o'g'irlamaganman, deb aldashni xohlamayman. Buni senga aytmoqchi emasdim. Shunday ishlar qilganmanki, buni faqat Xudo biladi, o'g'lim. Xo'sh, ana endi chiroyli bolaga aylanibsan.

Xonaning narigi chetida gaz plita va muzxona bor edi. Ayol o'rnidan turib, o'sha tomonga ketdi. Ortiga qaramadi: ayol kursiga hamyonini atay tashlab ketgan edi. Bola uni hoziroq olib eshikdan qochib ketishi mumkin. Lekin ayol ortiga qarashni istamasdi. Bola buni sezdi va ayol uni ko'ra olishi mumkin bo'lgan joyga borib tardi. U ishonchsizlik qilishni istamadi.

– Do'kondan biror narsa olib kelishingiz kerak emasmi? – so'radi bola. – Sut yoki biror yegulik... olib kelib berardim.

– Menimcha, yo'q. Sut ichging kelyaptimi? Menda quritilgan sut bor, undan kakaoli ichimlik tayyorlab beraman.

– Yaxshi bo'lar edi.

Ayol muzlatkichdan lima loviyalari va son go'shti oldi. Kakao tayyorladi va hammasini stolga qo'ydi. Ayol boladan qayerda yashashi, o'tmishi, umuman, qiziqtirgan narsalari haqida so'ramadi. Ovqatdan so'ng ayol o'z kasbi – mehmonxonaning go'zallik do'konida ishlashini va ishi doim kech tugashini, lekin o'z kasbini juda sevishini aytib berdi. Keyin bu yerga keluvchi har xil mijozlar – malla, qizil sochli ispan ayollari haqida gapirdi. U bolaga shirinlik uzatdi.

– Yana biroz yeb ol.

Dasturxon atrofidan turishgach, ayol bolaning qo'liga o'n dollar tutqazdi.

– Bunga zamsh oyoq kiyim sotib olgin. Lekin keyingi safar xato qilma – mening yoki menga o'xshagan birortasining cho'ntagiga qo'lingni suqma. Oyoq kiyim orzusi oyoqlaringni yomon yo'lga boshlamasin. Men biroz dam olay. Senga o'zingni shu yerdan topib ketishingni tilayman, o'g'lim!

Ayol uni tashqariga kuzatib qo'ydi va eshikni yopdi.

Bolaning nimadir degisi keldi, lekin ayolmadi. U ayolning uyga kirib ketishini kuzatib qolarkan, „Rahmat sizga, oyijon!..“, deb pichirladi. Shundan so'ng ular boshqa uchrashmadilar.

UMID YULDUZI

Zulmat Yer yuzini anchagacha tark etmadi. Bu qorong'ilik urush va qonxo'rlik, jinoyat va ofatning oqibatida paydo bo'lgan edi. Buyuk Yer motamning qop-qora libosiga o'rangan. Yuraklarning zirillashiga yagona sabab esa Vatandan o'g'illarning, otalarning, kuyovlarning borsakelmas tomonga otlanishida edi. Buning uchun ularga hamma sharoitlar tayyor: onalarining dardga yo'g'rilgan mehri, xotinlarining „alvido“ deyolmay oqarinqiragan yuzi. Lekin hayot shuni taqozo qilib tursa, ne iloj...

* * *

– Bechora g'amgin Yer! – dedi bir to'da yulduzlar ichidagi eng yorqini. – Men odamlarga yaxshilikni sog'in-gan edim. Lekin urinishlarim qalblarni o'lim vodiysiga chorladi, xolos. Men o'z vazifamdan ketaman. O'rnimga kim buni eplay olarkin?

– Men! – dedi Sevgi yulduzi muloyim va yoqimli tovushda.

– Sen hali juda yoshsan. Yerdagi bunday qorong'ilik-ni yorib o'tolmaysan. Ularga hozir barchasini joy-joyiga tushirish uchun kuchli qurol ishlatishimiz kerak.

– Kim ekan u? – dedi atrofdagilar bir-birlariga qarab.

– Umid, – dedi yulduzlar sayyorasining malikasi.

O'sha tun osmonda katta bayram bo'ldi, ular ibodatxonada shukronalik bildirishdi. Umid esa ismini eshitiboq ular tomon kela boshladi. Uning qo'llarida hali yasab ulgurilmagan gulchambar bor edi.

– Tunda Yerga borishga tayyormisan, musaffo Umid? – so'radi undan Malika.

Umid yulduzining esa peshanasi yarqirab ketdi va shivirladi:

– Jonim bilan...

– Sening vazifang shuki, gulchambarlarni tunda chirog'i yoniq kulbalarga taqib chiqasan. Ular tuni bilan umidga zor o'tirishgan bo'ladi. Boshqa ishlarni esa bajarolmaysan, qo'yavergin. Endi kel, belingga mana bu oltin belbog'ni taqib qo'yay, bu orqali seni arqon bilan Yerga tushiraman.

Yulduzlar uning qo'llarini gulchambarlar bilan to'ldirishdi, keyin yelkasiga birma-bir qoqib qo'yishdi. Umid pastga tushishga tayyor edi.

– Endi – dedi Malika. – Mana bu bulutlarga sakra, biz sen uchun madhiyamizni kuylaymiz. Yuraging doim biz bilan bo'lsin.

Keyin Malika arqonni uning oltin belbog'iga bog'ladi va samo ostiga asta tushira boshladi.

* * *

Kichik dala hovli. Yo'l bo'yida Meri Den singlisi bilan kitob o'qib o'tirardi. Ularning manglayida yetimlik sitamlari yozilgandi, boisi otasi ham, akasi ham jangda halok bo'lgandilar.

– Kel, yulduzlarga tikilamiz, – dedi ularning kichigi.

– Hali vaqqli, asalim. Yulduzlar qorong'ida ko'rinadi. Qo'shnilarimiz ko'p marta yulduzlarga tilak aytishgan, agar ular yolg'on bo'lmasa...

– Xuddi sen kabimi, opa?

– Jim!.. Men qandaydir qadam tovushlarini eshityapman.

Ulaming ikkisi ham jim bo'lib, atrofga quloq tutishdi. Lekin biror sas eshitilmadi. So'ng kitoblarini yopib, uylariga kirib ketdilar.

Erta tongda eshikni ochsalar, tutqichda ajoyib bir gulchambar osig'liq turibdi. U turfa gullarga boy, betakror iforli va kamalak rangli edi. Ular bunaqa gullarni hali hech qayerda uchratishmagandi. Qizlar sovg'adan hayratlanishib, uning egasi kimligi haqida bosh qotirishdi. Qizlarni yanada quvontirgani – gullar hech qachon so'limas edi.

Umid bu yerda tunda ham yorug' bo'lgan ko'plab maskanlarni topar va gulchambarlar tashlab ketardi. U gospitaldagilar uchun ham quvonchbaxsh lahzalar ato etdi. Umid bir tun ikki beva ayolning beshafqat dunyo haqidagi suhbatiga guvoh bo'ldi va ularni ham xushnud etish niyatida gulchambar qoldirdi.

Tongda ko'chadagi gulchambarni ko'rgan katta ayol sherigini chaqirdi:

– Qanaqasiga? – derdi ular tinmay. – Kambag'alga bundan ortiq shodlik bormi?

– Sizlar bugun ertalab gulchambar topib oldingizmi? – deb so'radi ayollarni kechki taomga taklif qilgan qo'shni xotin allaqanday umidvorlik bilan.

– Albatta! – dedi ular. – Sen hali o'zingnikini topmadingmi?

– Umrimda ko'rgan eng qimmatli boylik bu. Kim uni shunchalik ehtirom bilan tayyorladi ekan-a? Lekin... – qo'shni ayol tutilib qoldi, yuzi so'lg'inlashdi. – Keling, uni ikkiga bo'lamiz...

– Hecham-da, – tezda uning gapini bo'ldi katta ayol. – Bu yerda qandaydir sabab bo'lishi kerak. Biz buni aniqlamaganimizcha, gullarni buzolmaymiz.

Oradan bir hafta o'tdi. Qishloqdagi bir bolakay juda g'alati tush ko'rdi. Unda chiroyli bir farishta osmondan tushib, chirog'i yoniq uylarga gullar tashlab ketayotgan emish.

– Esingdami, o'sha kuni bizning chirog'imiz o'chiq edi, – dedi katta ayol bu tush haqida eshitgach.

– Tush va gulchambarimiz o'rtasida bir gap bo'lishi kerak, – dedi kichigi ham. – Shu paytgacha keltirilgan gulchambarlar kechasi chirog'i yoniq bo'lgan xonadonlarga nasib qilgandi.

– Menimcha, biz umidimizni uzmasligimiz kerak, – dedi ular birgalikda. – Uyimizning umid chirog'ini o'chirmasligimiz kerak...

Ular gulchambarini o'sha qo'shni ayolga olib chiqib berishdi.

* * *

Umid oltin belbog'ida samoga qaytib tortib olindi. Yulduzlar guruhi uni kutib olish uchun o'z madhiyalarini kuylashdi. Sevgi yulduzi esa umidning peshanasiga yangi gulchambar bog'ladi. Yulduzlar bayrami boshlandi. Ular Umidning sog'-omon yonlariga qaytganidan mamnun edilar.

Shundan so'ng Umid yulduzi osmondagi eng yorqin yulduzga aylanibdi. Uning peshanasi hamisha porlab turishidan osmon nurli oshyonga aylangan ekan. Odamlar esa shundan so'ng umid qilib yashashga o'rganishibdi.

SOVG'A

Yetti yashar qizim Tamiko shu kunlarda juda xursand. U Yangi yil kirib kelishini va Qorbobo hammaga sovg'a ulashishini intiq bo'lib kutmoqda. Bugun Tamiko maktabdan qaytib oq, xonasiga kirib olarkan, hech kim kirmay turishini iltimos qildi. Bilishimcha, uning qo'li to'la sovg'a edi. Birozdan so'ng u eshikni ochdi va o'ralgan sovg'alarini archa tagiga terib qo'ydi. Erim bilan asta ularga ko'z yugurtirdik. Tamiko sovg'alarining ustiga „Onamga“, „Otamga“ hamda „Ukamga“ deb yozib qo'ygandi. Mamnun holda qizimning boshini siladim. Bir payt mening sovg'am orqasida turgan yana bir qutiga ko'zim tushdi. Tamiko unga „Buvimga“ deb yozib qo'ygandi. Yuragim zirillab ketdi.

Qizimning umidbaxsh ko'zlariga termilib, nima deyishni bilmay qoldim.

– Axir, hamma sovg'asini ochgani keladi-ku, to'g'rimi, oyi? – dedi u ilinj bilan.

Gap shundaki, uning buvisi bundan to'rt hafta ilgari olamdan o'tgandi. Hammadan ko'ra buvisini yaxshi ko'radigan Tamikoning bu tuhfasidan uyimizga onamiz qaytgandek bo'ldi.

KOINOT SOVG'ASI

Ular kosmoportga Yangi yildan bir necha kun oldin yetib kelishdi. Bu bolakayning kosmosga ilk sayohati edi; avval hecham raketaga chiqmagandi. Ota-ona esa bu sayohat ko'ngilli o'tishi uchun harakat qilishardi. Mana, ular Yerni tark etishmoqda, bojxona to'sig'idan o'tar ekanlar, u yerda yasatib qo'yilgan archa va uning ajoyib chiroqchalari ko'zlarini qamashtirardi. Kosmos sayohati go'yo ulardan bayram quvonchi, Yangi yil shukuhini olib qo'yayotgandek tuyuldi.

Bolakay kutish zalida o'tirardi. Ota-onasi esa Xalqaro sayyoralar idorasi xodimi bilan tortishib, tinkasi qurigan holda bolaning yoniga kelishdi.

– Endi nima qildik?

– Qo'limizdan hech nima kelmaydi.

– Qonun-qoidalari bir tiyinga qimmat!

– Axir, u yerda archasiz bayram bo'ladimi?

Ota-onasining bu kabi hayqiriqlari tinmay turib, Marsga uchadigan raketa sirenasi ham chalindi. Bola ota-onasining ortidan ergashdi. Hamma jim edi.

– Bir nima o'ylab toparman, – dedi nihoyat ota.

– Endi archasiz nima qilamiz, dada?

Raketa dvigateli ishga tushdi, bir silkindi-yu, ortidan olov chiqarib Yerni tark etdi. Bugun 2052-yil 24-dekabr sanasi edi. Raketa esa vaqt hukm surmagan; na oy, na yil va na soat bo'lgan makonga uchib ketdi.

Birinchi kun ular to'liq uxlashdi.

Otaning soati Nyu-York vaqtini ko'rsatib turardi. Bola raketada zerikdimi, otasiga so'z qotdi:

– Illuminatordan qarashni istayman.

Raketada faqat bitta illuminator oyna bor edi. U yuqori palubada joylashgan juda katta oyna edi.

– Hozir emas, – dedi otasi, – keyinroq hammamiz borib tomosha qilamiz.

– Lekin qayerda uchayotganimiz men uchun qiziq-da.

– Sal kuta qol, o'g'lim.

Ota o'g'liga atab qo'ygan sovg'a va chiroqlar bilan yasatilgan archa Yerda qolib ketganidan xijolat tortardi. Endi unga nima sovg'a qiladi? O'yla! Taxminan, u topdi! Axir, Yangi yilni kosmosda kutib olish haqiqiy shodlikka aylanishi kerak.

– O'g'lim, yarim soatdan keyin Yangi yil kirib keldi, – jilmaydi ota.

– Oh, – dedi ona. U o'g'li zora bayram haqida esidan chiqarsa, deb umid qilgandi.

Bolakay jonlanib qoldi.

– Bilaman, bilaman! Menga Yangi yil sovg'asini berasizlar-a? Archa ham... va'da bergandingiz.

– Ha, ha, albatta, sovg'am bor, umringda ko'rmagan-san bunaqasini, – dedi otasi.

– Lekin... – ona esa hech nimani tushunmasdi.

– Men o'ylab qo'ydim. Bu eng a'lo bayram bo'ladi. Hozir esa bir joyga borib kelishim kerak.

Otasi yigirma daqiqalardan so'ng jilmaygancha qaytib keldi.

– Bayramga oz qoldi!

– Soatingizga qarab tursam maylimi? – so'radi o'g'li. Soatni olgach esa undan ko'zlarini uzmay turdi.

– Ana Yangi yil, Yangi yil keldi! Sovg'alar vaqti yetdi!

– Yura qol, – ota uni yo'lak bo'ylab yetaklab, tepaga olib chiqdi. Ayol ham ularning ketidan odimladi.

– Hozir ko'rasan, kelib qoldik.

Ular katta yopiq eshik qarshisida to'xtashdi. Ota uni uch marta taqillatdi. So'ngra yana ikki marta. Eshik ochildi. Xona zim-ziyo bo'lib, qandaydir ovozlar kelib turardi.

– Kir, o'g'lim.

– Qorong'i-ku?

– Qo'lingdan ushlab boraman, yur sen ham, oyisi.

Ular ichkariga kirishdi, eshik yopildi. Ularning qarshisida ulkan oyna. Undan koinot yaqqol ko'rinib turardi. Bolakay tashqariga tikilib qoldi. Xona bo'ylab Yangi yil qo'shig'i tarala boshladi.

– Yangi yil bilan, azizlarim! – dedi ota.

Bola asta oynaga yaqinlashib, yuzini muzdek shishaga bosarkan, kosmosga qarab to'ymas, chunki u yerda haqiqiy Yangi yil bo'layotgandi. Milliard-milliard yulduzlar archani bezab turgan chiroqlar edi go'yo, cheksiz samo esa ko'm-ko'k archa kabi tovlanardi. Bunday ulkan bayram sovg'asini ko'rmagan bolakay esa hayrat dengizida suzardi.

YOZGI KO'YLAKDAGI QIZLAR

Ular Brevutni tark etib, Vashington maydoni tomon yayov yurib ketayotganlarida beshinchi ko'cha saxiy quyosh nurlari ostida yorishib yotardi. Hatto, noyabr kelganiga qaramay, hali kun ancha iliq, atrofda esa yakshanba tongi nafasi ufarar edi: ravon g'uvullagancha oqayotgan avtobuslar oqimi, po'rim kiyinib olgancha juft-juft bo'lib qo'ltiqlashgan yoshlar va boshqa odamlar, nihoyat, osuda dam olmoqlik uchun deraza-tuynugi mahkam tambalab olingan jimjit binolar – bularning bari hordiq chiqarish kunining yorqin lavhalari bo'lib, butun tevarak-atrofga maroqli kayfiyat va yoqimli huzur bag'ishlab turardi.

Mana shunday zarrin oftob nurlari ostida shahar chetidan o'tib borisharkan, Maykl Frensisning qo'lidan mahkam ushlab oldi. Yoshlar kayfiyati rosa chog' bo'lib, yuzlarida tinmay nimtabassum jilva qilar, negaki kecha kechqurun uyquga biroz kech yotishganiga qaramay, tinqib uxlab, yaxshilab nonushta qilishgan, buning ustiga bugun yakshanba edi. Maykl yo'l-yo'lakay paltosining tugmalarini yechib tashladi va kiyimi mayin kuz shamolida hilpirab ketishiga qo'yib berdi. Har ikkisi ham bir so'z demay, jim ketishar, Nyu-Yorkning aholisi eng ko'p, gavjum joylarida hatto tanish yosh chehralar ro'para bo'lgan kezlarda ham og'iz ochishmasdi.

– Hoy, ko'zingga qarasang-chi, – dedi Frensis to'satdan ular sakkizinchi ko'chani kesib o'tayotgan mahal, – bo'yningni sindirib olmagin tag'in.

Maykl qizning bu gapiga birdan qattiq kulib yubordi. Frensisning o'zi ham unga qo'shilib kuldi.

– Baribir unchalik ko'zni oladigan darajada jonon emas ekan-ku, – deya davom etdi Frensis kulib, – har holda, unga qarayman, deb ortingga o'girilib, bo'yningni sindirib olishga loyiq ketvorgan emas-da! Axir buncha qaramasang unga?!

Maykl tag'in kuldi. U bu gal oldingisidan qattiqroq kuldi, lekin kulgisi unaqa tabiiy chiqmadi. Chunki uning ko'z oldida boyagina ko'rgani – kuz kunlarida ham yengil yozgi ko'ylagini hilpiratgancha o'tib ketgan soddagina hurkak qiz paydo bo'lgandi.

– Qo'ysang-chi bunaqa bema'ni gaplarni! Qolaversa u qiz unaqa xunuk emas, popukdekkina edi. Oddiy bir qishloqi oyimqiz ekan-da, nima qipti shunga? Xo'sh, unga qarayotganimni qayerdan bila qolding?

Frensis javob berish o'rniga boshini bir yonga silkidida, chetlari ajabtovur tarzda bezatilgan shlapasi ostidan eriga yovqarash qildi:

– Mayk, azizim...

Maykl xuddi kichkina bolakayga jo'rttaga yengitib bergan katta odam kabi yupatuvchi ohangda kuldi. – Mayli, mayli, juda soz, – dedi u xotini ko'nglini og'ritadigan bironta gap aytishdan cho'chib. – Izohga o'rin yo'q. Meni kechir. U shunchaki bir qiz edi, xolos. U sen Nyu-Yorkday ulkan shaharda ko'rib yuradigan doimiy oliy toifa chehralardan emasdi. Kechir meni.

Frensis erining qo'liga yengilgina urib qo'ydi-da, uni tortqilagancha Vashington maydoni tarafga sudrab ketdi.

– Bugun ajoyib tong, – deya xitob qildi u birozdan soʻng, – qara, bu eng ajoyib tong! Bilasanmi, sen bilan ertalabki nonushtani birgalikda qilsam, butun kun davomida maza qilib yuraman.

– Aha, bu tetiklashtiruvchi eng zoʻr vosita ekan-ku-a? – shoʻx ovozda hazillashdi Maykl xotiniga yuzlanib. – Tonggi pardoz ham. Mayk bilan shirin pahlavalar hamda qaynoq qahva sening kunlaringni xush oʻtkazish uchun eng zoʻr vosita! Qoyil!

– Ayol kishi uchun bu eng katta baxt-ku axir. Sen tun boʻyi uxladings, men esa seni yoʻqotib qoʻymaslik uchun arqondek eshilib chor-atrofigingni oʻrab yotdim.

– Haa, osuda shanba oqshomi, – dedi choʻzib Maykl oʻtgan tunni eslashga uringan qiyofada, – mayli, bunaqa tizginlaringga izn beraman. Faqat oʻzing qiynalib qolmasang boʻldi.

– Menga qiyin boʻlgani – sen kundan kunga ayiqdek semirib ketyapsan. Axir bu ketishingda menga atrofigingni qoʻriqlash oson boʻlmay qoladi.

– Nahotki? Rost aytyapsanmi? Nima, sen bir vaqtlar Osiyodan kelgan koʻrkam yigitni esingdan chiqardingmi?

– Nega endi? Esimda turibdi, – dedi Frensis boshini magʻrur koʻtargancha hazil aralash, – faqat, menga xuddi oʻsha yer maʼqul kelgandi-da!

– Va menga ham! Xuddi oʻsha xotin maʼqul edi, – javob qildi Maykl ham boʻsh kelmasdan.

– Kallamga bir fikr kelib qoldi, Mayk, – dedi Frensis birdan jonlanib.

– Mening xotinimda fikr uygʻondi. Oʻsha koʻrgan qizim haqida emasmi tagʻin?

– Kel, – dedi Frensis erining gaplariga eʼtibor bermasdan, oʻzining qizgʻin fikrini bajon-u dil quvvatlagan holda, – kel, Mayk, bugun biz kun boʻyi hech kim-

ni ko'rmaymiz, ko'zlarimiz faqat bir-birimizda bo'ladi! Faqat sen-u men... Hech kim bilan ishimiz bo'lmaydi, atrofga zig'ircha ham parvo qilmaymiz, boshqalar nima qilyapti, nima deyapti, ko'rmaymiz, eshitmaymiz, bugun faqat ikkimizgina yashaymiz. Nima deysan, sen gaplarimga tushunding-a, Mayk?

– O-hoo! – dedi Maykl xotiniining yangi g'oyasidan behad ajablanib. – Oliy g'oyalar hukindori! Nahot atrof-dagi odamlar biz uchun hech kim bo'lmasa? Nahot biz tanigan va bilgan yoxud yoqtirgan odamlarimizni indamay betarq qoldirib ketaversak?

– Unaqa emas. aqlli bo'lsang-chi, Mayk! – dedi Frensis astoydil ranjib. – Men jiddiy aytyapman axir.

– Yaxshi, men ham jiddiy eshityapman.

– Men o'z qaylig'im bilan kun uzog'i sayr-u sayohat qilmoqchiman. Men uni tanho mengagina gap qotishini va, shuningdek, yolg'iz meningina tinglashini istayman! Axir, buning nimasi yomon? Sen meni zig'ircha ham tushunmayapsan, chunki doim o'zingni o'ylaysan...

– Xo'p, bizni bundan nima to'xtatyapti? – dedi Maykl xotini yosh boladay xafa bo'lganidan ensasi qotib. – Kim yakshanba kunlari o'z xotinimga qarashga monelik qiladi? Gapir-chi, kim?

– Jin ursin o'sha Stivensonlaringni! – deb yubordi Frensis qizishib, – ular bizni naq yarim tungacha uxlatishmadi, ustiga-ustak butun qishloq qizlarini bazmga yig'ib kelishibdi.

– Haa, yaramas Stivensonlar, – dedi Maykl birdan ma'yus tortib, – yashashni bilishar ekan yaramaslar. Bemalol hushtak ham chalishar ekan, bemalol qattiq kulib, xaxolashar ekan. Birov ayb qilmasin, deb nafasiniyam o'ta madaniy tarzda olishmas ekan, bizga o'xshab. Ozod va erkin Stivensonlar! Lekin biz boshqacha odam, oliy

davra kishilarimiz. Men va xotinim ulkan Nyu-Yorkda kibrorlardek yashab, to' ko'nglimiz aynib ketgunigacha faqat bir-birimizdan ko'z uzmay, butun umrimizni ana shu tarzda o'tkazishimiz kerak.

– Nima, bu hayot emasmi? – dedi Frensis erining yuziga hayron bo'lib boqqancha.

– Hayot, – dedi Maykl xotiniga qaramasdan.

Shunda Frensis bo'ynini cho'zdi-da, Mayklning qu-log'i uchidan ohista o'pib qo'ydi.

– Hayotim, – dedi Maykl miyig'ida achchiq kulim-siragancha, – axir, biz yana beshinchi ko'chaga borib qolibmiz-ku!

– Oh! Shoshma, shoshmay tur, – dedi Frensis hovliqqan ko'yi, – mana, hozir men qaytadan yangi reja tuzib chiqyapman. Mana, qara, sevishgan ikki yosh uchun Nyu-Yorkda tashkil etilgan yakshanba kunlari! Eng muhimi, ularning bermalol yayrashlari uchun pullari ham ko'p! Qalay, Maykl?

Maykl bu gal kulmadi, u endi anchagina jiddiy tortib qolgandi. Yigit ayolga biroz jim tikilib turdi-da, keyin qat'iyat bilan javob berdi:

– Yo'q, bu yorug' dunyoda pulsiz muhabbat ham bor.

DUNYODAGI ENG BAXTLI ODAM

Jessi yig'lab yuborishga ham tayyor edi. U Tomni telefondan bo'shashini kutaverib xunob bo'lib ketdi. Tom uning pochchasi. Holi xarobligidan o'zining ham yuragi ezilib o'tirardi.

To'g'ri, ular besh yildan buyon bir-birlarini ko'rishmagandi, ammo Tom hozir besh yoshga ulg'ayganday ko'rinar, bor farq shunda, xolos. U hali ham Tomligicha turibdi-ku. Xudoyim-ey! Yo u shunchalar o'zgarib ketganmikan?

Nihoyat, Tom Braket telefon go'shagini joyiga qo'ydi. U o'rindig'iga yastangancha o'tirarkan, gumondor va sovuq boquvchi kichkinagina tiniq moviy ko'zlari bilan Jessiga bir qur ko'z yugurtirib chiqdi. U qirq besh yoshlardagi basavlat erkak bo'lib yetilgandi. Braket o'tkir biznesmenga o'xshab ko'rinar – uning asl kasbi ham shunday edi. U Jessiga vaqtini ketkazishga arzimaydigan odamga qaraganday sovuq bepisandlik bilan ko'z tashladi.

– Xo'sh? – deb qoldi Braket to'satdan. – Xizmat?

– Meni tanimading chog'i, Tom, – deb o'ng'aysizlandi Jessi. – Men Jessi Fultonman. Ella senga salom aytib yuborgandi.

Braket o'midan turdi-da, chaqirilmagan mehmoni bilan yuzma-yuz bo'lish uchun u tomonga bir-bir bosib

keldi. U esiga tushgan qiyofani topishga harakat qilib Ful-tonni boshdan oyoq ko'zdan kechirdi.

– Ha, rostdan ham Jessi ekansan, – dedi Braket oxiri. – Lekin juda ham o'zgarib ketibsan.

– Yo Rabbim, axir oradan besh yil o'tib ketadi-yu, o'zgarмай bo'larkanmi? – dedi Jessi. – Buning ustiga sen meni faqat bir-ikki bor ko'rgan bo'lsang kerak. O'zgarмай qolarmidim? Hamma ham o'zgaradi-ku, to'g'rimi?

– Sening qarashlaring jiddiy edi, – deya so'zida davom etdi Braket mayin, ajabsingan ohangda. – Sezishimcha, biroz ozgandaysan?

Jessi miq etmadi. U Braket uning jig'iga tegish uchun o'zini har ko'ysga solayotganini fahmlab turardi. Biroq burgaga achchiq qilib ko'rpani kuydirishdan foyda yo'qligi sababli o'zini og'irlikka olardi. Sukunat cho'zilgan sayin Jessining ichini it tataladi. Braketning vijdoni uyg'on-di chog'i, tuyqundan mulozamat yo'lga o'tib oldi:

– Qani, o'tir-chi. Yaxshi kelibsan-da, kuyov, – u Jessi-ning qo'lidan tutib, qisib qo'ydi. – Seni ko'rganimdan xursand bo'ldim; hech narsani o'ylama! Negadir ko'zimga siqilganroq bo'lib ko'rinyapsan.

Hammasi joyida, – deb ming'illadi Jessi. U stulga o'tirarkan, barmoqlari bilan jingalak sochlarini taroqlagan bo'ldi.

– Nimaga oqsoqlanyapsan?

– Bitta toshni bosib olgandim; qirrası tuflimning tagini teshib yubordi.

Jessi oyoqlarini stulning tagiga tortdi. U tuflilaridan uyalayotgandi.

Braket bo'lsa Jessining oyoqlaridan ko'zlarini uzmay o'tirardi. U kuyovining ko'nglidan nimalar kechayotganini anglab turar, unga qarab yuragini achinish hissi qoplab borardi.

– Ha mayli, qulog‘im senda, – deya so‘z boshladi Braket, – hayotingdan gapir. Ella qalay?

– O, u o‘ynab-kulib yuribdi, – deb javob berdi Jessi parishonxotirlik bilan. Uning mayin boquvchi kulrang ko‘zlari bilan uyg‘unlashib ketgan yumshoq, itoatkorona, anchagina tortinchoq ohangli ovozi bor edi.

– Bolalar-chi?

– O, ular ham zo‘r... Bilasanmi, – endi biroz qat‘iyat bilan ilova qildi Jessi, – kenjatoyimiz tasma (ikki yelkasi-dan o‘tkazilib shimga taqiladi) taqadigan bo‘lib qolibdi. Bilasan, u o‘zi pul topolmaydi. Ammo juda ham uddaburon. Rasmlar soladi, u-bu ish qo‘lidan keladi, bundan sening ham xabaring bor.

– Ha, – deb ma‘qullab qo‘ydi Braket. – Bu ishlari yaxshi. U ikkilanib qoldi. Oraga bir nafaslik jimlik cho‘kdi. – Jessi, Ella menga ishlaring yomonligi haqida aytganida, ehtimol, senga yordam bergan bo‘larmidim.

– Xudo sendan rozi bo‘lsin, – Jessi mayin ohangda minnatdorchilik bildirdi. – Sening ham ishlaring boshingdan oshib yotibdi-ku, to‘g‘rimi?

– To‘g‘ri. – Braket o‘rindig‘i orqasiga suyandi. Uning qizg‘ish yuzlari g‘amgin va achinarli tus oldi.

– Tom, quloq sol, – deya muddaoga o‘tdi Jessi. – Men bir maqsad bilan bu yerga kelgandim. U yana barmog‘i bilan sochini tarab qo‘ydi.

– Menga yordam berishingni istayman.

Braket shu gapni kutayotgandi.

– Men ko‘p pul berolmayman. Haftasiga o‘ttiz besh dollar topaman, xolos, bungayam o‘lganim kunidan shukr qilib, bir amallab yashab kelyapman.

– Albatta, bilaman, – hayajonlanib ta‘kidladi Jessi. Uni tag‘in tong-sahardan beri yuragini egallab yotgan yovvoyi g‘ulg‘ula chulg‘ab oldi.

– Bilaman, sen bizga pul tomonlama ko'mak berolmaysan. Lekin biz sening qo'lingda ishlaydigan bir kishi bilan ko'rishib qoldik! U bizning shahrimizga kelgan ekan. O'sha kishi seni menga birorta ish topib bera oladi deb aytgandi!

– Kim aytgandi?

– O, nima uchun shuni menga sen o'zing aytmaganding? – Jessi mana endi ginaxonlik bilan yorildi. – Nimaga aytmading, axir men bu gapni eshitganim zahoti yo'lga chiqqandim. Mana, ikki haftadirki, xuddi devonaga o'xshab yo'l yurib keldim.

Braket baland ovozda ingrab yubordi.

– Sen meni ish bera oladi, degan umid bilan Kanzas Sitidan ikki hafta ichida yetib keldingmi?

– Bo'lmasam-chi, Tom, albatta-da. Qo'limdan boshqa nima ham kelardi?

– Jessi! Hozir o'lik mavsum. Ustiga-ustak sen bizning ishimizni neft bilan bog'liq ekanligini ham tushunmaysan. Bu esa juda muhim. Mening bu yerda ham do'stlarim bor, biroq ular ayni damda hech narsa qilib berisholmaydi. Men senga imkoniyat tug'ilishi bilanoq ish aytgan bo'lardim, shu o'y sening ham kallangga kelmadimi?

Jessi dod deb yubordi.

– Lekin, quloq solsang-chi, o'sha odam seni odam yollaydi, deb aytdi! U sening qo'lingda yuk mashinasini haydarkan! Senga har doim erkaklar kerak bo'lar ekan!

– Oh!.. Sen idoramni nazarda tutyapsanmi? – deb so'radi Braket past ovozda.

– Ha, Tom. Shuni aytyapman!

– O, yo'q, sen idoramda ishlashga chiday olmaysan, – Braket unga o'sha past ovozda man qildi. – Sen uning nima ekanligini bilmaysan ham.

– Yo'q, bilaman, – Jessi o'z fikrida qat'iy turib olgandi. – O'sha erkak menga barini tushuntirib berdi, Tom. Sen yuk jo'natuvchisan, shundaymi? Sen chetga dinamit ortilgan yuk mashinalarini chiqarasanmi?

– Sen aytayotgan o'sha odam kim edi, Jessi?

– Everet, Everet edi, yanglishmasam.

– Egbertdir balki? Mening gavgamdagi erkakmi? – deb so'radi Braket ohista.

– Ha, Egbert ekan.

– Albatta, ish bor. Agar istasang, hatto o'sha Egbertning ham joyi bo'sh turibdi.

– U ishdan ketdimi?

– Yo'q... o'ldi!

– Oh!

– Ish paytida o'ldi, Jessi. Judayam bilging kelayotgan bo'lsa, bu ish o'tgan tunda sodir bo'ldi.

– Oh!.. Nima bo'lsa bo'lavermaydimi, lekin menga baribir!

– Unday bo'lsa, meni eshit! – dedi Braket. – Men senga kelishingdan avval so'rashing lozim bo'lgan bir-ikkita narsalarni aytib qo'yay. Sen haydaydigan yuk mashinasidagi dinamit emas. U nitroglitserin!

– Lekin bundan mening xabarim bor edi, – dedi Jessi uni tinchlantirib. – O'sha Egbert menga maslahat bergandi, Tom. Meni hech narsadan xabari yo'q ekan, deb o'ylama.

– Bir daqiqaga ovozingni o'chirib tursang-chi, – deb buyurdi Braket g'azab bilan. – Eshit! Sen shunchaki bu nitroglitserin sho'rvasiga bir nazar solib ko'rding, tushundingmi? Sen shunchaki qattiq yo'talganding, shundan keyin bu sho'rva qaynab, mana endi toshib ketyapti.

– Meni eshitsang-chi, Tom.

— Hozir, bir lahzaga shoshmay tur, Jessi. Bifaman, ishga o'lguday muhtojсан, biroq sen tushunib olishing kerak. Bu mahsulot faqatgina maxsus mashinalardagina ketadi. Qoq tunda! Ular maxsus yo'nalish bo'yicha qatnaydi! Birorta ham shahar ichidan o'tisholmaydi! Buning qanday ish ekanligiga aqling yetib turibdimi?

— Men ehtiyotkorlik bilan haydayman, — dedi Jessi. — Men yuk mashinasini qanday qilib boshqarishni bilaman. Sekin haydayman.

Braket oh tortdi.

— Sen Egbertni ham ehtiyotkorlik bilan haydamagan yoxud yuk mashinasini qanday boshqarishni bilmagan deb o'ylayapsanmi?

— Tom, — dedi Jessi shiddat bilan. — Sen meni qo'rqitolmaysan. Men miyamga faqat bitta gapni mixlab oldim! Egbert aytdiki, har bir mil yo'l uchun bir dollardan ishlar ekan. U „Yarim oylik xizmatim uchun bir oyda besh yuz-olti yuz dollardan topardim“, deb aytdi. Men ham aynan shunday haq olamanmi?

— Albatta, shunday olasan, — dedi Braket unga vajohat bilan. — Bir mil uchun bir dollar. Juda oson-a. Biroq nima sababdan sen kompaniya buncha ko'p to'lashi kerak deb o'ylayapsan? Osonligini qara — xuddi Egbertga o'xshab old chiroqlarni yoqquningcha qandaydir toshni bosib ketasan. Yoki bo'lmasam, ko'zingga nimadir kirib ketadi-da, g'ildirak aylanib ketib, mashinaga shikast yetkazasan! Xudo biladi, tag'in yana qanday ko'rgilik yuz beradi! Biz Egbertga qanday kor-hol yuz berganini aniqlay olmadik. Biror-bir dalil beruvchi hech qanday mashina yo'q edi. Hech qanday murda ham topilmadi. Hech vaqo yo'q! Ehtimol, erta bir kun kimdir makkajo'xori dalasidan bir parchagina majaqlangan po'lat topib olar. Lekin bari-bir biz hech qachon haydovchini topolmaymiz. Bor bil-

ganimiz, u jadval bo'yicha yetib kelmadi. Keyin politsiya bizni chaqirishini kutib turdik. O'tgan tunda qanday voqea yuz berganini tushundingmi? Ko'prik ustida qandaydir bir ishkallik chiqibdi. Balki, Egbert tajang bo'lib turgandir. Balki, u bir tomonga mashina g'ildiragining qanoti bilan borib solgandir. Endi bo'lsa hech qanaqa ko'prik ham, mashina ham, Egbert ham yo'q. Endi tushungandirsan? Bir mil yo'l uchun o'sha Xudo urgan bir dollarni qanday qilib topish yo'li shu bo'ladi!

O'rtaga bir lahzalik sukunat cho'kdi. Jessi uzun, ingichka harmoqlarini bukib-yozgancha jim o'tirardi. Uning og'zi ochilib qolgan, yuzi esa alamdand burishib ketgandi. Bir mahal ko'zlarini yumdi-da, ohista so'zlay boshladi:

– Mening nima balo bo'lgani bilan ishim yo'q, Tom. Sen hammasini tushuntirib berding. Endi esa menga bir saxovat ko'rsatib, ish bersang.

Braket qo'lini tugib, stoli ustiga qahr bilan qattiq musht tushirdi.

– Yo'q.

– Quloq sol, Tom, – dedi Jessi bechora holda, – Sen shunchaki tushunishni istamayapsan-da. U ko'zlarini ochdi. Uning ko'zlari yosh bilan to'lib qolgandi. Bu nigoh Braketni undan yuzini o'girishga majbur qildi. – Menga bir qaragin-a, Tom. Senga iltijolarim kamlik qildimi? Tom, men ortiq bu ahvolda yashayolmayman, tushungang-chi axir!

– Sen aqldan ozibsan, – deb ming'illadi Braket. – Har yili beshta haydovchidan bittasi o'ladi. Bu o'rtacha ko'rsatkich. Shuni havas qilib keldingmi?

– Ayni damdagi mening hayotim havas qilgulikmidi? Biz uyda shundoqqina ochlikdan qurbon bo'lyapmiz, Tom!

– Buni menga ilgariroq aytishing kerak edi, – deya xitob qildi Braket cho'rt kesib. – Bu sening aybing. Odam

oilasi och turganida soxta dabdaba bilan yurishga aslo haqqi yo'q. Men birontasidan ozroq pul qarz olib turaman-da, uni Ellaga telegraf qilib jo'natib yuboramiz.

– Xo'sh, keyin nima bo'ladi?

– Keyin kutib turasan. Qarib qolganing yo'q. Bu hayotingdan yuz burib ketishga haqqing ham yo'q. Biror kun ish ham topib olarsan.

– Yo'q! – Jessi o'rnidan sapchib turib ketdi. – Yo'q! Oldinlari bunga ishonardim. Ammo endi ishonolmayman, – baqirdi u kuyib-yonib. – Sen yuragimdagi birdan bir umidimsan.

– Aqldan ozyapsan, – ming'illadi Braket yana. – Men bunday qilolmayman. Xudo haqi, bir lahzaga bo'lsin Ellani ham o'ylasang-chi axir.

– Uni deb qayg'urayotganimni bilmayapsanmi? – so'radi Jessi ma'yus. U Braketning yengidan tortdi.

Braket oyoqqa qalqdi.

– Sen Ella to'g'risida o'ylayapman, deyapsan. O'lib ketsang, uni qay holga tushishini ham o'ylayapsanmi?

– Balki, o'lib ketmasman. – iltijo qildi Jessi. – Ba'zan omadim ham kulib turadi.

– Hamma ham shunaqa deb o'ylaydi, – javob qildi Braket e'tiborsizlik bilan. – Bu ishni boshlashing bilan omading ham so'roq belgisi bo'lib qoladi. Bir narsa aniqki, ertami-kechmi, baribir seni o'ldirib ketishadi.

– Unaqa bo'lsa ham mayli, roziman, – deb baqirdi Jessi unga javoban. – Lekin bu orada biror nimali bo'lib qolarman, to'g'rimi? Jiila qursa bir juft oyoq kiyim sotib olarman. Menga qara! Bitta kastum qancha turadi? Sigara chekishga pulim yetar hech bo'lmasa. Bolalarim uchun biror shirinlik xarid qilaman. O'zimning og'zimga ham biror nima tegib qolar. Ha, Xudo haqi, biroz shirinlik yegim kelyapti. Kunda bir mahal bir stakan pivo ichishni

xohlayman. Ellani yasantirib qo'yishni ham. Unga haftada uch marta, ehtimol, to'rt marta go'sht yedirishni istayman.

Braket joyiga o'tirdi.

– Oh, bo'ldi qilsang-chi, – dedi u.

– Yo'q, – dedi Jessi unga mahzun, ammo jo'shqin ohangda, – sen meni to'xtatib qololmaysan. Eshit, Tom, – u o'tinib so'ray boshladi, – men hammasini o'ylab ko'rdim. Oyiga olti yuz dollardan topsam, qara, qancha pul jamg'arar ekanman! Atigi uch oygina ishlab qo'ysam, qara, qancha pul bo'ladi – ming dollar-a, balki, undan ham ko'proq yoki kamroq ishlarman. Balki, ikki yil ichida Ellaga haqiqiy hayot lazzatini in'om etarman!

– Bu sening fikring, – deya uning gapini bo'lib qo'ydi Braket. – Taxminimcha, sen „Bunaqa ishda ekanman, u maza qilib yashaydi“, deb o'ylaysan-da?

– Men hammasini o'ylab bo'lganman, – javob berdi Jessi hayajonga to'lib. – U bu haqida sira bilmaydi, tushunyapsanmi? Men unga faqat qirq dollar ishlab topayotganimni aytaman. Sen qolgan pulni uning bankdagi hisobiga o'tkazib turasan, Tom.

– Ey, bas qil, – urishib berdi Braket. – Baxtli bo'laman deb o'ylayapsanmi? Har daqiqada, uyg'onganingda ham, uxlayotganingda ham „Ehtimol, ertaga o'lib ketarman“, degan xavotir ichida azoblanib yashaysan.

Jessi kulib yubordi.

– Men baxtli bo'laman! Tashvish qilma, shu qadar baxtli bo'lamanki, hatto kuylab yuboraman. Xudo guvoh, Tom, yetti yil mobaynida birinchi marta o'zimdan o'zim faxrlanib ketyapman!

– Ey, bas qil, bas qil! – deb baqirdi Braket.

Oraga tag'in jimlik cho'kdi. Braket ikkala qo'lini ham boshi uzra ko'tarib, kaftlarini chakkasiga bosdi.

– Tom, Tom, – dedi Jessi.

Braket uh tortdi.

– Oh... yaxshi, seni ishga olaman. Xudo mening mushkulimni oson qilsin. Agar shu kecha yo'lga tayyor bo'lsang, bugun tunda mashina haydaysan.

Jessi javob bermadi, berolmasdi ham. Braket unga qaradi. Jessining yuzidan ko'zyoshlari dumalab tushardi.

– Soat oltida bu yerga qaytib kel, – dedi Braket. – Mana senga ozroq pul. Tuzukroq ovqat olib, yeb olgin.

– Rahmat!.. Rahmat, Tom! – dedi Jessi. – Ha, aytgancha, Tom.

– Nima deysan?

– Men shunchaki, – Jessi gapirishdan to'xtab qoldi. Braket uning yuziga boqdi. Jessining ko'zlari hamon yosh bilan yaltirab turar, biroq yuzi endi yashnab ketgandi.

Braket undan yuzini o'girdi.

– Men bandman.

Jessi ko'chaga chiqdi. Ko'zlaridagi nam ko'rishiga xalal berar, biroq butun dunyo hozir unga tilladay bo'lib yarqirab ko'rinardi.

– Men dunyodagi eng baxtli odamman, – deb shivirladi o'ziga o'zi. – Men butun yer yuzidagi eng... eng baxtli odamman!

YOMG'IRDA QOLGAN MUSHUK

Mehmonxona oldiga kelib tushgan amerikaliklar — er-xotin muhojirlar edi. Ular o'z xonalari tomon yo'l olishar ekan, yo'llarida, zinalarda uchratgan odamlaridan hech qaysisini tanimadilar. Muhojirlarning ko'm-ko'k dengiz tomon yuz tutgan xonasi ikkinchi qavatda joylashgandi. Yana katta bog' bilan bitta urush yodgorligi ham xonaga ro'para yerda edi. Bu ulkan bog' ichida o'sib yotgan bahaybat palma daraxtlari hamda yo'lkalari chetiga o'rnatilgan o'rindiqlar bog' ko'rkiga yanada ko'rk bag'ishlab turardi. Havo soz bo'lgan chog'lar bu yerda kichkinagina ko'rgazma taxtasini ko'tarib olgan qandaydir rassom paydo bo'lib qolar, osmonga behadik bo'y cho'zib ketgan salobatli palma viqori hamda bepoyon bog' bilan dengizga yuzlanib turgan mehmonxona binosining yarqiroq ranglari unga juda manzur bo'lardi. Boyagi urush yodgorligini tomosha qilish uchun ham bu yerga uzoq-yaqindan ko'plab italiyaliklar kelib turishardi. Haykal bronzadan ishlangan bo'lib, yomg'ir ostida yana-da yarqirab ko'rinardi. Ayni chog'da havo tund, sharros yomg'ir quyardi. Palma yaproqlari uchidan ham yomg'ir tomchilari bir-bir tomchilab tushardi. Bog'dagi shag'al yo'lak uzra yomg'ir suvlari katta-kichik halqoblar hosil qilgandi. Bir tomondan cheksiz dengiz betaskin to'lg'onib yotar, jala ostida qolgan asov to'lqinlar dam o'rindiqlargacha urilib kelar, dam o'tmay shashtlaridan

qaytib, tag'in ortga chekinib ketardi. Urush yodgorligi yonida joylashgan maydon ichida turgan turli sayyohlarning yengil mashinalari ham bir zumda bu yerni tark etib jo'nab ketishdi. Chetdagi qahvaxona ostonasida paydo bo'lgan bir oshxona xizmatchisi kimsasiz maydon sathi uzra termilgancha turib qoldi.

Shu payt boyagi amerikalik ayol ham derazadan tashqarini kuzatib turardi. Tashqarida, shundoqqina deraza tagida esa qayoqdandir kelib qolgan kichkinagina bir mushuk o'sha yerda turgan yagona yashil stol ostida shumshayganча zorlanib o'tirardi. Jonivor shalabbo bo'lmaslik uchun zo'r berib g'ujanak bo'lib olishga urinardi.

– Men pastga tushib, anavi mushukchani olib chiqaman, – deb qoldi ayol birdan.

– Men olib chiqa qolay, – taklif qildi karavotda yotgan eri.

– Yo'q-yo'q, o'zim. Bechora mushukча yomg'irdan qochib, stol ostiga o'tirvolibdi, sho'rlik o'zini quruq saqlashga chunonam harakat qilyaptiki!

Eri indamay karavotning oyoq tomonidagi bir juft yostiқ ustiga yastanib olganча yana kitob o'qishda davom etdi.

– O'zing bilasan, faqat ivib ketmagin, – deb qoldi u xotinining orqasidan.

Ayol pastga tushishi bilan mehmonxona xo'jayini yonidan o'tib ketayotgan vaqtda xonimga bosh egib ta'zim qildi. Xo'jayinning ish stoli mehmonxonaning eng uzoq burchagida joylashgandi. U novча bo'yli, yoshi o'tinqirab qolgan bir erkak edi.

– Hozir bu ishni qanday uddalaganimni ko'rasizlar, – deb hovliқdi ayol xo'jayinga qarab qo'yib, negaki mehmonxona sohibi xonimga bir ko'rishdayoq ma'qul bo'lgandi.

– Si, si, signora, brutto tempo¹. Bunaqa ob-havoda tashqariga chiqib bo'lmaydi axir.

Xo'jayin dim xonaning bir burchagidagi stoli ortida javragancha qolib ketaverdi. Xonim uning gapiga quloq solmasdan, yugurgancha tashqariga chiqib ketdi. Shunday bo'lsa-da, ayolga xo'jayin va ayniqsa, uning har qanday shikoyat-u noroziliklarni ham o'ta jiddiy qabul qilishi, salobati va mulozamati, mehmonxona sohibi bo'lish g'ururi, hattoki qari, semiz yuzi bilan bahaybat qo'llarigacha juda yoqib qolgandi.

Mehmonxona egasidan mamnun bo'lgan holda ayol eshikni zarb bilan ochdi-yu, tashqariga qarab qoldi. Yomg'ir yanayam avj olgan edi. Charm yomg'irpo'shiga mahkam o'ranib olgan bir erkak kafe tomonga qarab bo'm-bo'sh maydonni shoshilgancha kesib o'tdi. Haligi mushuk shu atrofda, taxminan o'ng tarafda bo'lishi kerak. Ehtimol, bechoragina birorta o'simlik ostida g'ujanak bo'lib o'tirgandir. Xonim hamon ostonada qadalib turar ekan, boshi ustida soyabon ochilganini payqadi. Orqasida ularning xonasiga xizmat ko'rsatuvchi oqsoch ayol soyabon ko'tarib turardi.

– Siz ivib ketmasligingiz kerak, – deb jilmaydi u ital-yancha so'zlab. Shubhasiz, oqsochni mehmonxona egasi yuborgan edi. Xonim boshi uzra soyabon tutib turgan shu oqsoch bilan to o'zining derazasi ostiga yetib kelguncha shag'al yo'lakcha bo'ylab birga ketishdi. O'sha yashil stol hamon shu yerda turar, u yomg'irda yuvilib, yana-da yashil tusda jilolanardi, ammo uning tagidagi mushuk shu tobda qayoqqadir g'oyib bo'lgandi.

Xonim birdan ma'yus tortdi. Oqsoch ayolga xavotir-lanib qarab qo'ydi:

¹ Lekin, sinyora, havoning avzoyi huzuq (*italyancha*).

– Ha perduto qualche cosa, signora?¹ – deya asta so'radi u.

– Anavi yerda mushuk bor edi, – dedi bazo'r amerikalik xonim.

– Mushuk?..

– Si, il gatto².

– Voy, mushuk deysizmi? – oqsoch qah-qah otib kulib yubordi. – Yomg'irda qolgan mushuk?

– Ha, – dedi xonim g'amgin, – anavi stol tagida o'tirgandi. – Keyin u to'satdan ingrab yubordi. – O, men uni shunchalar xohlagan edimki! O'sha mushukchani shunchalik istovdimki!.. – ayol qattiq afsuslangancha inglizchalab gapirar, oqsoch esa uning niyatini tushunolmay hadeb yuzini tirishtirardi.

– Yura qoling, sinyora, – dedi u. – Ichkariga kirishimiz kerak. Axir, ivib ketasiz.

– Ha, boshqa ilojimiz ham yo'q, – dedi amerikalik ayol nochor.

Ular yana shag'al yo'lakcha uzra ortlariga qaytib, eshikdan kirib ketdilar. Oqsoch soyabonni yig'ib olish uchun bir daqiqa tashqarida qoldi. Ingliz xonim yonidan o'tib ketayotgan onda mehmonxona sahibi unga avvalgiday ta'zim qilib qo'ydi. Lekin bu safar ayolga uning qilig'i erish tuyulib ketdi. Shu bilan birga xo'jayinning bu odati yosh xonimga boyagina qilmoqchi bo'lgan ishining nechog'lik arzimasi va ayni paytda g'oyatda muhim burch ekanligini anglatib yubordi. Ayol eng katta ahamiyatga ega bo'lgan kichkinagina yaxshilikni ham eplab amalga oshirolmagani uchun bir lahza ko'ngli cho'kib turib qoldi.

¹ Biror narsangizni qo'ydingizmi, xonim?

² Ha, ha, mushuk bor edi.

ODDIY SINOV

Tashqarida qor derazani ko'mib yuborguday ko'p yog'gandi. Quyoshning zaif nurlari deraza tirqishlari orala lab kulba ichiga quyilarkan, ayniqsa, kulbaning yog'och devoriga osib qo'yilgan xarita yuzini kuchliroq yarqiratib yuborardi. Oftob tobora yuqorilagan sari shu'lalari ham qor uyumi tepasida shuncha ko'p tovlanardi. Kulbaning bir tomoniga chuqur xandaq kovlab qo'yilgandi. Quyosh charaqlab turgan kunlari nurlar devor ustida turli xil shakl-u shamoyil yasab raqsga tushar, ular xuddi oxirgi sovuq qordan o'ch olmoqchiday bor issiqliklarini mo'l-ko'l to'kishardi. Martning oxirgi kunlari edi. Kulba ichida devorga tirab qo'yilgan stol yonida bir mayor o'tirardi. Stolning narigi tomonidan esa unga hamroh adyutant joy olgandi.

Mayorning ko'zlari atrofida ko'zoynagidan qolgan ikkita oppoq aylana iz paydo bo'lib qolgandi. Yuzining qolgan qismini oftob olib qoraytirgan, o'sha qoraygan tanasi issiq harorat taftida yanayam kuyib ketgandi. Shishinqiragan burni chekkasidagi semiz terisi ham negadir po'rsildoq-po'rsildoq bo'lib yorilib qolgandi. U qo'lidagi gazetalarga tez-tez ko'z yugurtirib chiqar, ayni damda chap qo'lini yonidagi moy solingan likopcha tomon uzatib, barmoqlarini moyga bular va uni butun yuzi bo'ylab yaxshilab surtardi, uning barmoqlari bu vazifani

juda mayinlik bilan bajarmoqda edi. Boshliq qo'llarini likopcha chetiga g'oyatda ehtiyotkorlik bilan olib borar, moy yuqi singib qolmasligi uchun nihoyatda muloyim harakatlanardi, peshanasi bilan ikkala yonog'i yuzasiga ham o'shanday astalik bilan moy surtib olgach, eng oxirida shishgan burni atrofini ham harmoqlari bilan zo'r haf-sala qilib ishqalay ketdi. Nihoyat bu ishini tugatib, mayor sekin o'rnidan turdi-da, moy so'lingan likopchani ko'tarib, dam oladigan xonasi tomon yo'naldi.

— Men biroz mizg'ib olmoqchiman, — deb qo'ydi u adyutantga qarata. Adyutant bu armiyada boshqa harbiylar singari hech qanday buyruqqa javobgar ofitser emas, balki o'z holicha mustaqil bir harbiy edi.

— Sen bemalol yeb-ichib o'tiravergin.

— Mayli, sinyor Maggore, — deb javob bergan bo'ldi adyutant. Shunday dedi-da, u ham stuli orqasiga bor gavdasini tashlab, uzoq esnab qo'ydi. O'zgina vaqt o'tgach, paltosi cho'ntagidan qog'ozga o'ralgan qandaydir kitob olib ochdi-yu, lekin uni darrov stol ustiga tashlab qo'ydi, so'ngra bamaylixtir tamakisini tutaldi. Adyutant tamakini qattiq-qattiq tortib, buruqsitib-buruqsitib tutun chiqardi-da, boyagi kitobni o'qish uchun stol ustiga eringancha engashdi. Ammo baribir o'qishga shashti bo'lmay, tag'in yopdi-yu, qaytarib cho'ntagiga solib qo'ydi. Busiz ham adyutantning bir dunyo ishlari, o'ylaydigan o'ylari ko'p edi. O'sha ishlari bitmaguncha kitob o'qish adyutantning kallasiga sig'masdi. Tashqarida esa mart quyoshi sekin-asta purviqor tog'lar ortiga bota boshlagan, kulba devorlari ustidagi o'ynoqi nurlar raqsi ham ohista-ohista so'nib bormoqda edi. Shu payt xonaga qandaydir bir askar yigit kirib qoldi-da, hech narsa demay, burchakda uyulib turgan qarag'ay shoxlarini

olib, har xil uzunlikda chopgach, pech ichiga birma-bir tashlay boshladi.

– Sekinroq, Penin, – deb ogohlantirgan bo'ldi uni adyutant o'tirgan yeridan. – Mayor dam olyapti.

Penin qorachadan kelgan nimjonroq yigitcha bo'lib, mayorning qo'l ostidagi askarlardan edi. U imkon qadar ovoz chiqarmay o'tinlarni joylagach, pech eshigini yopib, yana kulba orqasiga o'tib ketdi. Adyutant endi gazeta o'qishga tutindi.

– Adyutant! – birdan ichkari xonadan mayorning ovozi eshitildi.

– Nima gap, sinyor Maggore?

– Peninni oldimga kiritib yubor.

– Penin! – o'sha zahoti yigitchani chaqirdi adyutant.

Xonaga Penin kirdi.

– Seni boshliq ko'rmoqchi.

Yigitcha indamasdan katta xona orqali o'tib, mayor eshigi oldiga keldi. Qiya ochiq turgan eshikni qo'rqa-pisa ikki marta taqillatgan bo'ldi.

– Sinyor Maggore?

– Kiraver, Penin, – adyutant mayorning boshliqlarga xos buyruqomuz ohangini eshitdi. – Eshikni orqangdan yopib kir.

Ichkarida mayor o'zining devorga o'rnatilgan karavotini to'ldirib, yoyilib yotardi. Boshining tagiga allanarsalar solingan rukzagini yumaloq-yostiq qilib qo'yib olgandi. Boshliqning uzun, oftobda kuygan, yog'langan semiz yuzi yosh askarga boqdi. Penin mayorning adyol ustiga uzala tashlangan jundor, baquvvat qo'llari tarafga ko'zlarini olib qochdi.

– Yoshing o'n to'qqizdami, Penin? – deb so'radi mayor yigitchaning chehrasiga diqqat bilan razm solarkan.

– Shunday, sinyor Maggore.

– Hmm, shunaqa degin, – deb qo'ydi mayor jiddiy qiyofada. Keyin yana o'shanday ohangda ta'kidlagannamo qilib savol berdi: – Umringda hech sevib ko'rganmisan?

– Meni kechirasiz, bu gapingizga tushunolmay qoldim, sinyor Maggore'?

– Men sevganmisan, deb qizlarni nazarda tutyapman?

– Ha, qizlar bilan gaplashib turaman.

– Yo'q, tushunmayapsan, men sendan buni so'ramadim. Men sendan biror-bir qizga ko'ngil qo'rganmisan, deb so'radim.

– Albatta, sinyor Maggore.

– Haa, demak, hozir kimnidir sevasan, shundaymi? Unga xat ham yozib turar ekansan. Men hamma xatlarini o'qib chiqdim.

– To'g'ri, men rostdan ham bitta qizni yaxshi ko'raman, – deb tan oldi Penin, – ammo unga birorta ham xat yozgan emasman.

– Yo'g'-ey, aniq yozmaganmisan?

– Ha, gapim rost, aniq yozmaganman.

– Adyutant! – mayor xuddi avvalgi ohangini buzmasdan ofitserni chaqirdi. – Mening gaplarimni eshitib turibsanmi sen?

Narigi xonadan hech qanday javob kelmadi.

– U bizni eshitmaydi, – deb qo'ydi mayor Peninga qarab. – Xo'sh, demak, sen o'sha qizni chindan ham sevishingga ishonasan?

– Ishonaman, sinyor Maggore.

– Unday bo'lsa, – mayor askarning yuziga bir qur ko'z yugurtirib oldi, – sen hech qanday axloqsizlik ham qilmagansan?

– Sizning axloqsizlik, deb nimani nazarda tutgani-gizni bilolmadim, sinyor.

– Yaxshi, juda soz, – deya xulosa chiqargan bo'ldi mayor o'zicha, – u holda sendan hech qanaqa boshliq chiqmas ekan.

Penin boshini egib, ko'zlarini polga qadadi. Mayor uning qoracha yuzlariga, oriq qo'llariga, ozg'in gavdasiga boshdan oyoq bir-bir qarab chiqdi. So'ngra yana avvalgiday jiddiy tarzda gapida davom etdi:

– Demak, sen chin dilingdan istamayotgan ekansan, – mayor sukut qildi. Penin hamon poldan ko'z uzmay turardi. – Eng buyuk orzuying haqiqiy emas ekan unda, – Peninning ko'zlari hali ham polda edi. Mayor gapdan to'xtab, askarlik xaltasi ustiga suyandi-da, jilmaydi. U yurak-yuragidan yengil tortgandi. Armiyadagi hayot jiddiy hayot ekan, u yoshlarni bulg'amay, matonatli, rostgo'y, toza qilib tarbiyalabdi. Mayor negadir xursand bo'lib ketdi.

– Yaxshi bola ekansan, – dedi u biroz yumshoqlik bilan. – Sen yaxshi bola ekansan, Penin. Lekin bu gapimga ko'p ham taltayib ketma. Senga otalarcha gapim, yigitcha, doimo kimdir-birov zimdan poylab kelib, orqangga pichoq urib ketishidan ehtiyot bo'lib yur.

Penin hamon boshlig'ining karavoti yonida boyagiday sukut saqlagan ko'yi jimgina turardi.

– Mendan qo'rqma, – dedi mayor unga mehribonlik bilan tikilib. U adyoli ustidagi qo'llarini bukdi. – Men senga hech narsa qilmayman. Istasang, bo'linmangga qaytib ketishing ham mumkin. Lekin eng yaxshisi, menda. mening askarim bo'lib qolganing ma'qulroq. Bu yerda seni hech kim o'ldirib ketolmaydi.

– Mendan yana nimadir so'ramoqchimisiz, sinyor Maggore?

– Yo'q, – dedi mayor, – chiqib ketaver, xohlagan ishing bilan shug'ullanaver. Ha-ya, chiqishingda eshikni ochiq qoldir.

Penin eshikni yopmasdan tashqariga chiqdi. Adyutant yigitchaning xonadan o'ng'aysizlanib yurib o'tib, kulbadan chiqib ketishini kuzatib turdi.

Penin pechga qalash uchun yana qarag'ay shoxlaridan ko'tarib kirganida, butunlay qip-qizarib ketgan, harakatlari ham oldingidan ancha o'zgarib qolgandi. Adyutant yosh askarning bu holatini kuzatib turib, miyig'ida kulib qo'ydi. Penin tag'in tashqariga chiqib, yana-da ko'proq o'tin ko'tarib kirdi. Ichkari xonada esa mayor qishki ko'zoynaklari bilan lattaga o'rab, devordagi mixga osib qo'yilgan kaskasiga termilgancha o'z karavotida o'y surib yotar, biroq uning quloqlari qo'shni xonadagi Peninning qadam tovushlarida edi. „Voy kichkina shayton-ey, – deb o'ylardi boshliq kulimsirab, – ehtimol, u meni aldab qo'ygandir“.

BEGONA MAMLAKATDA

O'sha yilgi kuzda ham hali urush tugamagan, ammo biz ortiq jangda qatnashmayotgan edik. Milan kuz oylarida juda sovib ketar, tun ham ancha barvaqt tushardi. Deraza oynalaridan elektr chiroqlarining birma-bir yona boshlagani ko'rinar va sokin ko'chalar bo'ylab ularni tomosha qilib yurish benihoya maroqli edi. Ayrim do'konlarning tashqarisida turli xil o'yinchoqlar osilib turar, qor kukunlari yasama tulki'larning yungi ustiga o'tirib, dumlarini shamol uchirib o'ynardi. Qotirilib, do'kon eshigi tepasiga ilib qo'yilgan kiyik haykalchasi ham og'ir va ichi bo'm-bo'sh holatda turar, kichkina o'yinchoq qushchalar-da izg'irin dastidan bir-biriga urilib, qattiq shamolda patlari to'zg'ib yotardi. Kuz nihoyatda sovuq, achitqi izg'irin qirrador qoyalarini qor bosgan olis tog'lar tomondan kelar edi.

Biz hammamiz har kuni harbiy kasalxonada jam edik, oqshom tushishi bilan shaharcha bo'ylab istagan yo'limizdan ketib, biroz aylanib kelardik. Ikkita yo'l suv shoxobchasi yoqalab ketgan bo'lib, bizday majruhlar uchun ancha uzunlik qilardi. Shunga qaramasdan, biz baribir o'jarlik bilan gospitalga qaytish uchun o'sha ariq ustidagi ko'prikdan yurib o'tardik. Darvoqe, ariq ustidagi ko'priklar uchta edi. Ularning birida bir ayol qovurilgan kashtan yong'og'i sotib o'tirardi. Biz pistako'mir yo-

qilgan olov oldida turib, ayolning yong'oqlaridan xarid qilar, ularni cho'ntaklarimizga solib, sal isinib olardik. Bu juda yoqimli edi. Kasalxonamiz anchagina eskirib ketgan, lekin shu bilan birga ko'rkamligini hali unchalik yo'qotmagan katta binoda joylashgandi. Asosiy darvozadan kirganingizdan keyin keng hovli yuzasini kesib o'tib, yana boshqa bir darvozadan chiqib keta olardingiz. Shu qadimiy gospitalimizning orqasida g'ishtdan qurilgan yangi pavilyon ham bo'lib, biz bemorlar har kuni mana shu pavilyonda uchrashar, aravachalarimizda o'tirgancha o'zimizni o'ta intizomli va sinchkov tutardik.

Ba'zida men o'tirgan aravacha oldiga doktor kelib, gapga tutib qolardi:

– Urushdan oldin eng yaxshi ko'rgan mashg'ulotingiz nima bo'lgan? Sport bilan shug'ullanganmisiz?

– Ha, futbol o'ynab turardim, – deb javob berardim.

– Yaxshi, – der edi doktor cho'zib, – bu yerdan chiqib olganingizdan keyin hali avvalgidan ham yaxshiroq futbol o'ynaysiz.

Mening tizzalarim bukilmay qolgan, oyog'im joni yo'qdek karaxt bo'lib qotib turardi. Xuddi uch g'ildirakli velosiped haydayotgandek qiyofada edim. Ming chiransam ham, tizzalarim zig'ircha harakatga tushmas, har gal ularni qimirlatishga urinishim bilan aravacham sekin lapanglashni boshlardi. Doktor bo'lsa hadeb ruhimni ko'tarishga zo'r berardi:

– Hali hammasi o'tib ketadi. Siz omadli yigitsiz. Endi yana futbol o'ynaydigan bo'lsangiz, bu safar aniq chempion bo'lasiz!

Mening yonimdagi aravachada qo'llari xuddi go'daknikidek kichkina bo'lib qolgan yoshi kattaroq bir mayor o'tirar edi. U doktor qo'llarini tekshirayotgan vaqtda

menga qarab ko'zlarini qisib qo'yar, ikkita charm tasmasida osilib turgan qo'li pastga tushib-chiqarkan, egilmaydigan bo'lib qolgan barmoqlarini silkitarkan, kulib der edi:

– Biz ham futbol o'ynarmikanmiz, kapitan doktor?

Bir paytlar mana shu mayib-majruh mayor zo'r qilichboz bo'lgan, urushdan oldin Italiyada uning oldiga tushadigan qilichboz topilmagan ekan.

Doktor javob qaytarish o'rniga orqa xonadagi ofisiga kirib, xuddi mayorniki singari kichkinagina, qovjirab qolgan qo'llar suratini olib chiqar, mayorga nimalarnidir uqtirishga harakat qilardi. Noiloj mayor esa sog' qo'li bilan doktor bergan suratni ushlar, unga diqqat bilan razm solar, „Jarohatlarim tuzalarmikan o'zi?“ deb umidsiz ohangda so'rardi.

– Bu baxtsiz hodisa hitta sizning boshingizga tushgan emas, – deya doktor uni yupatgisi kelardi.

– Juda qiziq, judayam qiziq, – xayol surgancha ta'kidlar edi mayor, keyin esa qo'l rasmini yana doktorning o'ziga qaytarib berardi.

– O'zingizga ishonasizmi? – deb so'rardi doktor unga umid bilan qarab.

– Yo'q, – der edi mayor keskin tarzda.

Gospitalda men bilan tengdosh bo'lgan tag'in uchta yigit bor edi. Ularning uchalasi ham Milandan kelgan, biri huquqshunos, yana biri rassom, uchinchi esa oddiy askar bo'lishni niyat qilgan ko'ngli toza chapani bolalar edi. Ba'zan biz shu yigitlar bilan birgalashib „Kola“ qahvaxonasiga ketardik. Biz u yoqqa eng qisqa bo'lgan yo'ldan borardik, negaki to'rttalamiz ham aravachada yurardik. Bu yerdagi odamlar bizni ofitser bo'lganimiz uchun yomon ko'rardi. Vino sotiladigan do'kon yonidan

o'tib ketayotganimizda har gal kimdir: „A basso gli ufficiali!“¹ deb qichqirardi.

Ayrim vaqtlarda to'pimizga yuzini qora shoyi dastro'mol bilan o'rab-chandib olgan yoshroq bola ham qo'shilib olardi. Uning burni bilan yuzini qaytadan yasa-yotgan edilar, shu sababdan butun yuzi o'rab tashlangandi. Bu baxtiqaro yigitcha frontga harbiy akademiya dan kelib qo'shilgan va ilk marta jangga kirgan kuniyoq bir soat ichida yarador bo'lib, ortga qaytishga majbur bo'lgandi. Doktorlar uning yuzini qaytadan yasab chiqishga kirishgan, biroq yigitchaning burnini asliday to'g'ri qilib yaratish nihoyatda mushkul ish edi. Keyinchalik o'sha yigitcha Janubiy Amerikaga borib, qaysidir bir bankda ishlagan emish. Ammo bizga bu kabi voqealar bir zamonlarda, odamning esida turmaydigan qadim davrlarda bo'lib o'tgandek tuyular, biz ularning qay nuqtada boshlanib, qaysi nuqtada tugashini hech qachon idrok qilolmay qolgandik. Nazarimizda, butun dunyo faqat urushdan iboratday va u hech qachon tugamaydiganday bo'lib ko'rinar, lekin biz endi janglarda ortiq qatnasholmas edik.

Hammamiz ham urushda medallar bilan taqdirlangandik, birgina yuzi bint bilan chandib tashlangan bolada hech qanday unvon yo'q edi, zotan, u hali frontda biror-bir mukofot olish uchun yetarlicha xizmat ko'rsatolmay, yarador bo'lib qolgandi. Rangpar yuzli huquqshunos yigit oldin Arditi degan joyda leytenant sifatida xizmat qilgan va bizda endigina bir dona bo'lgan sharafli unvondan naq uchtasiga ega edi. Sho'rlik yigit ancha vaqt o'lim bilan yonma-yon yashab, endi-endi undan sal uzoqlasha boshlagandi. Biz – yarador urush ishtirokchilari deyarli hamma vaqt birga edik, gospitalda har kuni yuzma-yuz

¹ „Yo'qolsin ofitsetlar!“

kelib qolaverardik. Shaharchaning biz uchun eng sevimli bo'lgan „Kola“ qahvaxonasi tomon vino do'konlaridan taralib turgan kuy va qo'shiqlarni tinglagancha qorong'i ko'chada imillab borarkanmiz, gohida yo'lkalar chetida g'uj bo'lib turgan erkak va ayollar yonidan o'tib ketishga ham to'g'ri kelib qolar va ular bizni qanchalik yomon ko'rib, sassiq gap qilib qolgan paytlarda ham o'zimizni tutib, hech narsa bo'lmagandek yo'limizda davom etib ketaverardik.

Bizning bilganimiz faqatgina qahvaxona edi, xolos. U yerdagi issiqlik, u qadar o'tkir bo'lmagan yorug'lik, tutun va shovqinga to'la xonalar hamda stol atrofida jam bo'lib o'tirgan shaddod qizlar bilan devor va tokchalarda yoyilib yotgan bezakli qog'ozlarni o'lgudek yaxshi ko'rardik.

„Kola“dagi qizlar nihoyatda vatanparvar edi. Ba'zida men shunday o'ylardimki, butun Italiyadagi eng elsevar insonlar ana o'sha qahvaxona qizlari edi. Men hali-hamon ular kabi vatanparvar odamlarni qayta uchratmadim.

Qahvaxonaga kirib o'tirganimizdan keyin hamrohlarim mendan medallarim to'g'risida so'rab-surishtirib qolishar, ularni qanday xizmatlarim uchun olganimni gapirib berishimga qistashar edi. Men esa ularga g'oyatda chiroyli tilda yozilgan qog'ozlarni ko'rsatar, lekin ulardagi maqtovlar uchun emas, balki vijdonan aytganda, amerikalik bo'lib urushda qatnashayotganim uchungina ko'ksimdagi unvonlarni taqib yurganimni bildirib qo'yardim.

Shu gaplarimdan keyin yigitlarning menga bo'lgan muomalasi biroz o'zgarar, ularga do'st bo'lishimga qaramay, xuddi ichlaridagi dushmanga qarayotgandek sovuq nazar bilan qarashar edi. Haqiqatan ham, men bu jangchilarga chin dilimdan do'st edim, ko'nglimda zig'ircha adovatim yo'q, ularni baribir yaxshi ko'rardim. Bu yigitlar esa erishgan mukofotlarini turli qahramonliklari

uchun qo'lga kiritgandilar. To'g'ri, men urushda yarador bo'lgandim, ammo urush o'z nomi bilan urush, unda jarohat olish tabiiy hol deb qabul qilinardi. Men aslo yaralarim ustidagi bintlardan or qilmasdim, gohida qahvaxonada kokteyl ichib o'tirgan kezlirimizda o'zimni xuddi hamrohlarim amalga oshirgan qahramonliklarni bajarib, ular olgan unvonlarga sazovor bo'lgandek sezardim; biroq yarim kechada bo'm-bo'sh ko'chalardan, barcha yopilgan do'konlar yonidan izg'irin shamolda iloji boricha ko'cha chiroqlari yaqinidan yurishga urinib ketarkanman, yurak-yuragimdan shuni aniq bilardimki, men hech qachon o'sha shovvoz yigitlar kabi qahramonliklar ko'rsatolmas edim, zotan, men o'limdan benihoya qattiq qo'rqardim, har tunda bir o'zim karavotimda o'yechan yotarkanman, ajal nafasidan jonim talvasa ichida o'rtnib, qachon va qay holatda frontga qaytishimni aqlimga sig'dirolmay, miyam og'rib ketardi.

Qator unvonlarga erishgan uchala hamrohim misoli qirg'iy ovlovchi ovchilardek g'alati ko'rinar; ammo men ularning ko'ziga ovlanadigan najotsiz qirg'iyga o'xshab ko'rinsam-da, aslida, qirg'iy kabi ojiz va pastkash emasdim; buni ularning o'zlari ham yaxshi bilar edi, vaziyat shunday davom etarkan, men ulardan asta-sekin uzoqlashib ketdim. Lekin urushda birinchi kuniyoq yarador bo'lgan yosh yigitcha bilan do'stligimiz davom etdi, negaki u hali yosh, qalbi qordek oppoq, har qanday oldi-qochdi gaplardan xoli, beg'araz inson edi, uni hammadan ko'ra ko'proq yaxshi ko'rardim.

Bir paytlar eng mobir qilichboz bo'lgan mayor esa frontdagi qahramonliklar-u katta-kichik unvonlarga qiziqmas, aravachalarimizda yonma-yon o'tirgan kezlarda vaqtini nuqul mening grammatikamni tuzatishgagina sarflar edi. U mening italyanchamni xo'jako'rsinga

oshirib maqtab qo'yar, o'zim ham mayor bilan maza qilib gaplashardim. Bir kuni men unga italyan tili judayam oson ekanligini, bu tilni o'rganish menga ortiqcha qiyinchilik tug'dirmasligini aytdim, chindanam, italyanchada barcha so'zlarni talaffuz qilish oppa-oson edi.

– Ha, albatta, – deb gapimni ma'qullab qo'ydi mayor ham. So'ngra, – ammo sen italyan grammatikasini o'rganishga urinib ko'rsang yanada yaxshi bo'lardi, – deb qo'shib qo'ydi. Shundan keyin biz grammatika o'rganishni boshlab yubordik va men mayorga aytgan o'sha kungi gapimdan darrov qaytdim, to grammatik qonun-qoidalarni miyamga yaxshilab joylab olgunimcha mayor bilan italyanchalab gaplasholmay yuragimni hovuchlab yurdim.

Mayor hospitalga har kuni kelib turardi. Uning biror kun ham kelmay qolganini eslay olmayman va shuni ochiq-oydin bilardimki, uning eng yomon ko'rgani nogironlar aravachasi edi. Bizning ham ularni ko'rishga ko'zimiz yo'q, ba'zan jirkanib ketardik, biroq vaqt o'tgani sayin mayorning o'zi bunga ko'p ham e'tibor bermaslikni maslahat berardi. Aravachalar hali yap-yangi bo'lib, uni birinchi bo'lib biz ishlatayotgandik. Qanchalar ahmoqona gap bo'lmasin, mayor buni „Nogironlik nazariyasi“ deb atar edi. Men esa hali ham grammatikani yaxshi o'rgana olmagan, buning uchun qattiqqo'l mayorimiz meni g'irt savodsizga chiqarib qo'yardi, shunday bo'lishiga qaramay, u baribir men bilan o'tirib olib, anchagina asabi qo'zib, toqat qilib dars o'tar edi. Mayor jussasi jimitdakkina erkak bo'lib, doimo tik holatda o'tirar, o'ng qo'li bilan aravachasining tutqichidan ushlab, devor tepasiga tikilib turardi. Yarador qo'li ilib qo'yilgan osma tasmalar orasidan karaxt bo'lib chiqib turardi. Bir kuni u mendan:

– Peshanamizga biror baxtli kun bitib, bu do'zaxi urush tugab qolsa sen nima qilmoqchisan? – deb so'rab qoldi. – Faqat grammatikani buzmay to'g'ri javob ber!

– Qo'shma Shtatlarga qaytib ketmoqchiman, – dedim men.

– Uylanganmisan?

– Yo'q, endi uylanmoqchiman.

– Sen, hamming g'irt ahmoqsanlar! – deb o'shqirib ketdi mayor birdan. Negadir uning g'azabi juda qo'zib ketgandi. – Erkak aslo uylanmasligi kerak!

– Nima uchun, sinyor Maggore? – deb so'radim men hayron bo'lib.

– Meni sinyor Maggore, dema! – mayor hali ham g'azab ichida kuyib-yonardi.

– Nega erkak kishi uylanmasligi kerak ekan? – deb so'radim men yana.

– U uylanolmaydi. Yo'q, uylanolmaydi u, – dedi mayor battar jahli chiqib. – Agar u bor narsasini yo'qotishni istamasa, u holda o'zini o'zi bunday sho'rpehana ko'ygga solmasligi kerak. Hayotda erkak kishi faqat yo'qotmaydigan narsalarni topishi kerak!

Mayor g'oyatda alam bilan, adoqsiz hasrat bilan so'zlar, gapirayotgan paytda osmonga bir muddat tikilib qolar edi.

– Lekin nima sababdan u topgan narsasini yo'qotishi mumkin? – dedim men qiziqsinib.

– U baribir yo'qotadi, – dedi mayor endi ma'yus bo'lib qolib. U negadir menga emas, devorga qarab so'zlar edi. Keyin u aravachasiga ko'z tashladi-da, tasma orasiga ilib qo'yilgan yarador qo'li bilan tutqichga zarb bilan tushirdi, jarohatlangan qo'li popillab tushib, mayorning soniga tars etib urildi.

– U baribir yo'qotadi! – deb qichqirdi u yana. – Bo'ldi, bas qil! Men bilan tortishaverma!

Mayor shunday dedi-yu, nariroqda yurgan aravachalarni boshqaruvchi xizmatchiga qarab baqirdi:

– Kelib, mana bu la'nati matohni hayda!

Bechora mayor titrab-qaqshagancha muolaja oladigan xonaga kirib ketdi. Keyin men uning doktordan telefonini berib turishini so'rab, eshikni yopib qo'yganini eshitib turdim. Birozdan so'ng mayor qaytib kelganida men boshqa aravachada o'tirar edim. U boshiga qadrdon kepkasini kiyib olgandi, to'g'ri mening yonimga keldi-da, yelkamga do'stona qo'l tashladi.

– Kechir meni, – dedi u yelkamga sog' qo'li bilan qoqib qo'yarkan, – senga qo'pol gapirmasligim kerak edi. Bilasanmi, yaqindagina mening xotinim vafot etdi. Shuning uchun sen meni kechirishing kerak, tushunyapsanmi meni?

– Eh! – dedim men chin dildan mayorga achinib. – Juda taassufdaman!

Mayor pastki labini tishlagancha g'amboda va ma'yus o'tirar edi.

– Bilasanmi, – dedi u birozdan keyin tilga kirib, – bilasanmi, bu judayam og'ir azob bo'lar ekan! Taqdirga tan berolmayapman!

Mayorning ovozida chuqur g'ussa va dard mujassam edi. U mendan ko'zlarini olib qochib, deraza tarafga boqdi. U yig'layotgan edi.

– Sirayam bardoshim yetmayapti, o'z taqdirimga ko'nolmayapman! – dedi u nafasi qisib. Shu so'zlarni aytarkan, mayorning ko'zlaridan yosh dumalab tushar, o'zini harbiychasiga tik tutib, adl o'tirgan bo'lsa ham, atrofdagi hech narsani ko'rmas va payqamas, yonoqlariga yoshlari tomgancha, pastki lablarini tishlagan ko'yi asta yonimizdan o'tdi-da, tashqariga chiqib ketdi.

Keyinroq doktor menga mayorning yosh va ko'hlilik-kina xotini zotiljam bo'lib, to'satdan qazo qilganini aytib berdi. Baxtiqaro mayor suyukli ayoliga to o'zi butunlay nogiron bo'lib qolgunga qadar uylanolmasdan, urushma-urush, sarson-sargardon bo'lib yuravergan ekan. Uning xotini bor-yo'g'i ikki-uch kungina mazasi bo'lmay yotibdi-yu, joni uzilibdi. Ayolning bunday kutilmaganda olamdan o'tib qolishini hech kim xayoliga keltirmagan ekan.

Mayor uch kun gospitalga kelmadi. Keyin u yana o'sha odatiy keladigan soatida, faqat harbiy formasini eg-niga kiyib olgan holda aravachasida kirib keldi. U qaytgan paytda devorlarda katta-katta chorcho'pga solingan suratlar hali ham osilib turar, ular tuzatilgan va tuzatilmagan jarohatlarning har xil suratlari edi. Ilgarilari mayor xuddi o'zining qo'liga o'xshab ketadigan uchta rasm qarshisi-da turib olganча, ularni soatlab tomosha qilardi. O'sha suratlarni doktor qayerdan topib kelganini aniq bilmasdim-u, biroq yangi nogironlar aravachasiga birinchi bo'lib o'tirgan kishilar biz ekanligimizni yaxshiroq anglardim. Lekin endi bechora mayorga bu suratlarning ko'p ham ahamiyati qolmagan, u har oqshom derazadan tashqariga uzoq-uzoq tikilar va mahzun xotiralariga cho'mganча chorasiz o'tirar edi.

NURIDIYDAM

Yo'q, bu mening gunohim emas. Hech kimning meni ayblashga haqqi yo'q. Bu ishni o'zim istab qilganim yo'q, zotan, taqdiri azal ro'yobi yolg'iz Parvardigor hukmi bilangina amalga oshadi. O'sha dahshatli azob pallasini bir soat ham vaqtni olgani yo'q, biroq men uchun u lahzalar go'yo million yildan buyon davom etib kelayotgandek, o'zim bamisoli qop-qorong'i tubsizlik qa'riga cho'kib ketdim-u, endi aslo bu yorug' olamga qaytib kelolmaydigandek bo'lib tuyulaverdim. Ha, o'sha soniyalar ichidayoq yuragim behad notinch, nimadir noto'g'ri ekanligini ich-ichimdan sezib turardim. Jonimni ming og'riqqa qo'ygan o'sha jon parchamni oyoqlarim orasidan tortib olishganida, men qalbm bezovtaligi sababini yanayam yaqqolroq anglab yetdim. Darhaqiqat, hayot menga judayam qo'pol hazil qilgandi, endigina dunyoga kelib, hali o'ziga kelmagan bu jish chaqaloq shu qadar qop-qora ediki, uni ko'rib hushimdan ketib, aqldan ozayozdim. Xuddi tun zulmati singari zanjiri bu tancha chindanam o'ta qora bo'lib tug'ilgan edi. Men benihoya hayronlikda qolgandim, dam unga qarab, dam o'zimning oppoq tanimga qayta-qayta tikilib, ko'zlarimga hecham ishonolmasdim. Hayratlanarlisi shundaki, men ham, Lula Anna (chaqaloqning ismini o'zimcha shunday deb atadim) otasining tanasi ham oq-sariqdan

kelgan bo'lib, oilamiz uchun g'ayriodatiy ushbu rang biz uchun behad ajablanarli holat edi. Hattoki, mening butun urug'-aymog'im orasida birorta ham qora tanli odam bo'lmagandi. Yanayam ajablanarlisi shuki, chaqaloqning sochlari juda ham g'alati, qandaydir yaltiroq, pirpirak va jingala edi. U shu turishida misoli avstraliyalik yalang'och yuradigan qabila kishilariga o'xshab ketardi. Yo tavba! Shunaqasi ham bo'larkan-da! Balki, siz erimning yoki bo'lmasam butun yetti avlodimizda aynan shunday tusli qarindoshimiz bo'lgandir, deb o'ylarsiz? Yo'q. Bunaqa rangdagi inson zoti hech bir avlodimizda bo'lmagan ekan. Siz mening buvimni ko'rganingizda edi – u sutga chayilgandek oppoq, mohiro'y ayol bo'lgandi, umr bo'yi ana shu oqligi bilan faxrlanib yashagan va o'zi orzu qilgandek oq tanli erkakka turmushga chiqqan, hatto bolalarining rang-tusigacha qattiq qayg'urib, ularning aslzodalardek ko'rinishda bo'lishiga astoydil uringan ekan. Ammo, aslida, odam qanday rangda bo'lishining sirayam ahamiyati yoki ma'lum ma'nodagi bahosi yo'q. Inson Xudo bergan tusda tug'ilib, u bergan qismatga shak keltirmay, imoni bilan yashab o'tishi, hech qachon Parvardigorga nolish qilmasligi va hamisha oxiratdan qo'rqishi kerak. Qanchadan qancha o'ziga ishongan, ko'zi „ko'r“ bo'lgan kaslar qaysidir bir avlodida bo'lgan qora tanlilik belgisini jirkanch balo-qazoday umr bo'yi berkitib o'tadilar. O'zlarini mukammal darajadagi oliynasab avlod qilib ko'rsatishga harakat qiladilar. Holbuki hammamiz ham Xudoyim yaratgan bandalar emasmizmi? Juda-juda sanoqli odamlar, atigi yigirma foiz aholigina o'z tanasi qoraligi bilan o'ksinmas ekan. Har holda men shunday deb eshitganman. Ular uchun na irq va na darajaning ahamiyati bor. Ular hech nimga parvo qilmaydilar. Onam ham dadam bilan nikohdan

o'tayotganlarida ibodatxonada ikki xil muqaddas kitobni ushlab qasam ichishgan ekan. Negaki ular boshqa-boshqa din vakillari bo'lgan. Onam, aslida, nihoyatda xokisor ayol edi. U kibor bir xonadonda oqsoch bo'lib ishlar, aslzoda oila a'zolari yeb-yemay chala tashlab ketgan ovqat qoldiqlarini isrof qilmay, kim uchundir atab olib qo'yar, o'z ishini benihoya halol bajarar, hatto uy egalari unga eng og'ir yumushlarni buyurganda ham miq etmasdan yashab o'tgandi. U faqat bir narsadagina minnatdor, xo'jayinlari uning boshqa irq va dindan ekanligi bilan hech qiziqmasdi.

Balki, ba'zi birovlaringiz insonlarni rang-tusiga qarab ajratish jamiyatda u qadar jiddiy hol emas deb o'ylarsiz, ammo, ming afsuski, shunday. Irqchilik va tabaqalash jamiyatning hamma qatlamlarida: qo'ni-qo'shnichilik, mahalla-ko'y, maktab, kasalxona, hatto ibodatxonalar-gacha chippa yopishib, avj olib borar, na ilojki, ushbu tengsizlikka barham bera olishga qurbimiz yetmasdi. Bu jarayon shunchalar qaqshatqich hamda haqoratli ediki, hatto dorixonalarda ham qora tanli bilan oq tanliga ikki xil yo'sinda muomala qilinardi. Oziq-ovqat do'konlarida ham qoralarga past nazar bilan qarashar, mollarning narxini ham ataylab ko'tarib aytishardi. Bularning bari-ga ko'nmoqlikdan o'zga chora yo'q edi, negaki qora tanlilarning shunday bo'lib yaralishda tirnoqchalik aybi bo'lmagani kabi, jamiyatdagi mavqelarini-da o'zgartirishga zig'irchalik qurblari yetmas edi.

Ana shular to'g'risida o'ylarkanman, yuragimni tobo-ra najotsiz bir qayg'u ezar, go'yoki Xudoning qahriga qolgandek, peshanam sho'rligidan achchiq o'ksingancha zanjiday qora go'dagim ustida azoblanib, ulkan g'am ichida nochor o'tirardim. Bechora ota-onam past tabaqa-

dan bo'lgani uchun zamondan orqada qolmaslik ko'yi-da har qanday og'ir mehnatni boshdan kechirishdi. Onam tanno'z xonimlar kiyadigan to'r shlapa tikiladigan do'kon-da, dadam esa oliymaqom janoblarga mo'ljallangan oyoq kiyimlar sotiladigan do'konda ancha yillar ter to'kib ish-ladi. Ularning na unisi va na bunisi, muhtojlikda qolgan kunlaridayam oqsuyaklarga mute bo'lishmadi. Ha, ular tom na'nodagi oliyjanob insonlar edi. O'z-o'zimdanda be-had jirkanib ketsam-da, biroq onalik hissi butun a'zo-yimni o'rab olib, chaqalog'im Lula Annaga dam mehr, dam hayajon, dam esa ko'nglim muzday sovigan holda termilib o'tirardim. Uning tanasi dastlab hamma yangi tug'ilgan go'daklarniki kabi och, rangsiz edi, keyin bir-daniga katta tezlikda o'zgara boshladi. Shundoq ko'z o'ngimda bolam misoli afrikalik habashlar singari to'q ko'k tusga kirayotganini ko'rib, mislsiz dahshat ichida qoldim. Bir payt men bir lahzagina es-hushimni yo'qot-dim, shuursiz alfozda karavot ustidagi adyolni sudrab tushirdim-da, qorayib-ko'karib yotgan chaqaloq yuzi-ni qoplab, uni mahkam qilib bosib turmoqchi bo'ldim. Ammo... Ammo negadir unday qilolmadim. Bilmadim, nega bunday bo'ldi?! Lekin men baribir unday qilolma-dim. O, men uning shu do'zaxi rangdan qutulishini shu qadar tilanib so'rardimki!.. Bu peshanasi sho'r bolam qis-mati ham aynan shu rangi tufayli zardobga to'la o'tishini xayolan tasavvur qilarkanman, yuragim shuvullab ketar-di. Hatto men go'dagimni bironta yetimxonaga tashlab ketmoqchi ham bo'ldim. Biroq ibodatxona eshigi oldiga tashlab ketilgan, chirqillab yotgan chaqaloqlar yig'isi quloqlarim ostida jaranglayverdi, jaranglayverdi. Ya-qindagina germaniyalik yoshgina er-xotin egizak far-zand ko'rgani, bolalarning biri tim qora, biri esa qorday oppoq ekanligini eshitib hayratda qolgandim. O'shanda

buning sababini hech bir doktor tushuntirib berolmagan-
di. Lekin xuddi o'sha sirli holat o'z boshimga tushishini
hatto tushimda ham ko'rmagandim. Shunchalar taqdirim-
dan yozg'irar edimki, hatto bolamning og'ziga ko'krak
so'rg'ichimni-da solishni unutgandim. Uni uyga olib kel-
guncha shishadagi sut bilan oziqlantirib turdim.

Erim Luis oddiy bir qora hammol edi, kasalxonadan
qaytgan kunim u poyezd stansiyasidan horib-charchab
keldi-yu, yuzimga xuddi devonaga qaragandek qilib tikil-
di, so'ng o'rab-chirmalgan go'dakni xuddi o'zga sayyora-
dan kelgandek ajablanib kuzatib chiqdi. Luis tabiatan
unaqa g'azablanib so'kinuvchi erkaklardan emasdi, lekin
o'sha kuni u to'satdan qattiq jazavaga tushib, „Jin ursin!
Bu qaysi iblis bolasi bo'ldi?! Tezda ko'zimdan yo'qot
buningni!“ degancha ayyuhannos soldi. Men bilardim,
ro'zg'orimiz o'zi tang sharoitda edi. Aksar tortishuvla-
rimizga ham aynan shu yo'qsillik sabab bo'layotgandi.
Go'yoki og'ir tavqi la'nat tamg'asi bosilgandek bo'lib
tug'ilgan zanji bu go'dak Luis bilan mening uch yillik
gulgun turmushimizni bir zumda barbod qildi. Mening
dilimni og'ritgan narsa – Luisda hech qanday otalik
tuyg'usi yo'q edi. U misoli tosh odam kabi Lula Annaga
tamomila begonasirab qarar, uni dahshatli bir dushma-
ni kabi ko'rardi. Luis qizchamizni hattoki qo'liga ham
olmadi. Men unga Xudoning zorini qildim, yalindim,
tilandim, chandon ishontirishga urindim, menga ishon,
bu bizning zurriyotimiz, begona erkak bilan o'ralashib
esimni yebmanmi, deb harchand tushuntirsam ham u
pinagini buzmadi. Luis bamisoli bir „o'lik“ edi. U jonsiz
tanaday harakatsiz va ongsiz holda serraygancha turardi.
Biz to'xtamasdan janjallashaverdik, janjallashaverdik, ni-
hoyat men unga, balki bolaning qoraligi menikidan emas,

aksincha, sening ajdodingdan o'tgandir, deb sharitta aytdim. Ana shu bir luqmagina gap bilan u bizni bir umrga tark etdi. Keskin tarzda uydan chiqib ketdi-da, yashashi uchun arzonroq va qulayroq joy qidirgani ko'chaga otildi. Luisning ana shunday yuzsizlarcha qilgan harakatidan so'ng o'zimni darhol qo'lga oldim. Qizcham va o'zimni boqish uchun to'g'ri kelgan ishga unnab ketdim: boy xonadonlarda oqsochlik qildim, kirxonalarda ishladim, ko'cha supurdim. Lula Annaga qarash uchun bir o'spirin jiyanimni enaga qilib oldim. Ishdan kelgan kezlarimda qizchamni tashqariga olib chiqqani yuragim dov bermasdi, negaki uni aravachasiga solib ko'chalardan o'tayotgan paytimda odamlar aravaning pana pardasi ostiga nogoh ko'zlari tushib, aftlarini bujmaytirar, qovoqlarini solib olgancha sovuq so'zlar aytib, yonimdan o'tib ketishardi. Bu juda og'ir, butun qalbin tor-mor bo'lardi, biroq na chora?

Hali o'z bolam onalik mehri va parvarishiga muhtoj bo'lib turgan nozik bir damda uni uyga tashlab, o'zim boshqalarning bolasi yonida girdikapalak bo'lib, enagalik qilish bilan band edim. Avvallari enagalarga tuzukkina haq to'lanar, ammo bechora bolam Lula Anna dunyoga kelgan yildan boshlab ularning oyligi anchagina pasayib ketgandi. Hamma vaqt ham boylarga duch kelgan oqsoch va enagalar yoqib ketavermasdi. Ammo men janob Lei kabi qo'li ochiq xo'jayinga ro'para kelganimdan behad omadli edim, u odatiy enagalar haqidan yetti-sakkiz dollar ko'proq haq to'lardi. Buning uchun ham Xudoyimga qayta va qayta shukronalar keltirardim.

Vaqt o'tib, Lula Annaning tili chiqishi bilanoq unga meni „Oyi“ yoki „Oyijon“ deb chaqirishi o'rniga „Shirin opam“ deb aytishni o'rgatdim. Negaki mana shunisi bexattarroq edi. Uning tim qora va qalin lablaridan bolalarcha

pok mehr bilan chiqqan „Onajon!“ so'zi qanchalar totli bo'lmasin, odamlar oldida biroz xijolatli holat edi. Men hamon xavotir ichida yashardim. Lekin qizalog'im kundan kunga o'ziga xos chiroy kasb etib, tim qora tanasi ham borgan sari adl bo'lib o'smoqda edi.

Ikki yil shu tarzda o'tdi. Ammo bu o'tgan kunlarning men uchun nechog'liq og'ir, bir o'zi tashlab ketilgan ayolga tiriklik toshini ko'tarish qanchalar azobli ekanligini hatto hayon ham qilib berolmayman. Biroz vaqt o'tgach, Luisning vijdoni sal qiynaldi shekilli, u menga oyda bir martadan ozgina pul yuborib turadigan bo'ldi. Biroq men izzat-nafsimni yerga urib, na undan pul so'rab yalingan va na shikoyat qilib turli sud mahkamalariga qatnamagan edim. Luisning jo'natib turadigan ellik dollar puli bilan kasalxonadagi tungi ish moyanam men bilan Lula Annaning bir amallab kun o'tkazishimizga har holda yetib turardi. Biroq boshqalar nazdida o'ta xarob bo'lib yashayotgandek edik. Ular topgan-tutganimizni sadaqa puli deb o'ylashardi. Albatta, bu menga juda og'ir hotardi. Keyin-keyin odamlar xayr-sadaqa nomini beg'araz yordam deb atay hoshladilar, bunisi haytovur biroz yengil eshitilardi. Biroq men atrofimdagi hayot va kimsalar bilan zig'irchayam ishim yo'q, faqat o'zim bilan o'zim ovora edim. Sirtidan bechoraga o'xshab ko'rinsam-da, aslida, behuda gap-so'z qilayotganlardan ko'ra ko'proq pul topardim. O'shanday kishilar, ya'ni o'zidan biroz g'aribroq yashayotgan odamlar ustidan mag'zava to'kib, nobop gap tarqatuvchi kimsalar ko'zimga o'ta-o'ta pastkash bo'lib ko'rinardi. Ayniqsa, ular mendan ham ko'ra Lula Annaga past nazar bilan qarashardi. Nazarlarida, u xuddi tashlab yuboriladigan, hech kimga keragi yo'q irkit hasharotday undan jirkandib ketishardi. Lekin men bora-bora bularning hamma-

sig'a ko'nikib qoldim. Ammo shunday bo'lsayam hamon hushyorlikni qo'ldan boy bermasdim. Hamma vaqt ogoh va o'z ishing'a puxta edim. Ayniqsa, Lulani o'stirishda o'zimg'a nihoyatda talabchilik qil'dim. Sababi, Lula Annaga, avvalo, boshqalar oldida og'ir gunohi borday boshini hadeb yerg'a egavermasdan, hamisha o'zini tik va baland tutishni, qiyinchilik ichida qolganda ortiqcha oh-voh qilmaslikni o'rgatdim. U ismini ko'p bora o'zgartirib ko'rdi, biroq ism o'zgarishi bilan uning tanasi oqarib qolmasdi. Qora tanli bo'lib yashab o'tish unga azaliy taqdir bo'lib bitilgandi. Biroq bu mening gunohim emasdi.

E-ha, bir paytlar Lulaga yosh bolalik davrida haddan tashqari talabchan bo'lgan, unga o'ta yomon muomala qilgan vaqtlarim ham bo'lgandi, men bularni hamma vaqt eslab yuraman. Ammo siz buni to'g'ri tushunishingiz kerak. Neki qilgan bo'lsam, faqat uni o'ylab, uni himoya qilish uchun, uni jon-dilimdan yaxshi ko'rganim uchun qilgan edim. Lula hali bu chig'al olamni to'la idrok etolmasdi. U – qora tanli yosh qizaloq, bu hayotda million bora haq bo'lib chiqsa ham, jamiyatning kuchli va shafqatsiz qo'llarida ezig'ilanib ketishi turgan gap edi. Bu holat bolalar bog'chasidan to umrining oxirigacha mavjud ekanligini Lula hozircha bilmasdi. Uning beg'ubor va pokiza qora tani oq odamlarni cho'chitishi yoki ularni kuldirishi, hatto uni mazax qilib, vijdonsizlarcha aldashlarini yosh bola aqliga sig'dirolmasdi.

Bir kuni men xuddi Lula bilan barobar bo'lgan, o'n yoshlar atrofidagi qora tanli bitta qizchaning bir gala oq tanli bolalar tomonidan xo'rlanib turgani ustidan chiqib qoldim. U o'zini bu to'dadan qanchalar himoya qilib, qochishga urinmasin, bolalarning goh unisi, goh bunisi bechora qizaloqni bir-biriga surib, tinmay niqtalashardi.

Ular o'sha damda sho'rlik qizchani ustidan qornilarini ushlagancha, egilib-bukilib, qotib-qotib kulishmoqda edi. Qizcha ulardan bazo'r qutulib, yig'lagancha qochib ketarkan, tanasi oq bolalar haliyam uning ustidan hiringlashib, qilgan ishlaridan huzurlanishardi. Agar men bu hodisani avtobus derazasidan ko'rib qolmasdan, tashqarida bo'lganimda edi, qizchani jon-jon deb qutqargan, uni o'sha oq bo'richalar galasidan tezroq tortib olgan bo'lardim. Ko'ryapsizmi, agar men Lulaga qat'iylik va talabchantlik bilan tarbiya bermaganimda edi, uning ham o'shanday oqlar orasida ko'zyosh to'kib azoblanishiga to'g'ri kelib qolardi. Bunday tarbiya Lulaga yashab o'tarlik hayoti moyaynida bir kuni, albatta, asqatib qolar, uning o'zi ham ayni men kutgan va istaganday mag'rur, aqlli va dadil qiz bo'lib voyaga yetgandi.

Men yomon ona emas edim. Nimaiki qilgan bo'lsam, barisi Lula uchun, bolamning baxtli bo'lishi uchun, ko'z nurim, qalb qo'rim bo'lmish aziz nuridiydam uchun atalgan edi. Umid qilamanki, Parvardigorning o'ldida yuzim hamisha yorug' bo'ladi. Rost, avvaliga o'z bolamdan o'zim hazar qildim, taqdirimdan o'kindim, uning qop-qora tanasiga hatto qo'l tekkizishga ham botinmadim. Biroq men ona edim. Baribir uni yaxshi ko'rardim. Ha, ich-ichimdan, butun qalbimdagi mehr ila Lulani benihoya sevardim. O'ylaymanki, Lula ham meni bir kuni albatta tushunib yetadi. U hozir ham meni angalay oladi. Men shunday deb o'ylayman.

Vaqt o'tgan sari Lula Anna o'z-o'ziga mustaqil va tobora jasur qiz bo'lib kamol topayotgani ravshan aks etib bordi. U qora badanini yashirish uchun nihoyatda bejirim, juda chiroyli liboslar kiyardi. Hatto kezi kelganda men-ga ham aql o'rgatib turar, biroq bularning bari yoqimli va suyumli edi. Dilimdagi og'ir dard toshi yengillasha

borgani sayin uning o'rnini kun kelib qizim meni yolg'iz tashlab ketishi muqarrarligi haqidagi xavotir egallab, ko'nglimni ayovsiz qiynoqqa solib qo'yardi. Kunlarning birida shu to'rt devor ichida bir o'zim yakka qolib, huvullab o'tirishim xavfi g'arib umrimga tashvishli tahdid solib turardi.

Lula Kaliforniyadan yaxshigina ish topib, o'sha yerda ishlay boshlagandi. Endi men uni judayam kam ko'radigan bo'lib qolgandim. O'zim esa ancha o'rgangan joyim – Uinston Xausni bir kunga ham tashlab ketolmasdim. Oltmish uch yoshga to'lganimda ixchamgina, sal arzonroq bo'lgan boshqa bir uyga ko'chib o'tdim. Ba'zan keksalik bezovtaligi bo'lmish turli kasalliklar qo'zg'ab qolganda, ikkita hamshira goh-gohida kelib tekshirib turadigan bo'ldi. Endi darbadar hayot kechirish uchun qarib qolgandim, yoshligimning olovli damlari ko'zimning oq-u qorasi, yagona zurriyotim Lula Annaning tinch va dorulamon kelajagi uchun fido bo'lgandi. Yoshim o'tib borarkan, tanamda to'satdan suyak xastaligi paydo bo'ldi. Og'riq judayam kuchli kechardi, ammo baxtinga, hamshiralalar juda mehribon va rahmdil edi. Bittasi hatto yaqin orada buvi bo'lishimni aytganimda mehr bilan ikki yonog'imdan o'pib, meni chin dildan tabrikladi. Ularning tabassumi va maqtovlari nihoyatda yorug' va yoqimli edi. Men hatto hamshira qizlardan Luladan kelgan xatlarini ham yashirib o'tirmasdim, qizimning har bitta gapidan ular ham xabardor bo'lishardi. Bir maktubida Lula menga behad baxtiyor ekanligini, tez kunlarda ona bo'lishini katta quvonch bilan yozib yuboribdi. Uning eri ham o'zi kabi qora tanli edi. Ammo o'sha xatida Lula turar manzilini bildirib qo'ymagan ekan. Shunda men o'zimni nihoyatda yomon his qilib ketdim, nazarimda, men unga yaxshi ona bo'lolmadim va aynan shu xat menga ulkan jazoday

bo'lib ko'rinmoqda edi. Ehtimol, Lula ichida mendan biroz og'rinardi ham. U menga vaqti-vaqti bilan pul yuborib turar, kundalik ehtiyojlarim uchun Lulaning jo'natganlarini ishlatib yashardim, ammo undan ortiq hech narsa so'ramas va umidvor ham bo'lmasdim. Menga yagona kerak narsa – bu uning baxti edi. Ehtimol, men bundan keyingi umrimda to'kin-sochin hayot kechirishim uchun ba'zi bir ota-onalar singari o'z bolamga zulukdek yopishib olsam ham bo'lardi, biroq menga buning nima keragi bor? Bolam, deya butun umri zahmatda kechgan ona uchun bu kabi mayda narsalarning nima ahamiyati bor?

Gohida xayolan o'tmishga qaytib, Lula tug'ilgan soniyalami, qop-qoragina bir parcha etning dastlab ko'zimga qanchalar xunuk bo'lib ko'ringanini, juda yomon ijir'anganligimni eslayman. Ammo endi ularning hammasini xotiramdan quvib chiqarishim kerak. Axir o'sha yoqimsiz lahzalarning menga qilchalik ham ta'siri qolmagandi. O'shanda Lula Annaning otasi bizni qarovsiz, boquvchisiz holda tashlab ketganida, bu qora chaqaloq yelkamga nihoyatda og'ir yuk bo'tib tushgandi. Ha, u benihoya og'ir yuk edi o'shanda, lekin men uni ko'tara oldim, men o'sha og'ir yukni ko'tarib yashab kelishga qodir bo'ldim.

To'g'ri, boshida Lulaga u qadar mehr ko'rsatolmadim. Ayniqsa, uning o'smirlik davri, o'n ikki-o'n uch yasharligida yanayam dag'al va talabchan onaga aylangandim. O'sha vaqtlarda Lula ham mendan bezor bo'lgan, men pishirgan ovqatni og'ziga olmas, sochlari ni o'rib qo'yishimga ham astoydil qarshilik ko'rsatardi. Yanayam og'ir kunlar u maktabda o'qiyotgan kezlarda bo'ldi. Men uning har bir qadamini nazorat qilar va aslzodalar tazyiqidan hushyor bo'lishini tinmay uqtirib yashardim. Xudoyimga behisob shukrki, o'sha mehnat-

larim zoye ketmadi, Lula o'ziga ishongan, mustaqil va barkamol inson bo'lib ulg'aydi.

Mana endi u homilador. Butun vujudi bilan intiqib, orziqib, tilangan holda jon parchasi – aziz farzandini kutyapti. Ilohim, eson-omon qutulib olgin, Lulaginam! Agar sen onalik nechog'lik shirin baxt ekanligini bilganingda edi, yuraging tars yorilgudek, bundan-da ming karra baxtiyor bo'lib ketarding! Ha, onalik nihoyatda ulkan baxt, Lula! Sen va sening jufting yaqin kunlarda dunyodagi eng xushbaxt insonlar bo'lasiz! Axir o'zing bir tasavvur qilib ko'rgin-a: chaqaloq! Olamning eng yuksak ne'mati bu chaqaloqdir. Lula, sen meni bir fursat yaxshilab tingla, qizalog'im. Sen ona bo'lgan onlarda shu kurrayi koinotning qanchalar cheksiz va chegarasiz ekanligini, uning qay tarzda aylanib, yashab turishini, yer va samo qanday tilsimot ekanligini yana-da chuqurroq anglab yetasan. O'shanda yanayam baxtli bo'lasan, Lula!

Senga Xudo yor bo'lsin, nuridiydam! Bu duo shu yorug' olamdagi har bitta onaning eng o'tli iltijosidir.

Ilohim, Yaratganning o'zi har bir go'dakni o'z panohida asrasin!

YOZILMAGAN HIKOYA

Men sizlarga hikoya qilmoqchi bo'lgan ushbu voqea „Tonggi mayoq“ gazetasida ishlab yurgan paytlarim sodir bo'lgan. Men Nyu-York ko'chalari bo'ylab kezar, yo'limda uchragan ne hodisa borki, hikoya qilib yozaverardim. Tirikchiligim ham shuning orqasidan, gazetada doimiy shtatda bo'lmaganim uchun mablag' masalasi haminqadar edi.

Oddiy kunlarning birida stolim qarshisida Trip paydo bo'ldi. U gazeta chop etish bo'limida ishlardi. Shuning uchun undan doim kimyoviy bo'yoqlarning hidi kelib turar, barmoqlari ham kislota tufayli bujmayib ketgandi. Tripning yoshi yigirma beshda edi, biroq ko'rgan odam unga qirqdan kam bermasdi. U biror surat masalasida kelgan, deb o'yladim. Tripning tikan-tikan soqol qoplagan yuzi ayni paytda juda bechorahol va ayanchli tus olgandi. Uning odati hamma qatori menga ham ma'lum: u ko'p qarz so'rardi – 25 sentdan to bir dollargacha. Trip inqilagancha qo'lini stolga tirab, bir amallab yonimga o'tirdi. Uning barmoqlari titrardi! Yana ichibdi-da.

Bugun yozgan bir hikoyam uchun 5 dollar gonarar olgandim. Shu sababli dunyo ko'zimga nihoyatda chiroyli ko'rinayotgandi.

– Xo'sh, Trip? – gap boshladim men. – Ahvollar qalay?

– Senda biror dollar topilmaydimi? – uning ahvoli har kungidan ham og‘ir edi.

– Bor, – dedim. – Ochig‘i, 5 dollar pulim bor. Bunga ming mashaqqat bilan erishganimni ham aylishim kerak. Ayni pulga muhtoj paytim oldim-da o‘ziyam...

Pul so‘rab ulgurmasidan gaplarimni qalashtirib tashladim.

– Men qarz olmoqchi emasdim, – Tripning bu so‘zlaridan tetiklashdim. – Men senga yaxshi bir hikoya uchun voqea topib bermoqchiydim. Bu senga ko‘p foyda keltiradi, ishonaver. U juda qiziq! Biroq ular senga bir necha dollarga tushadi, xolos.

– Xo‘sh, qanaqa fikrlar ekan, ayt-chi?

– Aytaman, – davom etdi Trip. – Bir qiz... go‘zal... Hech qachon hayotingda u kabi hurliqoni uchratmagan-san. U bir gul... 20 yildan buyon bir qishloqda yashagan va umrida Nyu-Yorkni ko‘rmagan! Men uni 34-ko‘chada uchratdim. U dunyodagi eng chiroyli qiz, ishonaver. Qisqasi, u meni o‘sha ko‘chada uchratib, to‘xtatdi va Jorj Braunni qayerdan topish mumkinligini so‘radi. Ishonayapsanmi, u Nyu-Yorkday katta shahardan Jorj ismli kimsani topib berishimni so‘radi! Bu haqda nima deyish mumkin, axir? Men qiz bilan suhbatlashdim. U kelasi haftada Hiram Dodd ismli bir fermerga turmushga chiqayotgan ekan. Biroq u ilk muhabbatini unutilmabdi – ya‘ni Jorj Braunni. Jorj bir necha yil burun qishloqni tashlab, shaharga – o‘z baxtli kelajagini izlab ketgan ekan. Keyin esa qishloqqa qaytmabdi. Qiz uni kuta-kuta axiyri Hiramga rozilik beribdi. Bir necha kun oldin esa Ada – ha, qizning ismi Ada Loveri ekan – birdaniga poyezdga o‘tiribdi-yu, Nyu-York tomon yo‘l olibdi; Jorjni izlab... Demak, qizga Jorj judayam kerak ekan. Tabiiyki, men qizni katta shaharda yolg‘iz qoldirolmadim.

Bilishimcha, u shaharga kelaman-u, istagan odamdan Jorjni so'rab topib olaman, deb o'ylagan. Uning qanday bolafe'lligini tushunyapsanmi? Beg'ubor go'dak u! Uni ko'rmasang bo'lmaydi. Mening qo'limdan nimayam keldi? Ertalabdan pulim bo'lmaydi. Qiz ham bor pulini bilet olishga sarflagan ekan. Qisqasi, qizni to'g'ri ijara uyimga olib bordim va o'zim u yerni tark etdim. Biz uning bir kunlik ijara haqi uchun bir dollar to'lashimiz kerak. Yur, seni u yerga olib boray...

Mening asabim buzildi.

– Nimalar deyapsan, Trip? Men muhim maqolami debman. Har kuni poyezd shaharga yuzlab qizlarni olib keladi! Men bundan qanaqa hikoya tayyorlashim mumkin axir?

– Shunday qiziqarli narsani ko'ra olmayotganingdan afsusdaman. Sen go'zallik va muhabbat haqida yozishing mumkin, tushunsang-chi? Ishonchim komil, sen buning uchun 15 dollar olasan. Bu esa senga atigi 4 dollarga tushadi.

– Nega endi 4 dollar? – ajablandim men.

– 1 dollar xona uchun, 2 dollar qaytish bileti uchun.

– Yana biri-chi?

– Menga-da. Viski uchun. Norozi bo'lma...

Men javob bermadim va ish bilan mashg'ul bo'lganday qog'ozlarimga tikildim.

– Sen tushunmading, – Trip bo'sh kelmasdi. – Qiz uyiga qaytishi shart! Bugunoq! Buning uchun hamma narsaga tayyorman. Bu haqda biror nima yozib pul ishlab olasan degandim. Lekin, aslida, yozasanmi, yo'qmi, men-ga baribir. Nima bo'lganda ham, qiz qorong'i tushmasdan uyiga qaytishi kerak!

Bu gaplardan so'ng men qizga achina boshladim. Qizga 3 dollar sarflashga-ku roziman, biroq Tripga viski

uchun bir chaqa ham bermayman. Men og'rinib palto va shlapamni qo'limga oldim.

U yerga yarim soatda yetib bordik. Trip eshik qo'ng'irog'ini bosdi.

– Menga tez 1 dollarni ber, – dedi Trip shoshilib.

Eshikni bir ayol ochdi. Trip indamay unga pulni uzatdi. Ayol ham jimgina bizni ichkariga boshladi. Keyin bizga o'girilib dedi:

– U umumiy xonada o'tiribdi.

Nimqorong'i xonaga kirgach ko'zim u yerda o'tirgan qizga tushdi. U yig'lardi. Ha, qiz chindan ham go'zal edi. Yig'laganida yanayam chiroyli ko'rinar – billur yosh tomchilari uning ko'zlarida naqsh kabi tovlanardi.

– Loveri xonim, bu mening do'stim janob Kalmers. – dedi Trip. Men kiyinishi aftodahol bu odamning do'sti ekanimdan biroz xijolat ham bo'ldim. – U ancha aqlli va ishbilarmon odam. Gazetada ishlaydi... Ha, sizga albatta yordami tegadi. Ishonavering, xonim, u sizga eng to'g'ri yo'lni ko'rsatadi.

– Loveri xonim... – men gapimni topolmay biroz jim qoldim. – Agar sizga yordamim tegsa, juda xursand bo'lardim. Avval siz menga barini batafsil gapirib bering...

– Nyu-Yorkka birinchi kelishim, – gap boshladi qiz. – Men bu yerni bunchalik katta deb o'ylamagandim. Bu yerda men janob... janob Flippni uchratdim va bir do'stim haqida so'radim. U esa meni shu yerga olib kelib, kutishimni tayinladi.

– Maslahat berdim, Loveri xonim, – aralashdi Trip. – Men yo'lda janob Kalmersga barini tushuntirdim.

– Ha, albatta, – dedi Ada. – Mening aytadigan gapim yo'q, faqat bir gap – Hiram Doddga kelasi payshanbada turmushga chiqyapman. Uning qishloqda 200 akr yeri va katta fermasi bor. Bugun ertalab onamga dugonam

Syuzinikiga ketyapman, degandim. Bu yoig'on edi... Lekin menga baribir. Poyezdga chiqdim-u, kelaverdim... janob... janob Flippdan Jorjni so'radim.

– Loveri xonim, – Trip qizga qaradi. – Siz Hiramni yoqtirishingizni va Hiram ham sizni juda sevishini aytgandingiz-a?

– Albatta, yoqtiraman. U yaxshi odam. Umuman, hamma odamlar yaxshi, ularni yaxshi ko'raman. Lekin... lekin men o'tgan tundan beri Jorj haqida o'ylay boshladim. Men... – qiz yig'lab yubordi. Xuddi bahor yomg'iridek. Unga yetarlicha yordam berolmasligimdan o'kindim. Chunki men na Jorj edim, na Hiram. Nihoyat, „yomg'ir“ ham tindi. Qiz davom etdi. – Biz Jorj bilan bir-birimizni yoqtirardik, o'shanda u 8, men esa 5 yoshda edim. Jorj 19 ga to'lganida, ya'ni 6 yil oldin, qishloqni tark etdi. U shaharga kelib politsiyachi yoki temiryo'l boshlig'i, umuman, biron kasb egasi bo'lmoqchiydi. U sen uchun albatta qaytaman, degandi. Biroq shu ketganicha u haqda biror xabar eshitmadim. Men... men uni sevardim.

Qiz yana yig'lay boshlagandi, Trip uni yupatib menga yuzlandi.

– Janob Kalmers, hozir Ada uchun eng to'g'ri yo'l qanday?

– Loveri xonim, – gap boshladim men. – Hayot yo'li murakkab... hammamiz uchun ham. Bu dunyoda kamdan kam insonlar o'z muhabbatlariga erishadilar. Siz Hiram yaxshi inson va uni yoqtiraman, dedingiz. Ishonchim komilki, unga turmushga chiqib, albatta, baxtli bo'lasiz.

– Ha, – dedi Ada. – Uni bu ahvolda topolmas ekanman. To'yim yaqinlashgan sari u haqida ko'proq o'ylay boshladim. Men bilaman, u bilan biror baxtsiz hodisa yuz bergan, aks holda u menga, albatta, xat yozardi. Uning ketishidan oldin biz bitta tangani boig'acha bilan o'rtasi-

dan ikkiga bo'lgandik. Ikkimiz ham doimo qalban sodiqlikka va bu yarimta tangani to uchrashmagunimizcha asrab-avaylashga qasam ichgandik.

Trip negadir kuldi. Men uning viski uchun qizga yordam berayotganini bilgandim.

– Oh, – dedi Trip. – Yigitlar shunaqa, shaharga kelib o'z yorlarini unutadilar. Menimcha, u boshqa bir qizni topgan yoki... ichkilikka berilib ketgan. Siz Kalmersga quloq soling va uyingizga boring. Shunda hammasi iziga tushadi.

Qiz axiyri uyiga ketadigan bo'ldi. Uchalamiz vokzal tomon yo'l oldik. Uning qishlog'i tomon eltadigan bilet narxi 1 dollar-u 80 sent ekan. Men biletga qo'shib bir dona qizil atirgul ham sotib oldim. Biz xayrlashdik.

Nihoyat, bari ortda qoldi. Men Tripga qaradim. U yanada cho'kib qolgandi.

– Sen bundan biror hikoya yozolasanmi? – so'radi u.

– Biror satr ham...

– Uzi, yozolmasang ham, pulingni sarfladik.

– Buni unutaylik. Biroq senga viski uchun pul berolmayman.

Trip paltosining tugmasini bo'shatib, cho'ntagidan dastro'mol chiqardi. Shu payt uning ichki cho'ntagida osilgan zanjiming jarangi e'tiborimni tortdi. Bir necha soniyada bir narsani ilg'adim: zanjirda yarimta tanga osilib turardi. Ha, bolg'acha bilan bo'lingan tanga!

– Axir... – dedim men hayratlanib.

– Ha, – ohista javob berdi u. – Jorj Braun. Hozir esa oddiygina Trip...

Men cho'ntagimdan bir dollarni oldim va Tripning qo'liga tutqazdim...

SEVGI REJASI

Andi Donovan ko'pdan beri Janob Skottning sihatgohida ishlab kelardi. Bir-biriga o'xshash kunlarning birida boshlig'i uni yangi kasbdoshi bilan tanishtirdi. Jusasi kichikkina, o'ziga yarashiqli jigarrang ko'ylak kiygan yosh va go'zal xonim o'zini Meggi Konvay deya tanishtirdi. Afsuski, qiz suhbatga ortiqcha erk bermadi. U o'z ishiga sho'ng'ib ketdi...

Oradan ikki haftalar o'tib, bunga imkon topildi. Andi sihatgoh qarshisidagi yog'ochga suyanib sigara tutatgancha ancha o'tirdi. Shu payt uning nigohlari eshikdan chiqib kelayotgan Konvay xonimga tushdi. U ixchamgina qora ko'ylak va bejirim qora shlapa kiygan, tufli va ko'zoynagi ham shunga monand qop-qora edi. Qizning oltinday tovlanayotgan qalin sochlari va moviy ko'zlari uni yana-da jozibali ko'rsatardi. Qiz eshikdan chiqib, bir zum osmonga tikilib qoldi. Andi uning ko'zlaridagi g'am sharpasini sezdi. Va tugab ulgurmagan sigaretini yerga tashladi-da, qiz tomon yaqinlashdi.

– Bugun havo yaxshi-a, miss Konvay?

– Ha... lekin men uchun emas, janob Donovan.

– Oilangizda biror kishi... – Andi duduqlandi.

Qiz biroz sukut saqladi.

– Yo'q, oilamda emas. Lekin beshafqat taqdir yuragimning bir bo'lagiga aylangan insondan ayirdi. U menga

juda-juda aziz edi... Hozir esa bu shaharda o'zimni shu qadar yolg'iz sezyapmanki...

Yigit ortiqcha narsa so'ramadi. Shu ko'yi ularning suhbatini yakuniga yetdi. Biroq shundan so'ng yigit qiz haqida ko'proq o'ylay boshladi. O'ylagani sari uni baxtli qilish istagi ortib borardi. Bir kun u to'g'ri qizning ishxonasiga kirib keldi.

– Nyu-Yorkda yolg'izlik juda yomon. Siz o'zingizni bu qayg'udan chalg'itishingiz kerak. Balki... bog'da sayr qilarmiz, agar ijozat bersangiz, albatta.

– Rahmat, janob Donavan. Taklifingiz menga ma'qul.

Yo'lka bo'ylab ketisharkan, yigit qizning xotiralarini tinglab ketdi. Marhum yigitining ismi Fernando Mazzini ekan. U italyan graflaridan bo'lib, Vatanida katta villa va yerga ega ekan. Kelasi bahor ular turmush qurishga kelishishgan va Fernando to'ygacha villani tartibga keltirish uchun Italiyaga jo'nagan ekan. Shundan so'ng Meggi Nyu-Yorkdan ish topgan va bu yerga kelgan. Uch kundan so'ng esa qizga maktub kelibdi. Unda Fernandoning aviahalokatda vafot etgani yozilgan ekan.

– Shuning uchun qora kiyingandim. Shuning uchun dunyoyim zimiston. Hech nima bilan qiziqmayman... Iltisangiz, sihatgohga qaytamiz, janob Donavan?

– Yo'q, hozir emas. Biroz shoshilmang, Meggi. Zinhor yolg'izman, deya ko'rmang. Men sizga hamdardman... Ruxsat etsangiz, samimiy do'stlik rishtasini taklif etaman.

– Bilasizmi, menda uning surati bor. Shu paytgacha birovg'a ko'rsatmaganman. Biroq siz endi mening do'stim ekansiz... Shuning uchun sizga ko'rsatsam deymen.

Andi suratga yaxshilab tikildi.

– Xonamda uning katta portreti bor, – davom etdi qiz. – Har kuni unga necha martalab tikilaman. U yuragimda bir umr yashaydi.

Ular sihatgohga qaytishgach, qiz yugurib xonasiga kirdi-da, katta portretni ko'tarib chiqdi.

– Kelishgan yigit ekan, – jilmaydi Andi. – U menga yoqdi. Meggi... balki, keyingi yakshanba teatrga rusharmiz?

Oradan bir oy o'tgach, Andi va Meggi janob Skottga turmush qurayotganliklari haqidagi xabarni yetkazishdi. Biroq shunga qaramay, Konvay qora kiyimini yechmasdi. Kechki payt Andi va Meggi bog'dagi skameykada ancha o'tirishdi. Havo musaffo, oynning shu'lalari yam-yashil yaproqlar bag'rida tovlanardi. Hammasi go'zal, ammo Andining negadir qovog'i ochilmasdi. Uning kun bo'yi shu ahvolda yurgani sababini nihoyat, Meggi so'rashga ahd qildi.

– Nimalarni o'ylayapsan, Andi?

– Hech narsa, shunchaki...

– Ilgari seni hech bunday kayfiyatda ko'rmagandim. Nimadir bo'lgan...

– Aytarli hech gap yo'q, Meggi.

– Menga aytishing kerak, Andi. Balki, boshqa qiz haqida o'ylayotgandirsan? Agar istasang, uning oldiga ketishing mumkin.

– Unday emas. Mayli aytaman, Meggi. Mening bir do'stim bor. Ismi Mayk Sullivan. Taniysanmi uni?

– Yo'q, tanimayman. Agar uni deb siqilayotgan bo'lsang, tanishni xohlamayman ham.

– U yaxshi do'st, Meggi. Kecha u bilan ko'rishgandim. Ikki haftadan so'ng to'yim bo'layotganini aytdim. U xursand bo'ldi va taklif qilishni unutmasligimni tayinladi. U, albatta, kelarmish...

– Shunchalik kelishni xohlasa, marhamat.

– Buning jiddiy sababi bor, Meggi. Uni taklif qilolmayman!

– Sababini ayt, Andi. Men bilishim kerak.

– Yaxshi... Meggi, avval ayt-chi, sen meni graf Mazzinini sevganchalik sevasanmi?

Meggi jimib qoldi. So'ng birdan yig'lab yuhordi.

– Nima gap, Meggi? Nega yig'layapsan?

– Bilasanmi... – dedi Meggi nihoyat. – Men seni aldagandim. Buning uchun meni kechirolmaysan. Endi menga bo'lgan sevging so'nadi. Lekin hammasini aytmasam bo'lmaydi, Andi. Mening hayotimda hech qanaqa graf bo'lmagan. Shu paytgacha sevgi bilan to'qnashmaganman. Dugonalarim faqat sevgan yorlari va turmush o'rtuqlari haqida gapirishardi. Men esa bu tuyg'uni boshimdan o'tkazmadim. Men ham sevishni, sevilishni istardim. Seni birinchi bor ko'rganimda yuragim jiz etdi, ilgari hech bunday bo'lmagandim. Keyin esa graf rejasini o'ylab topdim. Fotostudiyaga borib, u yerdagi bir kelishgan yigitning suratini sotib oldim. Qora libos kiydim... Shu yo'l bilan e'tiboringni tortaman, deb o'yladim. Biroq yolg'on bilan sevgiga erishib bo'lmas ekan. Endi meni tark et, Andi. Men uyatdan ko'zlaringga qarolmayman. Sen hayotimdagi yagona inson bo'lib qolasan.

Andi ohista qizning qo'llaridan tutdi va uni o'ziga qaratdi. Qiz uning jilmayib turganini ko'rib hayratlandi.

– Sen... meni kechirolasanmi, Andi?

– Kechirganman... allaqachon, suratni ko'rganimdayoq. Menga hammasini aytib berganingdan xursandman, Meggi.

– Andi, graf haqidagi gaplarimga ishonmaganmiding?

– Ishonardim-u, biroq... menga ko'rsatgan surating yaqin do'stim Mayk Sullivanniki edi-da...

OKTABR VA IYUN

Kapitan devorga mixlab qo'ygan qilichiga g'amgin nazar bilan tikildi. Devorga o'rnatilgan javonda esa turli ob-havo sharoiti va xizmat qilinaverganidan unniqib, dog'-dug' bosgan eski harbiy formasi ilingandi. Garchi oradan ko'p vaqt o'tgan bo'lsa-da, bu kiyim urushning xavotirli lahzalarini yodga solib turardi.

Hozir esa sobiq frontchi o'zining har qanday kurashda yengilmas damlarini xotirladi. Alqissa, u bugun yosh bir ayolning mehrlri nigohlari va tabassumiga so'zsiz bo'ysungandi. Kapitan o'zining xos xonasiga kirdi-da, hozirgina qabul qilgan maktubni qo'lga oldi. Maktub o'sha ayoldan edi, kapitanning yuziga ma'yuslik soya soldi. Maktubga qandaydir notinch xatboshi bitilgan, bu esa uning bor umidini yo'qqa chiqarmoqda edi.

„Siz hor obro'yingizni bir chetga surib, rafiqangiz bo'lishimga roziligimni so'rahsiz. Sizga ochiq aytishim kerak deb o'ylayman. Bildiradigan asosiy va yagona sababim shuki, yoshimizda katta farq bor. Men sizni juda ham yoqtiraman, biroq turmush qurishimiz xayrli bo'lmaydi. Sizga bu gaplarni aytayotganimdan afsusdaman, lekin haqiqatdan ko'z yumib bo'lmaydi va siz meni tushunasiz, degan umiddaman“.

Kapitan og'ir xo'rsindi va boshini kaftlari orasiga oldi. To'g'ri, ularning yoshida anchagina tafovut bor. Lekin kapitan kuchli va baquvvat, hayotda o'z maqsadiga va boyligiga ega odam-ku. Nafaqat sevgisini, balki bor e'tiborini, mablag'ini ayolga tortiq qilishga tayyor, koshki u yoshlaridagi farqni unutsa. Buning ustiga, kapitan ayolning o'ziga mehribonligini ham ilg'agan.

Kapitan juda epchil va chaqqon odam. Jang maydonlarida u o'zining talabchanligi va mardligi uchun dong qozongandi. Ayolni ko'rib, u o'zini tanidi. Yosh! Nega bu sabab muhabbatlariga to'siq bo'lyapti-ya?

Kapitan ikki soatda tayyor bo'ldi. Xuddi urushda safga chaqirilishini kutayotgandek o'zini g'oz tutdi. U janubiy shaharchadan poyezdga o'tirdi-da, ayol yashaydigan joy – Tenessaga yo'l oldi.

Teodora Deming katta eski uyining pillapoyasida yozgi shafaqning qizarishini kuzatib o'tirgandi. Shu payt darvozadan kapitan kirib keldi, u shag'alni bir-bir bosib ayol tomon odimladi. Ayol mehmonni jilmayib kutib oldi, yelkasidan qandaydir og'ir yuk qulagandek bo'ldi. Kapitan uning qarshisida – bir qadam narida to'xtaganida, ularning yoshidagi farq deyarli sezilmay qoldi. Kapitan baland bo'yli, tikkadan kelgan, nigohlari tiyrak va yuzi bug'doyrang edi. Ayolning chehrasi esa latofatdan gul-gul yashnab turardi.

– Sizni kutmagan edim, – dedi Teodora. – Biroq kelib-sizmi, demak, maktubimni olmagan ko'rinasiz?

– Oldim, – dedi kapitan. – Shuning uchun ham yoningizga tashrif buyurdim. Aytishim lozim, Teo, javobingizni yana bir qayta o'ylab ko'rsangiz...

Teodora samimiy jilmayib qo'ydi. To'g'ri, kapitan hayotni tushungan odam. Ayol uning jo'mardligi, aqliligini juda e'zozlaydi.

– Yo'q, yo'q, – dedi ayol boshini sarak-sarak qilib. – Bu gap ortiqcha. Sizni chin dildan yoqtiraman, biroq oila qurishga kelsak... yo'q. O'rtamizdagi yosh tufayli... Menga tushuntirishga urinmang, xatimda barini aytgandim.

Erkakning oftobrang yuzi birdan lovullab yondi. Biroz jim turdi, so'ng shafaqqa xafaqon tikildi. Bir tekis tizilgan daraxtlar orasidagi dalada o'ynayotgan bolalar lashkargohni eslatardi. Ha, ancha yil bo'ldi lashkargohni ko'rmaganiga. Vaqtni ota deyishadi, chindan ham vaqt kapitanning eski jarohatlarini yuvib ketgandi. Faqat bir necha yildan beri o'zi va baxt haqida o'ylay boshlagandi.

Ayolning barmoqlari titray boshladi, biroq qattiq va metin qo'llar uni kaftiga olgach, bari joyiga tushgandek bo'ldi. Ayol, nihoyat, muhabbat rishtasini ilg'agandek bo'ldi.

Juda qattiq qismang, iltimos, – dedi ayol muloyim tovushda. – Hammasi yaxshilikka bo'ladi. Men bu haqda juda ko'p fikr yuritdim. Bir kun kelib sizga turmushga chiqmaganim uchun qaytanga xursand bo'lasiz. To'g'ri, bir muddat baxtli yashashimiz mumkin, lekin o'ylang! Bir necha yildan so'ng qanaqa tashvishlar yuzaga chiqadi?! Tasavvur qiling: bir oila. Ulardan biri doim o'choq yonidan tura olmay mutolaa qilib o'tiradi, ehtimol, har tong uyga nevrolog yoki revmatizmni davolovchi hamshira ham kelib ketar. Ikkinchisi esa turli ball va taklif etilgan kechki bazmlardan bo'shamaydi. Yo'q, mening do'stim... O'sha payt bu xuddi yanvar va mayni eslatgan bo'lardi. Hozir esa biz go'yo vazmin oktabr va yoshgina iyun kabimiz.

– Nimaiki tilasang, barini bajaraman, Teo. Faqat aysang bas...

– Yo'q, bunday demang. Siz hozir shunaqa deb o'ylaysiz, lekin keyin istamay qolasiz. Iltimos, meni boshqa so'roq qilmang.

Kapitan birinchi marta yengildi. U kuchli jangchi edi. Biroq so'nggi jangi, ming afsuski, mag'lubiyat bilan yakun topdi: gapi og'zida qolgancha yelkalarini o'jiz titramoqda.

O'sha kuni kechki payt kapitan shimolga qaytdi. Er-tangi oqshomda u o'sha xos xonasida o'tirgancha devor-dagi qilichiga tikilishdan bo'shamasdi. Erkak kechki taomga tayyorlanib kiyinib olgan, bo'yniga oppoq galstuk taqqandi. Shu bilan birga u o'zi bilan o'zi gaplashardi.

– Vijdonan aytsam, men Teoga ishonaman, u haq edi. Hech kim bu ayolning go'zalligini rad etolmaydi, u, ehti-mol, yigirma sakkiz yoshdadir...

Bizning kapitan esa atigi o'n to'qqiz yoshda edi. Chin-dan ham u shaharchasining kapitani bo'lgan, uning sevim-li qilichi esa Chattanogodan boshqa hech qayerda na'ra tortmagandi. Bu mitti shaharcha esa Ispan – Amerika uru-shi bo'layotgan yerga yaqin bir hududda joylashgan edi, xolos.

FALAKNING GARDISHI

Xalqaro sudya bo'lmish Benaja Viddup chekish xonasining kiraverishida tamaki tutatardi. Tennesidagi Kemberlend tog'lari tushdan so'ng ko'kish-kulrang tusta qad rostlab turar, qushlar, mitti tovuqlar katta ko'cha bo'ylab kulgili alfozda sayrashardi.

Ko'cha boshida g'ildirakning g'ijirlashi eshitilib, so'ng esa quyuq chang ko'tarildi. Xalqaro sudya oyoq kiyimini ilib, ularga peshvoz chiqish uchun tashqariga qarab yurdi.

– Mana bizlar, – dedi ayol, uning ovozi qarag'ay daraxtlari ichra kezayotgan shamolga o'xshardi. – Ajrashish maqsadida.

Ayol eri Rensiga „Shundaymi“, deganday qarab qo'ydi.

– Ajrashish, – qaytardi er ham hoshini achingannamo silkir ekan. – Biz birga yashay olmaymiz. Yolg'izlikni yengish uchun bu tog'larda ayol va erkakning bir-biriga g'amxo'rliги yetarli edi. Ammo ayol yovvoyi mushukka o'xshab vijillayversa, erning ham u bilan yashashga sabri qolmas ekan.

Xalqaro sudya qonun kitobini ochib, ko'zoynagini taqib oldi.

– Qonun bo'yicha, – dedi – ajrashish jarayonida sudya qatnashsagina, u haqiqiy bo'ladi. Xalqaro sudya ikki insonni birlashtirishi yoki aksincha, ajratishi mumkin. Bu ofis ajrashish dekretini e'lon qilish huquqiga egadir, agar Oliy sud boshqa chora ko'rmasa.

Rensi Bilbro shimining cho'ntagidan kichik xalta chiqardi. Undan esa besh dollar olib, stolga qo'ydi.

– Ayyiq terisi va ikkita tulkini sotib yig'gandim, – dedi er, – bor pulimiz shu, xolos.

– Ushbu sudda ajrashishning o'rtacha narxi besh dollar, – dedi sudya ham.

Sudya pulni, ko'ziga kam ko'rinsa-da, stoldan olib, plashining yon cho'ntagiga tiqdi. So'ngra majburan bir parcha qog'ozga ajrashish dekretini yozdi va ikki nusxada tayyorladi. Barchasi bitgach, baland ovozda o'qib berdi:

„Hammaga ayon bo'lsinkim, Rensi Bilbro va uning rafiqasi Ariyela Bilbro shu kundan e'tiboran va'da berishadiki, ular kelgusida o'zaro sevishmaydi, hurmat qilishmaydi, bir-hirini tinglashmaydi, yaxshi-yomon kunlarda uql va tunga quloq tutishadi. Hamda ular ushbu ajrashish dekretini tan oladilar. Bu yerda nohaqlik bo'lmadi, Xudo sizlarga yor bo'lsin.

Qo'l qo'ydi: Benaja Viddup, Tennesi shtati, Pemont okrugining xalqaro sudyasi“.

Sudya dekretning narigi nusxasini Rensiga tutqazdi.

– Janob sudya, – dedi Ariyela, – hozircha qog'ozni unga bermay turing. Hali ishimiz tugamadi. Birinchidan, mening huquqlarim hal qilinmadi. Avvalo, aliment undirishimiz kerak. Axir, er xotini bilan ajrashayotib, unga bir chaqa to'lamasligi insofdan emas-ku. Men Xogbek tog'iga – ukamning oldiga ketishga qaror qildim. Buning uchun esa menga bir juft oyoq kiyim va boshqa mayda-chuydalar kerak bo'ladi. Rensi ajrashishga pul topibdimi, demak, aliment uchun ham puli bo'lishi shart-da.

Ayol yalangoyoq edi, Xogbek tog'larining esa o'nqir-cho'nqirligi barchaga ma'lum.

– Ariyela Bilbro, – gap boshladi sudya, – siz aliment uchun qancha so'raysiz?

– O'ylashimcha... oyoq kiyim va, umuman, barchasi uchun, aytaylik, besh dollar. To'g'ri, bu yetarli emas-u, lekin, menimcha, ukam Edning uyigacha yetib olsam bo'ladi.

– Siz qo'ygan narx insofsizlik, – dedi sudya. – Rensi Bilbro, siz ajrashmasdan oldin bizning ofisga besh dollar to'lashni taklif etdingiz, to'g'rimi?

– Chunki bor pulim shu edi, – og'ir nafas chiqardi Rensi, – imkonimcha to'lading.

– Umuman olganda, – dedi sudya ko'zoynagidan mo'ralarkan, – siz ayolga behurmatlik qilyapsiz.

– Agar menga ertagacha vaqt bersangiz, – dedi Rensi, – qayerdan bo'lsa ham topib kelardim pulni. Hech qachon aliment to'lashdan qochmayman.

– Faqat ertagacha, – dedi sudya oyoq kiyimini yecharkan.

– Biz tezroq tog'am Ziahning uyiga yetib olishimiz lozim, qorong'i tushmay, – dedi Rensi.

Ular aravaga o'mashishdi, ho'kiz asta qo'zg'aldi.

Er-xotin ketgach, sudya tamakisini tutatgancha, oy ko'rinmaguncha haftalik gazetasini o'qish bilan mashg'ul bo'ldi. Uyga qaytish va kechki ovqat vaqti bo'lgach esa o'rnidan turdi. U tog' bag'ridagi g'o'ladan yasalgan uychada yashardi. Yo'lda u bir uyum daraxt-zorni yorib o'tayotgandi. Bir payt qarshisidan bir odam chiqdi va unga to'pponcha tiradi. Uning shlapasi yuzini to'sib turardi.

– Bor pulingni chiqar, – dedi yo'lto'sar, – faqat ovozingni chiqarma. Yo'qsa barmog'im tepkini bosishga shay turibdi.

– Menda bor-yo'g'i besh dollar bor, – bazo'r dedi sudya.

– Cho'z, – buyurdi o'g'ri, – uni to'pponchamning og'ziga tiq. Keyin esa bermalol ketaver.

Sudya uning aytganlarini so'zsiz bajardi.

Ertasiga tanish arava sudyaning ishxonasida to'xtadi. Undan Rensi Bilbro va sobiq xotini tushdi. Sudya ularga norozi bo'lgan ko'yi tikildi. Er besh dollarni olib kelgandi. Pul kecha o'g'irlatgan besh dollariga o'xshab ko'rinib ketdi. Lekin sudya indamadi.

– Menimcha, endi arava bilan kulbangda qaytsang kerak? – dedi Ariyela eriga. – Tortmada biroz non bor. Dudlangan go'shtni esa kuchuk tegmasin, deb kastrulga solib qo'ygandim. Kechasi soatni burab qo'yishni unutma.

– Ukang Ednikiga borasanmi? – so'radi Rensi.

– Ha, kechgacha yetib olishni mo'ljallagandim. Albat, mening tashrifim ularni quvontirmasligi tayin. Lekin boshqa boradigan joyim yo'q. Yo'l esa uzoq. Senga xayr, Rensi, endi erkinsan.

– Bilmadim, har kim ham bu paytda xayrlashishni istamasa kerak. Sen esa mendan tezroq uzoqlashish ilinjidasan.

Ariyela jimib qoldi. So'ng sekinlik bilan besh dollar va dekretni ko'ylagi orasiga tiqdi.

Sudya esa pul ko'zlaridan yo'qolmaguncha, unga tamshanib tikilib turdi.

– Bugun tunda eski uyingda yolg'iz qolarkansan-da, Rensi.

– Balki, unchalik yolg'izmasdir, kechasi tulkilar uvulashi bilan birgaman-ku, – javob berdi Rensi, – odamlar tentak bo'lib, ajrashishni istasalar, ularni bu yo'ldan to'xtatish qiyin ekan.

– Ba'zilar ajrashishni istaydi, – dedi Ariyela, – buning ustiga hech kim, yonida kimdir bo'lishini istamasa...

– Hech kim hech qachon bunday demagan.

– Yo'q, degan! Shuning uchun ukamnikiga ketishga qaror qildim axir.

– Hech kim o'sha eski soatni burab qo'ymaydi endi.

– Sen bilan aravada ortga qaytishim va soatingni burab qo'yishimni istayapsanmi, Rensi?

Rensi indamay qoldi. Lekin yo'g'on barmoqlari bilan Ariyelaning nozik qo'llaridan tutdi.

– Menimcha, faqat sen soatimizni burab qo'yishing mumkin.

– Mening yuragim sen bilan o'sha kulbada qolayotgandi, Rensi. Endi bunday tentaklik qilmayman. Kel, boshidan boshlaylik... Yur, endi uyga quyosh botmay yetib olaylik.

Sudya ularni to'xtatdi.

– Tennese shtati qonuniga ko'ra, sizlarga ruxsat berolmayman. To'g'ri, sud ikki dilni birlashtirishga xayrixoh, ammo qonunga ko'ra, ajrashganlarni ayiradi. Shuni eslatamanki, sizlar er-u xotin emassizlar, dekret bunga dalil. Sizlarga nikohdan zavqlanishga ruxsat berilmaydi.

Ariyela Rensining qo'lidan ushlab oldi. Nahotki, endi ular toabad ayrilishsa va bu xatolari jabrini bir umr tortishsa?

– Har holda, – davom etdi sudya, – sud ajrashish dekretini bekor qilish qudratiga egadir. Ya'ni qaytadan nikohlanishingiz mumkin. Albatta, buning narxi sizlarga besh dollarga tushadi.

Ariyela jilmaydi. Ko'ylagi orasidan besh dollarni chiqardi-da, sudyaga tutqazdi. Ular qo'llarini ustma-ust qo'yib nikohdan o'tdilar. Keyin esa er-xotin bu yerni tark etishdi.

Xalqaro sudya Benaja Viddup esa chekish xonasining kiraverishida jilmaygancha tamaki chekib o'tirardi. U plashidagi besh dollarni quvongancha ushlab-ushlab qo'yardi. Ko'chada tentak tovuqlar tinmay qichqirishardi.

TOMIRINGIZNI USHLAB KO'RSAM MAYLIMI?

Xullas, men shifokorga yo'l oldim.

– Oxirgi marta qachon alkogol iste'mol qilgansiz? – so'radi doktor.

– Oh, ko'p bo'lmadi, – dedim boshimni u tomon tashlab.

Doktor yoshgina ko'rinar, har holda 20–40 lar orasida edi. Xuddi Napoleonga o'xshab goliotrop paypoqlar kiyib olgandi. U menga negadir yoqib qoldi.

– Unda, – davom etdi u, – men sizga alkogol qon aylanish tizimiga qanchalar ta'sir etganini aytib o'tsam. Xo'sh, o'zi „aylanish“ deyilarmidi? Ehtimol, „joylashish“ deyilar...

U chap qo'limni tizzasiga qo'ydi va bir shisha viskini menga tutqazib, „iching“ deb buyurdi. Chindan ham u tobora Napoleonga o'xshab borardi. Uni yana-da yaxshi ko'rib ketdim.

Keyin doktor bilagimni mahkam bog'ladi va barmoqlari bilan pulsimni ushlab turdi. So'ng esa termometrغا o'xshash apparatga ulangan kauchuk cho'zma bilan bilagimni o'rab siqa boshladi. Haligi termometr ichidagi simob tepa-pastga sakrar, hech to'xtamasdi. Lekin doktorning aytishicha, qon bosimim 200 ga 37 yoki bo'lmasa 100 ga 65, ehtimol, boshqacharoq bo'lishi ham mumkin ekan.

– Endi ko'rdingizmi, alkogol qon bosimiga qanchalar ta'sir ko'rsatishini? – so'radi doktor.

– Juda ajoyib-ku! Lekin sizningcha, bu yetarli asosmi? Keling, bu qo'limda ham sinab ko'ramiz.

Doktor qo'limni qattiq siqdi. Menimcha, u xayrlasha-yotgan edi. Yo'q, unday emas ekan. U keskir igna bilan barmog'imning uchiga nish urdi va qizil tomchilarni ellik sentlik poker shisha siniqlariga tomiza boshladi.

– Bu gemoglobin testi, – tushuntirdi u, – qoningizning rangi juda chatoq-ku.

– Xo'sh, to'g'ri, aslida, ko'k bo'lishi kerak edi. Buning bariga qonlarning aralashuvi sababchi. Ba'zi ajdodlarim kavalyer bo'lgan, Nantaket orolidagi aholi bilan chatishib, shunga...

– Aytmoqchiydikki, – gapimni bo'ldi doktor, – uning rangi juda ham to'q.

– Oh, bularning bari juft tanlashdan kelib chiqqan.

Doktor ko'kragimning ba'zi joylarini taqillatib chiqdi. O'sha payt u nafaqat Napoleon, balki Betling va lord Nelsonga ham o'xshab ketdi. Men unga darrov o'n besh dollar to'ladim.

– Buni (yoki bularning), qaysinisidir (yoki ha'zilarining) peshanamga yozilgani aniqmi? – har ehtimolga qarshi so'rab qo'ydim.

– Hammasi, – javob berdi u bajon-u dil, – lekin ularni vazifasidan ozod qilsa bo'ladi. Doimiy e'tibor va muntazam davolanish orqali siz umringizni sakson besh yoki to'qson yilga yetkazishingiz mumkin.

Men doktorning hisob-kitobi haqida o'ylay ketdim. „Menimcha, sakson besh ayni tobida“ – mening fikrim shu edi. Doktorga yana o'n dollar qo'shib berdim.

– Birinchi qiladigan ishingiz, – dedi u qaytadan tug'ilgandek jonlanib, – dam olishingiz uchun qulay bir

sanatoriya topish bo'lsin, asablaringiz tinchlanishiga imkon bering. Istasangiz, siz bilan borib ma'qul bir maskan topardik.

Xullas, doktor meni Katskills tog'larida joylashgan bir ruhiy xastaxonaga yetaklab bordi. Qip-yalang'och tog' bag'rida tashrif buyuruvchilar zich joylashishgandi. Bu yerda tosh-u shag'al, qor parchalari, to'kilib tushgan qarag'ay daraxtlaridan boshqa narsaga ko'zingiz tushmasligi tayin. Yosh psixolog yoqimtoy va g'amxo'r ekan. U bilagimni cho'zmasi bilan siqmasdan ham qo'zg'atuvchi dori yubordi. Bu payt tushlik mahali bo'lgani uchun biz ham dasturxonga taklif etildik. Kichkinagina stolchada yigirma kishi tamaddi qilar ekan. Yosh psixolog stolimiz yoniga keldi va dedi:

– Mehmonlarimiz o'zlarini bemor sifatida baholamasliklari bizning shiorimizdir. Faqat charchagan ayollar va erkaklarga dam olishi mumkin. Kalondimog' xonimchalarga esa suhbatga aralashish man etiladi.

Yonimdagi doktorim xizmatchiga baland ovozda menga – bemor uchun limonli to'g'ralgan go'sht, non, blinchik, gazli suv va yo'taltiruvchi choy olib kelishni buyurdi. Uning yo'g'on ovozidan yakkam-dukkam qarag'aylar titrab ketdi. Umuman, bu yerda barcha baqirib gapirardi. „Nevrasteniya!“ – degan qichqiriqni men aniq eshitdim, u burundor bir kishi ekan, – „Surunkali alkogolizm“. Uni yana qachondir uchratib qolishga umid qiltardim. Yosh psixolog bizni tark etdi.

Bir soatlardan keyinmi, ishqilib, tushlik tugagach, psixolog bizni uydan ellik yard naridagi ustachilik sexiga boshlab bordi. Bu yerda biz mehmonlarni yosh psixologning sherigi – uzun oyoqli, ko'k sviter kiygan kishi kutib oldi. Uning bo'yi shunchalik baland ediki, yuzini ko'ra olmadim.

– Bu yerda, – dedi yosh psixolog, – mehmonlarimiz mehnat orqali o'tmishdagi ruhiy azoblaridan qutuladilar.

Sexda tokarlik uskunasi, duradgorlik aslahalari, loy qoruvchi asboblar, g'ildirak arqonlari, sinchlar, pastel bilan chizilgan rasm, apparaturalar, temirchilar pechi, umuman, hamma narsa bor edi. Menimcha, bular oyparast mehmonlarda qiziqish uyg'otishi lozim edi.

– Anavi xonim devorga loy uryapti, – ovoza qildi psixolog. – U Lula Lulington, ya'ni „Sevgi nega sevadi?“ novellasining muallifidir. Mana, u mushkul ishdan qutulish uchun o'ziga yaxshi bir ermak topdi.

Ushbu kitobga ko'zim tushgan edi.

– Nega u ermakni qalamdan ola qolmadi ekan-a? – so'rab qo'ydim.

– Mo'riga suv quyayotgan manavi erkak esa, – davom etdi psixolog, – Uolls stritdagi makler edi, yaqinda ishdan ayrilgan.

Men paltomning tugmalarini qaday boshladim.

U ko'rsatgan qolgan odamlar – Nuhning kovchegini o'ynayotgan arxitektorlar, Darvinning evolutsiya nazariyasini o'qiyotgan ministrlar, daraxt arralayotgan advokatlardan, qo'llarida changlatta ushlagan zodagon ayollar, zinada uxlab qolgan asabiy millioner va devorga qizil vagon rasmini solayotgan atoqli rassom kabilar edi.

– Ko'rinishingizdan bardamsiz, – so'z qotdi psixolog menga. – O'ylashimcha, siz uchun eng maqbul mehnat – shag'allarni tog' yonbag'riga tashib, yana qaytarib olib kelishdir.

Men doktorimdan yuz yard olisda edim, xayriyatki, u meni topib keldi:

– Xo'sh, nima bo'ldi? – so'radi u.

– Shu bo'ldiki, bu yerda qulay aeroplan yo'q ekan. Shuning uchun men bajon-u dil ushbu yo'lakchadan yu-

rib, yaqin atrofdagi bekatga boraman-da, shaharga qaytadigan biror avtobusga mingashib olaman.

– Ha, balki, haqdirsiz. Sizga mos joyni topish mushkul ko‘rinadi. Lekin darhol dam olmasangiz bo‘lmaydi. Haqiqiy dam va hordiq!

O‘sha tun men mehmonxonaga bordim va kotibaga aytdim:

– Men faqat dam va hordiq olishim zarur. Shuning uchun katta yig‘ma karavotli xona va dam olayotganda xizmat ko‘rsatuvchi xodim ajratsangiz.

Kotiba tinoqlaridagi bo‘yoqni o‘chirar ekan, vestibuldagi baland bo‘yli va oq shlapadagi kishiga ma‘noli qarab qo‘ydi. Erkak esa yonimga keldi-da, iltifot ila g‘arbiy eshikdagi butazorni ko‘rgan-ko‘rmaganligimni so‘radi. „Yo‘q“, javobimni eshitgach esa menga o‘sha butazorni ko‘rsatdi.

– Ko‘rdingiz deb o‘ylabman, – dedi so‘ng, – menimcha siz, yaxshisi, doktorga borishingiz lozim.

Bir haftadan so‘ng doktorim qonimni yana bir bor tekshirdi. U bu safar unchalik ham Napoleonga o‘xshamasdi. Uning oftobda unniqqan paypoqlari e‘tiborimdan chetda qolmadi.

– Sizga kerakli narsa, – dedi u, – dengiz havosi va dilkash suhbatdosh.

– Siz suv parisini nazarda tutyapsizmi...

– Men o‘zim sizni Long oroli sohillarida joylashgan Boneyr mehmonxonasiga olib boraman. U yerda o‘zingizni tiklab olasiz. Orol tinch, qulay va sizni kuchga to‘ldiradigan maskan.

Boneyr mehmonxonasi to‘qqiz yuzta hashamatli luks xonalar va ajoyib sohilga ega oroli bilan mashhur edi. Tushlikka mos kiyinmagan mehmonlar ichkaridagi ovqatlanish zaliga taklif etilar, faqatgina toshbaqa

go'shti va shampán vinosi bilan siylanardi. Ko'rfazga esa badavlat yaxta egasi tomonidan bezak berilgandi. Dengiz qaroqchisi ham biz u yerga yetib borgan kun sohilga langar tashladi. Doktorim Morgan o'sha payt palubada pishloq kavshagancha, ko'zini mehmonxonadan uzmay o'tirardi. Har holda bu yer baribir ancha qimmat joy ekan. Har kimning ham qurbi yetavermasdi bu yerda tunashga. Yagona yo'li – tunda yukingizni xonada qoldirib, qayiq o'g'irlab, cheksiz dengizga o'zingizni topshirish, xolos. Bu yerga kelganimga bir kun to'lgach, xizmat ko'rsatuvchi stoldan telegramma oldim-da, barcha do'stlaringa qarz yuborishlarini so'rab xat yoza boshladim. Keyin doktorim bilan golf maydonida kriket o'ynadik, so'ng yam-yashil o'tloqda yastanib yotdim. Safarimiz yakunlanib, qaytganimizdan so'ng doktorim so'rab qoldi:

– Aytgancha, o'zingizni qanday his qilyapsiz?

– Rosa yengillashgandekman!

Maslahatchi psixolog boshqacha bo'larkan. U o'ziga men tomonimdan haq to'lanishi aniqmi yoki yo'qligini bilolmagani uchun ehtiyotkorlik bilan ish tutardi. Doktorim uning yoniga yetaklab borganida, u menga g'aribona va g'amxo'rlik bilan nazar tashladi. Bir ko'rishda uni yoqtirib qoldim. U menga ba'zi oddiy mashqlarni qildirib ko'rdi.

– Boshingizning orqasida og'riq sezasizmi? – so'radi u. Men „yo'q“ javobini berdim.

– Ko'zingizni yuming, – buyurdi u, – oyoqlaringizni jamlang va bor kuchingiz bilan turgan joyingizda sakrang.

Sakrash jon-u dilim bo'lgani uchun toza sakrab berdim. Afsuski, uch qadam naridagi, o'zim ochiq qoldirgan yuvinish xonasi eshigining qirrasiga boshimni urib oldim.

Doktorning menga rahmi keldi. Keyin eshikni yaxshilab yopib qo'ydi.

– Endi burningizga o'ng ko'rsatkich barmog'ingizni tirang.

– Qani u? – so'radim ko'zim yumuqligi uchun.

– Yuzingizda turibdi.

– Burnimni emas, o'ng ko'rsatkich barmog'imni aytyapman.

– Oh, uzr... – doktor shunday deb, yuvinish xonasi eshigini qayta ochdi va men qisilib qolgan barmog'imni u yerdan chiqarib oldim. Aytilgan mashqlarni bajarib bo'lgach, gap boshladim:

– Sizni chalg'itish niyatim yo'q, doktor. Chindan ham boshimda qattiq og'riq sezyapman.

Doktor esa yuragimni quloqqa taqadigan ashobi bilan asta eshitib ko'rdi.

– Endi, – dedi u, – xuddi otga o'xshab xonada besh daqiqa choping.

Men Medison bog'ida o'rnatilgan ulkan Percheron otining haykalidan ham zo'r namoyish ko'rsatib berdim. Chaqa yig'ishga ham hozirlanib turgandim, doktor ko'kragimga yana quloq tutdi.

– Oilamda pishillaydiganlar yo'q, doktor, – deb qo'ydim har ehtimolga qarshi.

Psixolog ko'rsatkich barmog'ini burnimga uch marta oborib opkeldi.

– Faqat barmog'imga qarang, – buyurib qo'ydi orada. – Xo'sh, endi derazadan tashqariga qarang. Endi barmog'imga. Endi tashqariga. Endi barmog'imga. Endi derazaga. Endi barmog'imga. Endi derazaga, barmog'imga... – u uch daqiqacha gaplarini takrorladi.

Aytishicha, bu miyaning faolligini tekshiradigan sinov ekan. Lekin juda oson ko'rindi menga. Harakatni baja-

rishda umuman xato qilmadim. U mendan katta tog'amning yelkasida bukrisi yoki jiyanimning to'pig'ida shish bor-yo'qligi haqida so'ragach, bir xulosaga kelish maqsadida ikki doktor yuvinish xonasiga qarab odimlashdi. Men esa olmani paqqos tushirgancha bir barmog'imga, bir tashqariga qarardim. Doktorlar xuddi mozordan chiqqandek bir alfozda kirib kelishdi. Ular murdadek oppoq edilar. Keyin qo'limga parhez qo'llanmasini tutqazishdi. Ro'yxatda iste'mol qilishim lozim bo'lgan va umrim bino bo'lib eshitmagan mahsulotlar bor edi. Birgina tanish so'z – shilliqqurt edi. Shilliqqurtni sira og'zimga olmagan ekanman.

– Bularga rioya qilishingiz shart, – uqtirdi doktorlarim.

– Agar o'ntasidan birini bo'lsa-da topa olsam, albatta, amal qilaman!

– Keyingi eng muhim davo esa ochiq havo va sayr. Aytgancha, sizga g'oyat foydali bir retsept bor edi...

Shundan so'ng ular shlapalarini qo'llariga oldilar, men esa oyog'imni eshikdan tashqariga sudradim. To'g'ri dorixonaga kirib, retseptni ko'rsatdim.

– Bir unsiyasi (28,3 g) 2,87 dollar bo'ladi – dedi dori-xonachi.

– Balki, bir o'ram arqoningizdan berarsiz... – dedim men.

Retseptimni o'rtasidan teshib qo'ydim. Arqonni esa bo'ynimga o'rab tashladim. Hammada biroz bo'lsa-da umid bo'ladi. Mendagi ana shu umid hozirgina so'nib bo'lgandi.

To'g'ri, men o'lar holatda bo'lmasam-da, baribir qattiq betob edim. Ishlolmasdim, uxlolmasdim, bir nima yeyolmasdim, icholmasdim. To'rt kundan beri soqolimni ham qirmadim. Hatto kimdir menga „Ey, og'ayni, xuddi keksa qarag'ayning butoqlariga o'xshab qolibsan. Men (AQSH

shtati) o'rmonzorida bir ko'ngilxushlik qilsang-chi", desa ham ajablanmas edim.

Birdan toza havo, sayr ham lozimligini eslab qoldim. Xullas, janubga – Jonnikiga yo'l oldim. Jon mening yaqinroq qarindoshim bo'lib, xrizantemaŭ dalahovlida yashovchi, qo'lida kichkinagina kitobini ko'tarib yuruvchi va'zxon edi. Uyi Paynvilladan yetti mil naridagi balandlikda joylashgan qishloqda edi. Jon oltindan ham qimmatli va tiniqroq bo'lgan sŭda yig'ardi. U meni Paynvillada kutib oldi, biz poyezdda uning uyiga bordik. Jonning xonadoni tog'lar bag'rida joylashgan, qo'ni-qo'shnisiz kattakon hovli ekan. Qarindoshimning chog'roq stansiyasida bizni Jonning oilasi va Amarillis qarshiladi. Amarillis menga biroz g'amgin nazar tashladi. Tepalikda ko'ringan quyon bir sakrab bizni aylanib o'tdi. Men plashimni irg'itdim-da, quyonning ortidan ta'qib qila ketdim. Yigirma yardlik lo'killashimdan so'ng, nihoyat, quyonning qorasi o'chgach, yam-yashil dalaga yotib oldim-da, yig'lashga tushdim:

– Men endi boshqa quyon ovlolmayman, – o'kindim, – dunyoga ham sig'may qolibman. Balki, o'lib ketsam yaxshi bo'lar...

– Oh, unga nima bo'ldi, hazrat Jon? – men Amarillisning ovozini tanidim.

– Asablari biroz charchagan, – tushuntirdi Jon osoyishtalik bilan, – xavotir olma. Ey, tura qol o'mingdan, quyon ovlovchi, uyga kiraylik, shirinliklar mahtal bo'lib qoldi-ku.

Shom payti edi, ulug'vor tog'lar Morfri xonim tasvirlaganidan kattaroq, salobatliroq tuyulardi.

Kechki ovqatdan so'ng, o'zimni xuddi bir-ikki yil uxlamagan odamdek to'shakka tappa tashlashim buyurirdi.

Shuning uchun meni katta va sovuq gulxonaga kuzatishdi. Xonamda maysazor kabi keng yotoq ham bor edi. Sal o'tib uydagi shovqinlar tingach, o'tloqqa sukunat cho'kdi.

Necha yillardan beri bunaqa jimjitlikning guvohi bo'lmagandim. Tirsagim bilan yonboshlagancha sokinlikka quloq tutdim. „Uxla...“ – bu so'zlar milt-milt yonayotgan yulduzlar va shitirlayotgan barra maysalarning tovushi edi. Birdan yorug' deraza qarshisida tungi qush paydo bo'ldi. U uyqusiragan ovozi bilan „chip“ deb sayrab qo'ydi. Boshimni tashqariga chiqarishga urindim.

– Hoy, bu yerda nimalar bo'lyapti? – baqirdi Jon o'z xonasidan turib.

– Oh, bari joyida. Shunchaki boshimni shipga urib oldim.

Ertasiga saharlab ayvonga chiqdim va tog'larga tikildim. Ular, taxminan, 47 ta edi. Etim junjikkancha, zaldan o'tib, mehmonxonaga kirdim. Kitob javondan „Pankost oilasining tibbiyot amaliyotlari“ nomli kitobini tanladim-da, o'qishga tushdim. Jon xonaga kirib qo'limdan kitobni olib qo'ydi va tashqariga boshladi. Uning uch yuz akr yerida pichanxona, qo'ylar, dehqonlar va tishlari to'kilgan borona¹ ko'zga tashlanardi. Bunaqasini bolaligimda ko'rgandim va o'shanda yuragim orqaga tortib ketgandi.

– Eh, ha! – dedim, – bu manzara bir qo'shiqda kuylangandi: „Kel, ko'raylik...“

– O't-ajriqlarni... – gapimni bo'ldi Jon, – talabga ko'ra, birinchi mavsumdayoq yulib tashlash shart.

– Bilaman. Bo'lmasa, hamma yoqni o't bosib ketadi.

– To'ppa-to'g'ri. Dehqonchilikdan xabaring bor ekan, har tugul.

¹Barona – yer haydashda ishlatiladigan mashina.

– Ba'zi fermerlardan o'rgangandim. Ularni o'roq bilan o'rish kerak.

Uyga qaytayotganimizda yo'lni ajoyib va g'ayritabiiy bir jonzot kesib o'tdi. Unga hayratlanib tikilib qoldim. Jon xotirjamlik bilan sigara tutatgancha meni kutib turdi. O'n daqiqadan so'ng dedi:

– Kun bo'yi shu jo'jalarni kuzatib o'tirmoqchimisiz? Nonushta tayyordir, allaqachon.

– Jo'ja? – takrorladim men.

– Aniqrog'i, oq ortington tovuqlari.

– Oq ortington tovug'i? – ularga juda qiziqib qoldim. Bu qushlar juda sekin va xirom bilan qadam tashlashardi. Ularni xuddi bolalarimdek ortimdan ergashtirdim. Besh daqiqacha ular bilan o'ynaganimdan so'ng Jon qo'limdan sudrab uyga olib ketdi.

Bu yerga kelganimga bir hafta to'lgach, meni xavotir bosa boshladi. Chunki men yaxshi uxlardim, to'yib ovqatlanardim va hayotdan zavqlanardim. Mendek nochor uchun bu kutilmagan hol edi. Shuning uchun tramvay bekatiga yugurdim-da, Paynvillaga ulov yolladim. U meni shaharchaning eng atoqli psixologi tomon eltdi. Bu safar men doktorlarga qanday murojaat qilishni yaxshi o'rganib olgandim. Shlapamni qo'limga olib, tez-tez gapira ketdim:

– Doktor, yuragimda jigar serrozi boshlangan, arteriya tomirlarimni yog' bosgan. Nevrasteniya, nevririt, hazm yo'lining o'tkir buzilishi va sog'ayish holatlari kuzatilyapti. Qattiq diyetadaman. Har tong sovuq, tunda esa issiq vanna qabul qilishim lozim. Har kimga tirjayib qarashim va miyamni ezgu fikrlar ila to'ldirishim shart. Fosforli dorilarni esa kuniga uch mahal qabul qilaman. Shuningdek, turli giyohlardan tayyorlangan damlama ichaman. Aytgancha, xayrli tong!

Shlapamni kiydim-da, xonani tark etdim. Eshikni yopganimdan so'ng yana bir muhim gapni aytmaganim esimga tushdi. Qaytishga majbur bo'ldim. Doktor hamon o'sha joyida o'tirar, biroq menga ko'zi tushib, biroz asabiylashdi.

– Aytishni unutibman... Men mutlaq dam olishim va hordiq chiqarishim zarur.

Dardimni aytgach, ancha yengil tortdim. Miyamni o'zimning umidsiz kasallikka yo'liqqanim haqidagi fikrlar bilan to'ldirgach, oldingidan-da g'amgin yashashimga ishonch uyg'ondi. Nevrasteniyalar uchun sog'lig'ini tiklash va baxtli bo'lish haqidagi o'ylar befoyda.

Jon meni obdan parvarish qilardi. Oq ortington tovuqlariga qiziqishimni ko'rgach, meni o'shalar bilan chalg'itar, ba'zida tunda ham jo'jalarning qo'nog'ini ochiq qoldirardi. Tog'larning musaffo havosi, to'yimli taomlar, har kunlik sayrlar asta-sekin dardimga shifo bo'la boshladi. Biroq men g'oyat baxtsiz va ma'yus edim. Shuning uchun tog'da istiqomat qiladigan qishloq tabibi haqida surishtirdim. Uning yoniga borib, o'tgan bor voqealarni so'zlab berdim. Tabib kulrang soqolli, tiniq, ko'kish ko'zlari atrofiga ajin tushgan bo'lib, qo'lda tikitgan jinsi kiyib olgandi.

U menga qo'yilgan tashxis qog'ozlarini o'rgandi, ko'rsatkich barmog'im bilan o'zimga burnimni ushlatib ko'rdi, tizzamga urdi, ko'kragimni tingladi, tilimni chiqarib tomosha qildi. Men esa undan Paynvillada marhumni ko'mish marosimi qanchaga tushishi haqida so'radim.

Doktor trubka chekarkan, menga uch daqiqacha termilib qoldi.

– Uka, – dedi so'ng – sen hozir noto'g'ri yo'l tutyapsan. Senda barchasini o'zingdan soqit qilish imkoni bor, bu arzimlas narsa.

– Nima qilish mumkin? – soʻradim toqatsizlanib, – men margimush, oltin, fosfor, jismoniy mashqlar, nuks vomika, gidroterapevtik vanna, hordiq, asabiy holat, kodein va ammiakning xushboʻy spirti kabilardan foydalandim. Farmakologiyada yana nima qoldi oʻzi menga atalgan?

– Mana shu togʻlarning bir yerida senga davo boʻluvchi gulli bir oʻsimlik mavjud. Faqat oʻshagina seni qutqaradi. U xuddi yerimiz kabi qadimiy buta, biroq uni topish juda mushkul. Biz ikkimiz uni qidiramiz. Toʻgʻri, hozir kuch-quvvatim biroz kamaygan: anchadan beri yolgʻizman, ammo sen bilan, albatta, shugʻullanaman. Sendan talab shuki, har kuni tush mahali kelib, menga oʻsimlikni izlashga koʻmaklashasan. Shahar doktorlari yangidan yangi dori-darmonlar haqida yaxshi bilishadi, biroq tabiatning oʻzi insonga davo ekanligini baʼzan unutilib qoʻyishadi-da.

Xullas, men bu keksa tabib bilan har kun yagona umidimni izlab togʻ va Blu Rijdagi barcha oʻsimliklarni titib chiqdim. Biz kuzgi barglar toʻkilgan sirgʻanchiq togʻ yoʻllari boʻylab yiqitmaslik uchun butoqlarga tirmashganча tepaga intildardik. Jar va gʻorlarni ortda qoldirib, qirqquloq va dafnalarning boʻyidan simirib, koʻl sohillaridan oʻtib, hindiylarga oʻxshab qaragʻayzorlarni kezdik, umuman, yoʻllar, balandliklar, daryolar, togʻlardagi bari oʻtsimonlarni oʻrganib chiqdik. Tabib aytganidek, unga yetishish juda ogʻir ekan. Lekin biz izlashdan tolmasdik. Kundan kunga bu moʻjizakor gulni izlab vodiylarni kavlashtirar, balandliklar oʻlchamini olar, yassitogʻliklarda daydirdik. Har doim uyga horib-tolib kelar, koʻzimga uyqudan boshqa narsa koʻrinmasdi va tonggacha dong qotib yotardim. Bu ahvol bir oy davom etdi.

Bir kuni kechki payt olti millik sargardonlikdan qaytib kelgach, Amarillis ikkimiz yo'l bo'yidagi daraxt ostida bir-
roz aylandik. Biz tun bag'riga o'zining siyohrang ridosini
kiydigan ko'hna tog'larni tomosha qilardik.

– Ahvolingiz bardamligidan xursandman, – dedi u, –
birinchi marta sizni ko'rganimda qo'rqib ketgandim. Ju-
dayam og'ir bemor edingiz.

– Haliyam o'shandoq! – qichqirdim men, – yashab qo-
lish uchun mingdan birgina umidim borligini bilasizmi o'zi?

Amarillis menga ajablanib boqdi.

– Nega unday deysiz? Ko'rinishdan juda baquvvatsiz,
o'n-o'n ikki soat uxlaysiz, ishtahangiz ham chakkimas.
Sizga yana nima kerak?

– Aytaymi? Biz izlayotgan sehrli o'simlikkina meni
saqlab qolishga qodir, boshqa hech nima! Tabib shunday
dedi.

– Qaysi tabib?

– Qora Oak tog'ida yashovchi Tatum ismli kekxa
tabib. Uni taniysizmi?

– Bir vaqtlar gaplashgan edim. Har kuni uning yoniga
borasizmi? Demak, sizni rosa horitib, jismonan chiniqti-
ruvchi, g'ayratga chorlovchi odam shu ekan-da. Xudo uni
yorlaqasin!

Ayni shu dam ko'chada shaloq aravasini imillab min-
gancha o'tib ketayotgan tabibimga ko'zim tushdi. Men
unga qo'limni silkitdim va ertaga har doimgi vaqtda
uchrashishimizni aytib baqirdim. Tabib ulovini to'xtatdi
va Amarillisni chaqirdi. Ular besh daqiqacha gaplashishdi,
men esa jimgina kutdim. So'ng kekxa do'stim ketdi.

Amarillisning uyiga borgach, ensiklopediyani ochib,
bir nimalarni izlay boshladik.

– Tabib aytdiki, – tushuntirdi u, – endi uning oldi-
ga bemorman, deb borishingizga hojat yo'q ekan. Agar

do'st sifatida tashrif buyursangiz, uning boshi osmonga yetarkan. Keyin u aytdiki, ismimning ma'nosini lug'atdan bilib olishing lozim emish. Ismimning ma'nosi g'aroyib gul nomi bo'lib, qishloq joylarda o'sadi. Tabib nega bunday dedi ekan-a?

– Men bilaman nimaligini... – javob berdim, – endi tushundim!

Bu haqiqiy hordiq va dam olish degani!

Amarillis bilan soya ostida oltinchi sezgi ila suhbatlashishdan, ko'm-ko'k tog'larda, aslida, mavjud bo'lmagan butani izlashdan boshqa yana qanday shifo bo'lishi mumkin? Aslida, Nevrasteniya xonim yonimda ekan-ku! Tabibning so'nggi muolajasi samara berishni boshlayapti...

MORELLA

*Yakka-yu yagona bo'lganing holda o'zingga,
faqat o'zingga o'xshagin.
Aflotun*

Men qadrdon Morellaga samimiy, chinakamiga ipsiz bog'lanib qolgandim. Biz ko'p yillar muqaddam tasodifan tanishgandik, uni birinchi marta ko'rganimdayoq yuragimni alanga chulg'ab oldi, garchi bu ehtiros alangasi bo'lmasa ham, uning mavhum mohiyatini anglay olmasligim va xira yolqinini udda qilolmasligimga ishonch hosil qilguncha uzoq vaqt ikki o't orasida qoldim. Taqdir bizlarni bir-birimizga ro'para qilgandi, nihoyat nikohdan o'tdik; shunga qaramay ehtiros olovi ham yuragimni o'rtamas, binobarin muhabbat haqida so'z ham bo'lishi mumkin emasdi. U esa ommadan o'zini olib qochar, butun borlig'ini menga baxshida etib, kaminani baxtiyor qildi. Zotan, mulohaza yuritib ham, shirin xayollar og'ushida ham baxtiyor bo'lish mumkin.

Morellaning o'qimagan kitobi yo'q edi. Qasam ichib aytamanki, nihoyatda qobiliyatli bo'lib, tafakkuri ham teran va antiqa edi. Men uning noyob xislatini qadrlash barobarida ko'p narsalarni o'rgandim. Lekin ko'p o'tmay u (ehtimol, bu Presburgda tarbiya olganining oqibatidir) menga hamisha mistik, ya'ni g'ayrioddiy voqealarga bag'ishlangan asarlarni tavsiya qilayotganini payqab

qoldim, binobarin, bunday asarlar ibtidoiy nemis adabiyotining bema'ni uydirmalari hisoblanadi. Men sira ham tushuna olmaydigan sabablarga ko'ra, u ayni shunday asarlarni qo'ldan qo'ymay sevib mutolaa qilardi, keyinchalik kamina ham mazkur asarlarga ruju qo'ydim. Bu ham Morella tufayli edi.

Bunga – agar o'zimni aldamayotgan bo'lsam – tafakkurimning hech qanday daxli yo'q edi. Men o'qigan asarlardagi mistik voqealar – balki, qattiq yanglishayotgandirman – na ishonch-u e'tiqodimga, na xatti-harakatlarimga, na fikr-mulohazalarimga hech qanday ta'sir ko'rsatgani yo'q. Bu borada sobitqadam bo'lganim holda inon-ixtiyorimni xotinemning qo'liga topshirdim va biron-ta ham tukim qilt etmasdan unga xos izlanishlarning boshi berk ko'chalariga sho'ng'idim. Deyarli taqiqlangan sahifalar uzra bosh egarkanman, ko'nglim ichra taqiqlangan g'alayonlar bosh ko'tarayotganini his etardim. Morella esa muzday kaftini qo'limga qo'yar ekan, mavhum falsafaning kullari ostidan ohori ketgan antiqa so'zlarini paypaslab topar, bu so'zlarning sirli mazmuni xotiramga tang'aday muhrlanardi. Men uning yonida soatlab o'tirgancha talaffuzidagi sehri ohangga mahliyo bo'lardim, oxir-oqibat uning musiqaday ovozi yuragimga vahima sola boshladi – ko'nglimni qandaydir ko'lanka qoplab oldi va zaminga deyarli begona bu nidolardan rangim o'chib, vahimaga tushadigan bo'lib qoldim. Shod-u xurramlik shu asno daf'atan dahshatga, go'zallik timsoli esa vahimali manzaraga aylandi.

Men qayd etgan risolalar asosida kechadigan suhbatlarimiz mazmunini bayon qilishimning hojati yo'q, lekin biz uzoq yillar mobaynida Morella bilan faqat shu mavzuda bahslashardik. Ta'bir joiz bo'lsa, ilohiyot axloqi deya nomlanadigan ilm bilan shug'ullangan odam

borki, nimalar haqida suhbatlashganimizni tezda anglab oladi, biroq bu ilmdan yiroq kimsalar bizning suhbatimiz mohiyatini hech qachon tushuna olmaydi. Fixtning qizg'in nasihatbozligi; Pifagor izdoshlarining ikkinchi marta tug'ilishga oid ta'limotlarining biroz buzilgan shakli hamda eng asosiysi, Shelling ta'riflagandek, ayniyat, aynan o'xshashlik ta'limoti – nihoyatda serhayajon, Morella ayni shu mavzularga alohida ixlos bilan qarardi. Shaxsiy ayniyatni, o'xshashlikni, yanglishmasam, janob Lokk, mulohazakor jonzotning oqilona tafakkur yuritishi, deya ta'riflaydi. „Shaxs“ deganda esa toki mulohaza yuritish qobiliyatiga ega ratsional ibtidoni anglar ekanmiz, qolaversa ong hamisha mulohaza yuritgani bois, ayni mana shu jihatlar fikrlaydigan boshqa jonzotlardan bizlarni farqlantirib turadi. O'limdan keyin yo'qolib ketadigan – balki, yo'qolmaydigan shaxs bilan bog'liq tasavvur hamisha meni astoydil qiziqtirardi. Nainki jozibador va ziddiyatli bo'lgani bois, balki Morella bular haqida hayajon bilan hikoya qilgani tufayli bu jumboq fikr-u zikrimni rom qilgandi.

Oxir-oqibat shunday palla keldiki, xotinimning aql bovar qilmas sirli fe'l-atvori go'yo yovuz qasamyod singari meni g'azablantira boshladi. Uning ingichka rangpar barmoqlarini ushlashdan ham, sokin musiqaday ovozidan ham, g'amgin nigohlarining beozor yolqinlaridan ham jirkanadigan bo'lib qoldim. Buni u ham sezardi, biroq ta'na qilmasdi; nazarimda, mening ojizligimni, to'g'rirog'i, telbaligimni anglab yetgandi, buni Qismat deb atay boshlagandi. Yana shunday tuyulardiki, meni asta-sekin begonalashtirgan mavhum sababni xotinim bilardi, lekin bu nima ekani haqida menga bir og'iz ham gapirmagan, hatto sha'ma ham qilmagan. Ammo nima bo'lganda ham u ayol edi va kun sayin so'nib borardi. Nihoyat, yonoqlarida bir

juft qizil dog' paydo bo'ldi, dokaday oppoq manglayidagi ikkita qilday qon tomirlari esa ko'kimtir tus olib, ko'zga tashlanib qoldi; bir soniya unga rahmim kelib mehrim tovlandi, lekin uning iztirob to'la ko'zlariga nigohim tushgani hamono yuragimni shunday sarosima va qo'rquv qurshab oldiki, tubsiz chohning tubiga ko'zi tushganda boshi aylanib ketgan odam shunday vahimaga tushadi.

Morellaning nihoyat jon taslim qilishini iztirobli sabrsizlik bilan kutganimni qanday bayon qilsam ekan? Men tezroq undan xalos bo'lishni istardim, biroq uning joni holdan toygan tanasiga chippa yopishib olgandi – bu azob kunlab, haftalab, oylab davom etishi oqibatida aql-u hushimni yo'qotib, jazavaga tushdim va xotinimning qisqa hayoti so'nib borgani sayin gu'yo uzaygandan uzayib borayotgan – kun zavolga yuz tutganda soyalar shu asno uzayadilar – kunlar, soatlar, lahzalarni alam bilan la'natlay boshladim.

Lekin samoda shamollar ham tingan kuz kunlarining birida Morella meni to'shagi yoniga chorladi. Butun zamin uzra rangpar tuman pardasi to'shalgan, havzalardagi suv yuzida quyosh nurlari jilvalanar, oltinday o'rmonlar uzra kamalak tovlanardi.

– Nihoyat, muborak sana keldi, – dedi u men yaqinlashganimda. – Bu yashash uchun ham, jon taslim qilish uchun ham muborak kun. Zamin va hayot o'g'lonlari uchun sharafli kun... lekin samovot va ajal qizlari uchun yana ham hayratomuz sana!

Men manglayidan o'pdim, u davom etdi:

– Men jon beryapman, lekin barhayot yashayman.

– Morella!

– Butun hayotimiz mobaynida meni sira ham sevganing yo'q, biroq hayotligimda mendan jirkangan bo'lsang ham, vafot etganimdan keyin xotiramga sig'inib yashaysan.

– Morella!

– Men nihoyat jon taslim qilyapman. Lekin bag'rimda sen Morellaga ilingan bir paysa, atigi bir paysa mehringning samarasi barhayot. Men jon berishim arafasida sening va mening, ya'ni Morellaning farzandi dunyoga keladi. Biroq sening hayoting qayg'ular girdobida kechadi, sarv barcha daraxtlardan chidamli bo'lgani kabi o'zga barcha tuyg'ular orasida bu qayg'uga ham zavol begona. Illo, saodatli onlaring ortda qolib ketdi, shod-u xurramlik chechagi esa bir inson hayotida ikki marta gullamaydi, faqat Pestungina yiliga ikki marta gullaydi. Anakreont singari ortiq vaqt bilan o'ynashmaysan, lekin chamber va novdalardan uzilgan barg kabi, aftoda holda o'limni bo'yniga olib haj safariga otlangan mo'min kabi hamisha kafanga chulg'anib yurasan.

– Morella! – qichqirdim men. – Morella, bularning barchasini sen qayoqdan bilasan!

Lekin u yuzini o'girib oldi, oyoq-qo'li xiyol titradi; shu asno jon berdi, uning ovozi ortiq eshitmadim.

Biroq u karomat qilgandek, hayotdan ko'z yuma turib dunyoga keltirgan qizalog'i, onasining nafasi to'xtashi bilan nafas ola boshlagan bolasi haqiqatan ham tirik qoldi. Qolaversa, qizim jismonan va ruhan juda g'alati tarzda ulg'aya boshladi, shuningdek, marhuma onasiga ikki tomchi suvdek o'xshardi va men zamin farzandlariga nisbatan bunday tuyg'uni his etib bo'lmaydi, degan azaliy fikrimga zid ravishda unga cheksiz mehr qo'ydim.

Lekin mazkur beg'ubor muhabbat osmonini ko'p o'tmasdan xavotir, dahshat va kulfat bulutlari qurshab oldi. Qizaloq jismonan va ruhan g'alati tarzda ulg'aya boshlaganini aytdim. U g'alati tarzda bo'y cho'zardi, lekin ruhan ulg'ayishini kuzatish asnosida ko'nglimni dahshatli, hatto o'ta dahshatli fikrlar chulg'ab oldi! Norasida qizaloqning

soʻzlarida balogʻat yoshidagi ayolning tafakkuri va qobiliyatlari aks etayotganini har kuni koʻraverganimdan keyin dahshatga tushmay nima ham qila olardim? Yoshgina bolakay tajribali inson xulosalarini bayon qilardi-da. Boz ustiga, uning yirik oʻychan koʻzlarida har soatda tamomila boshqa yoshdagi insonga xos donishmandlik va ehtirosning guvohi boʻlardim. Bularning barchasi, yana takrorlayman, dahshatdan falajlanib qolgan kechinmalarim uchun kunday ravshan boʻlganda, bularning barchasini oʻzimdanda ham yashira olmaydigan, hatto inkor etish tashnaligi bilan ortiq kurashishga holim qolmaganda, dahmada mangu uyquda yotgan Morellaning gʻayrioddiy tahayyuli va gʻaroyib taʼlimotlariga fikran murojaat qilganimga oid gʻalati va vahimali gumonlar girdobida qolganimga ajablanishning hojati bormikan? Taqdir meni sigʻinishga majbur qilgan nuri diydami, jonimdan ham ortiq yaxshi koʻrgan farzandimni qiziquvchan nigohlardan panada, deyarli xilvatda, hech vaqoni ayamadan, qolaversa biron-bir jihatni eʼtibordan soqit qilmasdan tarbiyalar edim.

Yillar oʻtib borar, men esa qizimning bamisoli rohibalarday muloyim va jozibali chiroyiga, novdaday qaddi-qomatiga uzzukun tikilardim, uning qiyofasida marhuma onasi bilan oʻxshash jihatlarni kun sayin tobora koʻproq topardim. Bunday oʻxshash jihatlar esa soat sayin koʻpayib borar, tobora shubhasiz, tobora aniq boʻlib borar, ustiga ustak tobora mavhum va tamomila dahshatli tus olardi. Uning onasi kabi tabassum qilishiga chidardim, biroq baayni onasi singari kulishidan larzaga tushdim; uning koʻzlari Morellaning koʻzlariga oʻxshashiga chidagan boʻlardim, biroq u tobora hukmfarmolik va anglab boʻlmaydigan nigoh bilan koʻksimni teshib yuborgudek tikilardiki. faqat Morella shunday sirli nigoh sohibasi edi. Uning keng manglayi ham, ipakday mayin sochlari

ham, sochlarini taroqday taraydigan rangpar, ozg'in bar-moqlari ham, qayg'uli taronaday ovozi ham xotinimni beixtiyor yodimga solar, nihoyat eng muhimi (ha, ha, eng muhimi!) o'lgan xotinim aytgan so'zlar va iboralarni sevimli qizimning og'zidan takror-takror eshitarkanman, „Yo'q, yo'q, xotinim o'lmagan“, degan dahshatli fikrdan vahimaga tushardim!

Oradan ancha vaqt o'tganiga qaramay, qizim hamon mahbusday tutqunlikda yashardi. „Bolaginam“, „Ko'zimning oq-u qorasi“ – men qizimdan mehrimni darig' tutmasdim, lekin tashqi olamdan uzilib qolgani uchun boshqalar bilan suhbatlasha olmasdi. Morella vafot et-gandan keyin uning ismini ham unutib yuborishga urin-dim. Onasi haqida qizimga ham hech qachon hech narsa demaganman – unga onasi haqida so'zlab bera olmasdim. Qisqagina hayoti davomida tutqunlikdagi qizim uchun tashqi olam begonaligicha qoldi. Nihoyat, cho'qinti-rish marosimi sarosimada qolgan idrokimni xalos qilish va qismat dahshatlaridan najot topish uchun imkoniyat yaratdi. Cherkovning suv to'la jomi oldida turarkanman, qizimga qanday ism qo'ysam ekan, deya boshim qotdi. O'tmishda yaqin-u olis o'lkalarda yashagan, qolaversa ayni kunlarda umrguzaronlik qilayotgan ko'plab oqila va ajoyib ayollarning ismlari ko'nglimdan kechardi, haqiqat-an ham qalban beg'ubor, baxtiyor va bag'rikeng go'zal ayollar ko'p-ku, deb o'ylardim. Biroq vo darig'ki, mar-hum va dahmada yotgan xotinim ruhini bezovta qilishga meni nima undadi? Esga olishning o'ziyoq odamning tepa sochini tikka qilib yuboradigan xotinning ismini qaysi bir yovuz iblisning qutqusi bilan tilga oldim? Nimqorong'i cherkov ichida va sassiz tun og'ushida ruhoniyya qara-ta uch bo'g'indan iborat Morella ismini aytishga qalhim tubidagi qanday yovuz kuch majbur qildi? Va yovuz ar-

vohdan ham qudratliroq allaqanday sinoat farzandimning qiyofasiga rahna soldi va hayot zavqini butku! o'chirdi. Ayni shu pallada men shivirlab aytgan ismni eshitgani hamono shishaday sovuq ko'zlarini zamindan uzib samolarga qadagancha, oilaviy dahmamizning qora toshi uzra ojizona yotarkan, shunday dedi:

– Men shu yerdaman.

Bu oddiy so'zlar yuragimni daf'atan muzlatib yubordi, keyin esa eritilgan qo'rg'oshinday jizillagancha idrokimni kuydirdi. Yillar... yillar tarix qa'riga singib, iz qoldirmay g'oyib bo'lishi mumkin, biroq ayni lahza bilan bog'liq xotira – hech qachon ketmaydi! Shu-shu chechaklar-u gullarni nainki unutib yubordim, balki mevasiz sarv-u zaharli o't-o'lanlar qora ko'lankaday doimiy hamrohimga aylandi. Shu-shu zamonni ham, makonni ham unutdim, peshanamga bitgan yulduzlar ham so'ndi, zamin uzra zulmat cho'kdi, odamlar esa yonimdan xira soyalarday o'tib borishar, ular orasida faqat va faqat Morellani ko'rardim! Shamollar qulog'imga faqat bir so'zni shivirlar, dengiz to'lqinlari ham faqat Morella ismini takrorlardi. Lekin uning ham umri qisqa ekan, vafot etdi; uni dahmaga o'z qo'llarim bilan ko'tarib bordim, dahmaga ikkinchi Morellani qo'yganimda birinchisidan nom-nishon ham topa olmasdan, alam bilan, telbalariday qah-qah urib uzoq kuldim.

HAYOTNING BESH TORTIG'I

Bir kuni erta tongda Pari o'z savatini ko'tarib yosh yigitning huzuriga tashrif buyuribdi.

– Bular mening sovg'alarim. Ulardan xohlagan bit-tasini tanlab ol, qolganini qaytarib olib ketaman. Ammo tanlovda juda ziyrak bo'l, ularning orasida faqat birgina sovg'a juda qimmatlidir! – debdi Pari yigitga.

Sovg'alar quyidagilar edi: Shuhrat, Sevgi, Boylik, Rohat va Halollik.

Yosh yigitcha besabrlik bilan debdi:

– O'ylashga hojat yo'q. Men Rohatni tanlayman!

Shunday qilib, yigitga uch yil muhlat berilibdi. Ammo qisqagina shu hayot behuda va zerikarli o'tibdi. Oxir-oqibat yigit uch yilini xazon qilgach, „Vaqt ortga qaytsa, Parining boshqa tortig'ini tanlagan bo'lardim“, deb o'kinibdi.

Bir payt uning yonida Pari paydo bo'libdi va debdi:

– Mening to'rta sovg'am qoldi. Senga yana bir bor tanlash imkonini beriladi. Ular ichidan a'losini tanla!

Yigit uzoq o'ylab, Sevgini tanlashga qaror qilibdi. Ammo Parining ko'zidan tomayotgan ko'z yoshlarni sezmad. Oradan belgilangan yil o'tib, erkak qabr tepasida turardi, yonida esa hech kim yo'q edi.

„Hamma suygan ayollarim mendan voz kechdi. Mana, oxirgi sevgan insonim ham mendan oldin u dunyoga yo'l oldi. Sevgi deya minglab soatlarim anduhda o'tdi. Tanlovimdan afsusdaman!..“

Pari yana uning yonida paydo bo'libdi:

– Yana bir bor tanla. Unutma, ular ichida birgina qimmatlisi mavjud. Juda ehtiyotkor bo'li!

Erkak o'ylay-o'ylay Shuhratni tanlabdi. Pari esa unga bir so'z demay ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Yillar o'tib, Pari uning yoniga yana kelib, erkakning xayolidan o'tayotgan har bir fikrni o'qib olibdi.

„Mening nomim dunyoga tanildi. Ismim tillarda doston bo'ldi, bundan avvaliga mamnun edim. Keyin esa hasad, g'iybat, ig'vo, ko'rolmaslik kabi qora xayollar meni o'rab oldi. Yonimda ishonchli qadrdonim qolmadi, juda g'aribman. Tanlovda yana adashgan ekanman!..“

– Unda yana bir bor urinib ko'r. Atigi ikkita sovg'am qoldi.

– Boylik – bukuch. Avval ko'r bo'lgan ekanman. Hayotda eng badavlati o'zim bo'laman. Hatto odamlarni ham sotib olaman. Dunyoning bari lazzatlari oyog'im ostiga to'kiladi, umr bo'yi rohatda yashayman. Umrinni noto'g'ri tanlovlarga bag'ishladim, bu gal adashmayman.

Oradan uch yil o'tgach, erkak eski-tuski ro'dapoga o'ralganicha bir chetda turardi. Uning ahvoli g'oyat achiqarli, ko'zlaridan tinmay yosh oqardi.

– Men to'rt ajoyib sovg'ani tanladim. Ammo nega bari menga omadsizlik keltirdi? Naqadar ahmoq ekanman! Pari nazarda tutgan sovg'ani nega olmadim-a?! Hoy-u havasga, aldanchi va o'tkinchi narsalarga uchdim.

Pari uning yoniga kelib, bergan to'rt sovg'asini qaytarib olibdi.

– Menga atalgan o'sha oxirgi sovg'ang qani?

– Afsuski, uni boshqa bir inson tanladi. Endi Halollik u bilan toabad birga, qaytarib ololmayman. Senga esa faqat uzoq keksalik hamroh bo'ladi.

MUNDARIJA

| | |
|---------------------------------|----|
| Nashriyotdan | 3 |
| Robert Fish | |
| Samolyotdagi o'g'irlik | 5 |
| Uilyam Folkner | |
| Sartarosh | 18 |
| Barbara Rodi | |
| Qaysar qizning quyilishi | 40 |
| Lengston Xyuz | |
| Rahmat sizga, oyijon! | 53 |
| Jennifer Adams | |
| Umid yulduzi | 58 |
| Karla Fodor | |
| Sovg'a | 62 |
| Rey Bredberi | |
| Koinot sovg'asi | 63 |
| Irving Shou | |
| Yozgi ko'ylakdagi qizlar | 66 |
| Albert Mals | |
| Dunyodagi eng baxtli odam | 71 |
| Ernest Xeminguey | |
| Yong'irda qolgan mushuk | 81 |
| Oddiy sinov | 85 |
| Begona mamlakatda | 91 |

| | |
|--|-----|
| Toni Morrison | |
| Nuridiydam | 101 |
| Oliver Genri | |
| Yozilmagan hikoya..... | 113 |
| Sevgi rejasi..... | 119 |
| Oktabr va iyun..... | 123 |
| Falak gardishi..... | 127 |
| Tomiringizni ushlab ko'rsam maylimi? | 132 |
| Edgar Po | |
| Morella..... | 147 |
| Mark Tven | |
| Hayotning besh tortig'i | 155 |

Adabiy-badiiy nashr

ROBERT FISH

SAMOLYOTDAGI O'G'IRLIK

Hikoyalar to'plami

„Ziyo nashr“ nashriyoti

Toshkent – 2020

| | |
|-----------------|-------------------------|
| Muharrir | <i>Oybek Xaydarov</i> |
| Badiiy muharrir | <i>Maftuna Vahobova</i> |
| Musahhib | <i>Gulandom Umarova</i> |
| Sahifalovchi | <i>Umar Qodirov</i> |

Nashriyot litsenziyasi AA № 0008, 27.03.2019

23.04.2020 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi 84x108 ¹/₁₆.

Ofset qog'ozi. „Times“ garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 8,4. Adadi 5000. Shartnoma № 91–20.

Buyurtma raqami 381-20.

„Ziyo nashr“

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 23-mavze, 42-uy.

«Credo Print» MChJ

Kitob fabrikasida chop etildi

Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.

Tel.: 71 234-44-01/05

www.credoprint.uz

Fish, Robert

F 74 **Samolyotdagi o'g'irlik.** [Matn]: hikoyalar. / R. Fish; tarjimonlar:
Qandilat Yusupova va b. – T.: „Ziyo nashr“ nashriyoti, 2020. – 160 b.
ISBN 978-9943-6341-5-2

UO'K: 821.HH(73)-32
KBK 84(7AQSH)

ROBERT FISH
SAMOLYOTDAGI
O'GIRLIK



ЗИЮ НАШР



t.me/ziyanashr



fb.com/ziyo.nashr



ziyanashr@mail.ru



ISBN 978-9943-6341-5-2



9 789943 634152